

IJTIMOIIY FANLAR

ilmiy, ijtimoiy va tarixiy jurnal

СОЦИАЛЬНЫЕ НАУКИ

научный, общественный и исторический журнал

SOCIAL SCIENCES

scientific, social and historical journal



Bosh muharrir: Sherzod NEMATOV

Bosh muharrir o‘rinbosari: Ramz RUSTAMOV

Mas’ul kotib: Mirzoulug‘ MAMASALIYEV

TAHRIR HAY’ATI

Anatoliy Sagdullayev, t.f.d., prof. O‘zR FA akad., O‘zbekiston milliy universiteti, O‘zbekiston

Yoqub Mamedov, t.f.d., prof. Ozarbayjon milliy akademiyasi akademigi, Ozarbayjon

Khwaja Md. Ekramuddin, Javaharla’l Neru universiteti professori, Hindiston

Christian Bartolf, Pedagog va siyosatshunos, Urushga qarshi muzey ilmiy xodimi, Germaniya

Qahramon Rajabov, t.f.d., prof. O‘zR FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, O‘zbekiston

Timur Xo‘jao‘g‘li, tilshunos va adabiyotshunos. Michigan universiteti professori, AQSh

Qalib Sayilov, f.f.d., Turkiy Jahon Fanlar Akademiyasi direktorlar kengashi raisi, Ozarbayjon

Qiyomiddin Nazarov, f.f.d., prof. TIQXMMI, O‘zbekiston

Naumenko Oleg, f.f.n., dots. Milliy tadqiqot texnologik universiteti MISIS, Rossiya

Ahad Andijon, Anqara universiteti professori, Turkiya

Tursun Hazretali, t.f.d., prof. Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti

Sakit Huseynov, f.f.d., prof. Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Falsafa va Sotsiologiya instituti

Adham Ashirov, t.f.d., prof. O‘zR FA Tarix instituti, O‘zbekiston

Ismoil Saifnazarov, f.f.d., prof. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston

Dr. Shahid Tasleem, Hindiston – Xalqaro tadqiqotlar akademiyasi Jamia Millia Islomiya professori

Sao Fey, fil. fanlari bo‘yicha PhD, Hanchjou Normal Universiteti professori, Xitoy

Ahmad Sofwan Nathan, Tillar, savodxonlik va tarjima maktabi, Sains Malaysia universiteti

Sanjar Choriyev, f.f.d., prof. Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston

Yulduz Ergasheva, t.f.d., prof. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Baxtiyor Mengliyev, fil.f.d., prof. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston

Finbarr Barry Flood, Nyu-York universiteti gumanitar fanlar professori, Amerika Qo‘shma Shtatlari

Azim Jabborov, p.f.d., prof. Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston

David Crowley, Milliy san‘at va dizayn kolleji, tasviriy madaniyat maktabi rahbari, Dublin

Ochil Bo‘riyev, t.f.n., prof. Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston

Alisher Ochilov, t.f.d., (DSc) prof. Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston

Antonio Gutiérrez-Pozo, Estetika nazariyasi kafedrası professori, Sevilya universiteti, Ispaniya

Bekzod Axmedov, t.f.f.d., dots. Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, O‘zbekiston

Bahodir Omonov, f.f.d., dots. Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston

Gulshoda Bekmurodova, f.f.d., prof. Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston

Gulayim Donbayeva, Talas davlat universiteti professori, Qirg‘iziston

Jamshid Shonazarov, f.f.n., dots. Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston

Imam Wahyudi Karimullah, fil fanlari bo‘yicha (PhD) Islom Malang universiteti, Indoneziya

Tohir Qurbonov, f.f.n., dots. Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston

Zafar Chorshanbiyev, p.f.d., prof. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Dilorom Vasiyeva, t.f.n., prof. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Bunyod Xoliyorov, p.f.f.d.(PhD), dots. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Yusup Manzarov, t.f.n., dots. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Samijon Panjiyev, p.f.f.d. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Go‘zal Ochilova, f.f.n., dots. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Pirnafas Xoliqulov, t.f.n., dots. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Otabek Akmatov, t.f.f.d. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Xurshid Xosiyatov, t.f.f.d. dots. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Bahrom Boqiyev, t.f.f.d. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Nodir Qo‘ziyev, p.f.f.d. Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Tahririyat manzili: Qarshi davlat texnika universiteti

180100, O‘zbekiston, Qarshi sh. Mustaqillik, 225 uy

Telefon: (8375) 221-09-23, +99897 070 81 41, E-mail: qmii@qmii.uz



	IJTIMOIY FANLAR СОЦИАЛЬНЫЕ НАУКИ SOCIAL SCIENCES
Ilmiy, ijtimoiy va tarixiy jurnal 2022-yildan boshlab chiqarilmoqda	2025/2(14)-son
Muassis: Qarshi davlat texnika universiteti Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 225. Telefon: 0375 221 09 23 (97) 070 81 41 Sayt: http://kstu.uz e-mail: Entin_2977@mail.ru Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2021-yil 1-noyabrda ro'yxatga olingan va 1456- raqamli guvohnoma berilgan. Nashr indeksi - 4074 ISSN 2181-2845 14-sonli nashr. Terishga topshirilgan sana 03.06.2025 y. Nashrga berilgan sana 13.06.2025 y. Chop etilgan sana 21.06.2025 y. Bichimi 60x84 1/8. Times garnituras. Shartli bosma tabog'i 6,26. Nashr bosma tabog'i 6,25. Adadi 100. Buyurtma №214 QarMII "INTELLEKT" nashriyoti MIUda chop etildi. Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225.	MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT TARIX / ИСТОРИЯ / HISTORY Ochilov A. Abbosov A. Buxoro shahrining arxeologik o'rganilishi: tarixiy tahlil4 Marqayev K. O'zbek etnonimiyasida totemizm13 Fattullayev F. Buxoro shahrining tarixiy qismi: tadqiqotlarning tarixiy tahlili.....17 Boymurodov Sh. O'zbekiston va Germaniya o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sohasidagi hamkorlik tarixi.....22 Ochilova K. Kino san'ati: estetik, texnologik va madaniy o'zgarishlar....29 Hamrayev I. Zarafshon daryosining Buxoro suv xo'jaligi tarmog'idagi tarixiy ahamiyati.....33 FALSAFA / ФИЛОСОФИЯ / PHILOSOPHY Erkayev A. Milliy g'oya konsepsiyasini rivojlantirish muammolari37 Djurayev G'. Tizimli yondashuvda "yaxlitlik va qism" muammosi44 Ro'zimurodov S. Inson salomatligi me'yorlarini shakllantirish omillari: ijtimoiy-falsafiy tahlil.....48 Alimov A. Husayn Voiz Koshifiy merosida ijtimoiy-axloqiy g'oyalarning ifodasi.....53 Azizqulov A. Xatirchi tumanida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari.....59 Ochilov U. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda islom falsafasining ahamiyati.....65 Lutfullayev A. Yangi O'zbekistonda inson ma'naviy tarbiyasi.....72 FILOLOGIYA / ФИЛОЛОГИЯ / PHILOLOGY Islamova D. Fayzullayeva N. Mumtoz asarlar tilining o'rganilish tarixi.....76 Yusupova O. Olmosh so'z turkumining nutqiy axtarlarni hosil qilishdagi o'rni.....82 PEDAGOGIKA / ПЕДАГОГИКА / PEDAGOGY Sharipov E. Kozimova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda gamifikatsiya va vizual texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan model.....89 Jumanazarova M. Boshlang'ich sinf darslarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....94



BUXORO SHAHRINING ARXEOLOGIK O'RGANILISHI: TARIXIY TAHLIL

Ochilov A.T

tarix fanlari doktori, professor,
Buxoro davlat universiteti

Abbosov A.Z.

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Buxoro nafaqat qadimiy shaharlardan biri, balki o'rta asrlarda dunyoga haqli ravishda tanilgan shahar sifatida ma'lum va mashhur edi. Shahar ilk o'rta asrlarda asrlarda Buxarxudotlar, IX-XI asrlarda Somoniylar, XVI asrda Shayboniylar, XVII-XVIII asrlarda Ashtarxoniylar, XVIII-XX asrlarda Mang'itlar davrida yirik ma'muriy markaz rolini o'ynagan.

Buxoroning uzoq o'tmishi, shaharning vujudga kelishi haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda turlicha uchramaydi. Bu ma'lumotlardan shahar tarixigi oid aniq ma'lumot olish qiyin. Shu sabali, Buxoro shahrining tarixini aniq va ravsha yoritishda arxeologik tadqiqot ishlari juda muhim jihat hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu maqolada Buxoro shahrida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: arxeologik tadqiqot, Buxoro shahri, shurf, sopol, Ark, Shahrison.

АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ГОРОДА БУХАРЫ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Очилов А.Т

Доктор исторических наук, профессор
Бухарского государственного университета

Аббосов А.З

преподаватель Бухарского
государственного университета

Аннотация: Бухара была известна не только как один из древних городов, но и в средние века как город, по праву известный миру. Город играл роль крупного административного центра в раннем средневековье во времена бухарских богов, в IX-XI веках Саманидов, в XVI веке в Шайбани, в XVII-XVIII веках аштарханидов, в XVIII-XX веках мангитов.



Сведения о долгой истории Бухари и формировании города не отличаются письменными источниками. По этим данным сложно получить точную информацию об истории города. По этой причине археологические исследования являются очень важным аспектом истории Бухари. Поэтому в данной статье анализируются археологические исследования, проводимые в Бухаре.

Ключевые слова: археологические исследования, город Бухара, гончарные изделия, гончарные изделия, ковчег, шахристан.

ARCHAEOLOGICAL STUDY OF THE CITY OF BUKHARA: HISTORICAL ANALYSIS

Ochilov A.T

Doctor of Historical Sciences, Professor,
Bukhara State University

Abbosov A.Z

Teacher, Bukhara State University

Abstract: Bukhara was known not only as one of the ancient cities, but also in the Middle Ages as a city rightly known to the world. The city played the role of a major administrative center in the early Middle Ages in the time of the Bukhara gods, in the IX-XI centuries the Samanids, in the XVI century Shaibani, in the XVII-XVIII centuries Ashtarkhanids, in the XVIII-XX centuries Mangits.

Information about the long history of Bukhara and the formation of the city does not differ in written sources. It is difficult to get accurate information about the history of the city from this data. For this reason, archeological research is a very important aspect of the history of Bukhara. Therefore, this article analyzes the archeological research conducted in Bukhara.

Keywords: archeological research, Bukhara city, pottery, pottery, Ark, Shahristan.

KIRISH:

XIX asrning oxirlari N.F.Sitnyakovskiy[1], XX asr boshlarida R.Pampelli[2], L.A.Zimin[3], 1934-yilda A.Y.Yakubovskiylar[4] arxeologik tadqiqotlari Buxoro vohasi tarixi bo'yicha juda ko'plab ma'lumotlarni bersada lekin, tadqiqotlarning barchasi Buxoroning shahar atroflaridagi tadqiqotlar bo'lib, hali Buxoroning shahar qismida arxeologik tadqiqotlar bo'lmagan edi[5].

Buxoroning shahar qismida o'tkazilgan ilk arxeologik tadqiqotlar asosan shahriston hududida joylashgan qadimgi me'moriy obidalarni o'rganish va ularni ta'mirlash ishlari bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, 1934-yilda V.A.Shishkin va



Uzkomstaris tomonidan Buxoro shahridagi Mag'oki Attori masjidi va uning atroflari o'rganiladi [6]. Buxoro tarixi haqidagi adabiyotlarda Mag'oki Attoriy masjidining joylashgan o'rniga qarab ko'pchilik mualliflar tomonidan "yer osti masjidi" deb aytib o'tilgan.

Masjid 1934-yildan oldin ravoq, gumbazlari va binoning yuqori qismi xaroba holatida bo'lib ta'mirlanishga muhtoj bo'lgan, ko'p harakatlar samarasi natijasida masjid ta'mirlangan. Xalq orasidagi rivoyatlar va sharqiy qismdan topilgan yozuvlar shuni ko'rsatadiki, bu bino hijriy 954-yil, milodiy 1547-yilda qayta ta'mirlangan. Bu Shayboniy hukmdor Abdulazizxon hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Masjidning Janubiy qismning naqsh uslubiga qarab, masjidni XI yoki XII asrlarga tegishli, deb ayta olamiz. Chunki, bu uslub O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston hududlaridan topilgan boshqa yodgorliklar orqali ham bizga tanish.

Masjiddagi arxeologik qazishma ishlari masjidning janubiy portalidagi madaniy qatlamlarni tartibga solishdan boshlandi. Bundan asosiy maqsad madaniy qatlamlarini belgilab olish, so'ngra esa masjidni tadqiq qilishdan iborat edi[7].

Janubiy portalda arxeologik tadqiqotlar boshlanishidan oldin u yerni tozalash vaqtida g'ishtdan yasalgan zinapoyalarga behosdan putur yetkazilgan bo'lsada, tadqiq qilish jarayonida 1,5 metr chuqurlikdan fil suyaklari undan uncha uzoq bo'lmagan joyda qadimiy maydonda kulolchilikka oid buyumlar topib o'rganilgan. Sopol buyumlarda qora, oq, yashil ranglarda rasmlar solingan bo'lib, ularga naqshlar va bezaklar bilan ishlov berilgan. Qazishmaning sharqiy qismida 2,5 metr chuqurlikda uncha katta bo'lmagan ko'zada 2 ta kumush va 861 ta mis tangalar topilishi tadqiqotning qanchalar samarali kechganligini ko'rsatib turibdi. Lekin, tadqiqotlar shu bilan chegaralanibgina qolmasdan o'z ishlarini davom ettirishdi. Topilgan xazinadan uncha uzoq bo'lmagan joyda uch metr chuqurlikdan 402 ta mis tangalar topilgan bo'lib, tangalar juda ayanchli ahvolda bo'lganligi sababli ularni qayta tiklashda juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelindi. Shu sababli ishlar ma'lum bir muddat to'xtab qolgan. Janubiy peshtoqdagi qazishma ishlari 1935-yilda chuqurroq davom etirilgan.

Tadqiqotlar natijasida juda ko'plab sopol buyumlari topib o'rganilgan. Sopol buyumlarining sirtiga qora va ko'k ranglarda naqsh, rasmlar mavjud. Sopol buyumlarining ko'pchiligi XV asrga oid bo'lib, bundan tashqari XIII–XIV asrlarga tegishli idish buyumlar va jihozlar topilgan.

Masjidning ichida ham bir qancha qazilma ishlari olib borilgan. Bu yerdan yozuv qoldiqlari ham topilgan. Yozuv qoldiklari e'tiborni o'ziga jalb qilib, bu tadqiqot natijalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvlar "kufiy" yozuvi bilan yozilgan bo'lib, oddiy rasmga barg va shohlarning ajoyib uyg'unligi bilan jilo berilgan. Bu yerdan samoniylar davriga oid chinni buyumlardan farq qiluvchi qo'polroq chinnilar ham topilgan. Bu topilmalardan 3 metr chuqurlikda kichik



hajmdagi fragmentlar, asori antiqalar topilgan. Bular miloddan avvalgi IV asrlarga oid bo'lib, Kushon podsholigi sopol buyumlar davriga to'g'ri keladi. Yana bundan tashqari loydan yasalgan idish-tovoqlar ham bo'lgan. Bu yodgorliklarga nazar solgan har bir kishi Buxoro vohasining qadimiy yodgorliklariga qiziqadi. Ma'lum bir vaqt Buxoro shahrida arxeologik tadqiqotlarda to'xtalish sodir bo'ldi.

XX asrning 50-yillaridan esa Buxoro shahrini arxeologik tadqiq qilish keng tus oldi. 1952-yildan boshlab taniqli mahalliy tarixchi S.N.Yurenev Buxoro shahrining tarixiy obidalarini o'rganish bo'yicha arxeologik ekspeditsiyalarida faol qatnashadi[8] va mintaqani o'rganish doirasida dastlabki arxeologik faoliyatini shaharning tarixiy obidalarini kuzatish bilan boshlagan[9].

S.N.Yurenev binoni sinchkovlik bilan o'rganib chiqib, o'z hisobotida quyidagilarni qayd etdi. Kalon masjidining har tomonida bir xil qamish qatlami yotqizilgan. Binoning sharqiy devorida loydan yasalgan poydevor joylashgan bo'lib, balandligi 4,80 metrni tashkil qilgan. Shimoliy devorning balandligi 5.30 metr edi, poydevori ko'milgan, ammo poydevor g'ishtlari yaxshi saqlangan. Binoning poydevorining holatini aniqlash uchun devorlarning poydevori 80 sm qazilgan va yer qatlamini qazish natijasida XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladigan chinni va shisha parchalar topilgan. Masjidning g'arbiy tomonidagi kirish eshigi yer sathidan 67 sm pastda joylashgan edi. S.N.Yurenevning so'zlariga ko'ra, bu yerda qamish paspaslari ishlab chiqarish ustaxonasi yoki ularni sotish joyi - bozor joylashgan[10].

1952-yil aprel oyida S.N.Yurenev Kalon masjidida masjidning qurilish texnikasi va qurilishda ishlatilgan material turlarini aniqlash maqsadida yangi tadqiqotlarni boshlaydi. S.N.Yurenevning ma'lumotlariga ko'ra, masjidning tomi 27-30 sm tuproq bilan qoplangan. Bu tuproq qatlamdan XIII asrga oid ikkita sopol, XV-XIX asrlarga tegishli ko'plab sopollar va XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yashil sirlangan qopqoqli idishlar topib o'rganiladi[11].

1953-yil may oyida S. N. Yurenev arxeolog sifatida Kalon masjididagi qazishmalarga rahbarlik qiladi. Tadqiqotlarda M.X.Panchenko, arxitektor A.S. Bernshteinlar ham ishtirok etadi. 1953-yil 19-mayda Minorai Kalon va Kalon masjidi o'rtasida 9 ta shurf tushiradi[12].

S.N.Yurenev olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalarni beradi: 1. Kalon masjidi yodgorligining quyi qatlamlari Kushon davriga oidligini aniqlaydi. Masjidning birinchi madaniy qatlamida topilgan va Kushon davri bilan bog'liq ikkita sopol buyumlari buni tasdiqlagan. 2. Uchinchi shurfda, masjidning birinchi poydevori uchun, notekis tosh bloklar ishlatilgan. Madaniy qatlamning qalinligi 25-30 sm. S.N.Yurenevning yozishicha, mo'g'ullar Buxoroni 1220-yil fevralda egallab olishgan, keyin masjid saqlanib qolgan, ammo 1273-yildagi tartibsizliklardan keyin masjid yoqib yuborilgan. Ma'lumotlarga ko'ra,



masjidning birinchi binosi Kutayba ibn Muslim (713-yil) davriga to'g'ri kelishini aytadi. 3. Ikkinchi marta masjid yong'indan keyin xuddi shu joyda qurilgan. Masjidning ikkinchi qurilishida oldingi poydevori tosh plitalari ustiga tuproq qatlami yotqizilgan va shundan keyingina qurilish boshlangan. 4. Masjidning uchinchi qurilishi uchun ikkinchi qurilishi asos bo'lib xizmat qilgan, ustiga yana olti qator g'isht terilib, masjid qurilgan. 1953-yilning 11-18 sentabrda arxeologik tadqiqotlar P.I.Mitrofanov va I.G.Antipov tomonidan olib borilgan va 9 ta shurf tashlangan. 1953-yil 14-sentabrda V. A.Shishkin va A.V.Nilsonlar tadqiqot o'tash joyiga kelib va 1953-yil 21-sentabrgacha tashlangan shurflarda tadqiqotlar o'tash bilan shug'ullanishadi. O'sha yilning 22-sentabridan 10-oktabrigacha chuqurlarning tavsifi tuzilgan. Chuqurlarni suratga olish I.Y.Davidov tomonidan amalga oshirilgan[14]. 1953-yil 31-oktabrda Kalon masjidi yonidagi qazish ishlari tugatilgan[15].

Umuman olganda S.N.Yurenev Buxoro shahri hududining juda ko'plab joylarida tadqiqotlarini amalga oshirgan. U 1955-yilda Ko'kaldash madrasasida, 1956-yilda Fayzobod, Seyfeddin Boharzi, Ko'kaldosh madrasalarida, 1957-1959 yillarda Kalon masjidida qayta ta'mirlash ishlari, arxeologik tadqiqotlar va kuzatishlar olib borgan[16].

1969-yilda O'z.FA akademigi Y.G'ulomov boshchiligida maxsus arxeologiya otryadi Buxoro shahrida arxeologik qazishma ishlarini amalga oshira boshladi[17]. Tadqiqotchilar dastlab shaharning o'rta qismi va Ark atroflarida tekshirish ishlarini olib boradi. Afsuski tadqiqotchilar suv aralash loyqa qatlama uch keladi. So'ngra Zindon yonidagi tekshirishlarda miloddan avvalgi III asr qatlamlarigacha yetib borishga muvaffaq bo'linadi[18].

1970-yilda Samarqand shahrining 2500 yillik yubileyining nishonlanishi qadim va navqiron Buxoro shahrida ham tadqiqotlarni jonlantirib yubordi.

Dastavval 1970-1974-yillarda, so'ngra 1977-1980-yillarda Buxoroning eski shahar qismidagi bir necha joyda keng ko'lamda arxeologik qazishmalar o'tkazildi. Bu vaqtda zamonaviy texnika vositalari bilan qurollangan arxeologlar guruhi yangi usul ishlab chiqishgan. Endilikda, odatdagidek mayda quduqlar (shurf) emas, aksincha katta yer maydonlarida surunkasiga qazishmalar amalga oshiriladigan bo'ladi. Aholi zich joylashgan Buxoroda qazishmalar uchun ochiq maydonlar izlab topish ham oson kechmagan. Nihoyat, «Zindon» muzey-qo'riqxonasi, Masjidi Kalon va Mir Arab madrasasi, Toqi Zargaron va Abdullaxon timi o'rtasida joylashgan maydonlar, 11-13 ga teng qadimiy Shahriston hamda Arkning sharqiy qismida arxeologik kuzatuv va qazuv ishlari olib boriladi.

Bu uchastkalarda yuqori aralash qatlamlar ekskvatorlar yordamida, ostgisi esa faqat belkurak va ketmonlar vositasida sal kam 20 metr chuqurlikda bir nechta shurflar qazilgan, sizib chiqqan yer osti suvlari nasoslar yordamida so'rib olingan.



Xandaklarniig lablari ayrim uchastkalarda o'pirilib, minglab tonna tuproq qazishma maydonlarini bosib qolishiga qaramay, deyarli hamma qazishma uchastkalarida Buxoroning botqoqlik ustida hosil bo'lgan qadimgi ro'yizaminini qazib ochishga erishilgan. Uning bu ona tuprog'i ustida asrlar davomida ba'zi joylarida 14 metr, ba'zi uchastkalarida esa 20 metr qalinlikda madaniy qatlam vujudga kelgani aniqlanadi. Undan topilgan xilma-xil arxeologik topilmalar shahar hayotining turli tarixiy davrlariga mansub bo'lib, ular shaharning paydo bo'lishidan to asrimiznnig boshlariga qadar bo'lgan tadrijiy taraqqiyotini namoyish etgan[19].

Buxoro shahrida keng arxeologik va topografik tadqiqotlar olib boriladi. Xususan, Arkda, Taki Zargaron, Abdulla Timi va Abdulazizxon madrasalari o'rtasidagi savdo maydonchasida, Miri-Arab madrasasida, Saroy Qozi Kalon, Havuzi Qozi kvartallarida stratigrafik shurflar va qazishmalar olib boriladi. Arkning ko'zga ko'ringan devorlari stratigrafik o'rganiladi. Shaharning ko'plab me'moriy yodgorliklarini arxeologik jihatdan o'rganish ishlari olib boriladi[20]. Ushbu tadqiqotlar natijasida Arkning qal'a devorlarining xronologiyasini aniqlashtirish, qadimgi va o'rta asrlarda shahar evolyusiyasining asosiy davrlarini belgilash imkoniyati paydo bo'ladi[20].

Shuni ta'kidlash kerakki, 1970-yillarda Buxoroning eski shahar qismida olib borilgan qazish ishlari natijasida Buxoroning arxeologik tadqiqoti tarixida birinchi marta materikga chuqurroq kirib borish va 20 m dan oshgan madaniy qatlamlarning qalinligini aniqlash mumkin bo'ladi. Miri Arab madrasasida olib borilgan qazish ishlarida daryo qumi, qumli balchiq va loyning alohida qatlamlari, qalinligi 40-70 sm gacha bo'lgan to'q jigarrang torf qatlami, yovvoyi va uy hayvonlari suyaklari va kulolchilik buyumlari bilan to'ldirilgan.

Buxoroning ko'hna shahar qismining yetti joyida keng ko'lamda arxeologik qazishlar amalga oshirildi. Qazilgan maydonlarning deyarli hammasida Buxoroning qadimgi daryovot ichida, botqoqlik ustida hosil bo'lgan ilk ro'yizaminigacha kovlab ochishga muyassar bo'lindi. Buxoro shahri hali qad kutarmasdan avval hosil bo'lgan bu go'sha qatlamlari rangi va tarkibi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Ular uzoq o'tmishda aholi tomonidan hali o'zlashtirilgan, bo'lajak shaharning o'rni va atroflarining tabiiy manzarasini namoyish qilar edi. Bu Abul Hasan Nishopuriyning "Buxoro o'rnashgan mavze ilgari botqoqlik bo'lib, uning ba'zi yerlarini to'qayzor, daraxtzor va ko'kalamzorlar tashkil etgan",— deb tasvirlagan tabiat manzarasini eslatadi.

Buxoroning bu qadimiy tuprog'i ustida asrlar davomida nihoyatda qalin madaniy qatlam vujudga kelgan. Uning qalinligi 20 metrdan oshiqroq bo'lib, uning ostki qatlamlaridan qazib olingan arxeologik topilmalarning eng ko'hnasi milodgacha bo'lgan birinchi ming yillikning o'rtalariga taalluqli deb hisoblanadi. Moddiy madaniyat qoldiqlari ora- sida 15,5 m hamda 18,5 m chuqurlikda saqlangan



qadimgi shahar devorlari qoldiqlarining topilishi Buxoro tarixini o'rganishda, ayniqsa, uning yoshini belgilashda qimmatli ashyoviy dalil sifatida xizmat qildi. Chunki bu qalin madaniy qatlam ostida qayd etilgan bu nodir arxeologik topilmalar Buxoro qadimdan mudofaa devorlari bilan o'ralgan shahar, hunarmandchilik maskani ekanini isbotlovchi asosiy dalillardan edi.

Buxoro shahrining barpo bo'lishi Zarafshon vodiysining o'zlashtirilib obod etilishi hamda voha bo'ylab urbanizatsiyalashgan dehqonchilik, qishloqlar va istehkomsiz turar- joylar, keyinroq esa ko'plab qasrlarning qad ko'tarishi bilan uzviy bog'liq edi. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda Zarafshon vodiysining quyi oqimiga joylashgan, tevarak-atrofi cho'l va biyobonlar bilan o'ralgan Buxoroning qadimgi butazor, to'qayzor va nihoyatda sersuv yerlarining o'zlashtirilishi shubhasiz, bu diyorda dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining kengayib borishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Buxoro shahri endigina shakllanayotgan dehqonchilik vohasining markaziga aylangan. Bu tarixiy manzara qator madaniyat obidalaridan topilgan turli xildagi ashyolardan tashqari, Buxoro shahri yaqinidagi Taxtmachittepa va Talimurdapartov yodgorliklaridan topilib o'rganilgan, miloddan avvalgi IV-II asrlarga mansub Yunon-Bahtar podshohi Yevtidemning kumush tangalari hamda ularga taqlidan so'qilgan va old tomoniga tojdor hukmdor, orqa tomoniga esa otashqada tasviri tushirilgan kumush tangalarda ma'lum darajada o'z ifodasini topgan edi.

Buxoro shahri qadimgi davrlardan bugungi kungacha Mavorounnahrning yirik siyosiy-iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Shaharning tarixiy topografiyasini har tomonlama rejali tarzda o'rganishni XX asr 70-80 yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tomonidan uyushtirilgan A.R. Muhammadjonov rahbarligidagi Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi boshlab beradi. Mir Arab madrasasi, Qozi Kalon saroyi, Qatag'on, Shahriston hamda arkning boshqa yerlarida asosiy strategik ahamiyatga ega qazilma ishlari olib borilgan. Arkning shimoliy qismi va mudofaa devorlarini qazish jarayonida uning qadimgi davrlardan tortib XX asr boshlarigacha bo'lgan davrga taalluqli sakkiz qatlamdan iborat ekani aniqlangan. 1-qatlamda torf ustida kul, sapol idish siniqlari uchragan. Bu ashyolar miloddan avvalgi ming yillik o'rtalarida oid bo'lib, Samarqanddagi Afrosiyobning 10 katlamidan, Tojikistonda Kabadion yodgorligining eng pastki katlamidan, Marvdagi Gourkal'aning 1-katlamidan, Xorazmda miloddan avvalgi VI-V asrlarda bino kilingan Ko'zalikir, Qal'aliqirlardan topilgan" ashyolarga o'xshash va ularga zamondosh edi.

Bu tadqiqotlar turli davrlarda devorning ta'mirlanib turganini ham isbotlaydi. Devorning eng tepasida balandligi bir metr, eni yarim metr qalinlikdagi paxsa saqlangan. Shahriston himoya devorining shimoliy va janubiy old qismini arxeologik qazish ishlari shuni ko'rsatdiki, mazkur hudud qadimgi buxorolik



ziroatchilar tomonidan miloddan avvalgi VI-V asrlarda o'zlashtirilgan. Hozir mavjud shahar va ark esa taxminan VI asrning ikkinchi yarmida, balki Sheri Kishvar hukmronligi davrida qo'rg'on devorlari bilan o'rab olingan. Bu devor to'g'ri burchak shaklida bulib, taxminan 35 gektar maydonni egallagan. Natijada shahar ark, shahriston va shahar atrofi kabi uch qismga bo'linib qolgan. Shahristonning qo'rg'oni 8 asr boshlarigacha mavjud bo'lgan. Narshahiyning ma'lumotlariga ko'ra, 849-850 yillarda ark va shahristonni qamrab oluvchi yangi himoya devori qad ko'targan.

Buxoro shahrida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni o'rganib quyidagi xulosalarga kelindi:

✓ Buxoro shahrida muttasil olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tufayli Zarafshon vodiysining adog'iga joylashgan bu ko'hna maskanning qad ko'targan o'rni va uning uzoq o'tmishdagi paleoekologik shart-sharoitlari, hamda bu diyorda istiqomat qilgan qadimgi aholining ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo'lgan tadrijiy o'zgarishlarning umumtarixiy manzarasi namoyon bo'ldi.

✓ Buxoro shahri sharq dunyosida shahar sivilizatsiyasining yuzaga kelish qonuniyatlari asosida daryo bo'yida barpo bo'lgan.

✓ Buxoro shahri haqida yozma manbalarda Rudizar yoki Zarirud nomi bilan tilga olingan Zarafshonning quyi irmog'ining ikki sohilida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan alohida-alohida qishloklar asosida barpo bo'lganligi ko'p yillik arxeologik tadqiqotlarda isbotini topdi.

✓ Buxoro shahri ko'pgina boshqa qadimiy shaharlardan farqli o'laroq bir joyda paydo bo'lib, necha marta tashqi dushmanlar hammasidan xarob bo'lgan bo'lsa ham, yana o'sha joyda qayta tiklangan. Shuning uchun madaniy qatlami 19 — 20 metrlik ekani ma'lum bo'ldi.

Bu arxeologik faktlar natijasida YUNESKO 1995-yil oktabr-noyabr oylari Parijda bo'lib o'tgan 28-sessiyasida Buxoro shahrining 2500 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlash haqida qaror qabul qildi. 1997-yil iyun oyida Parijda, 19-oktabrda esa Buxoro shahrida shaharning 2500 yillik yubileyi tantanali nishonlandi. Bularning barchasi arxeologik tadqiqotlarning samarasi edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ситняковский Н.Ф. «Заметки о бухарской части долины Зеравшана» приложен ценный список арыков и насиленных пунктов. ПТКЛА. — Ташкент, 1896. С.20.; Ситняковский Н. Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана. Известия Туркестанского отдела русского географического общества. Т. I. вып. 2. - Ташкент, 1900. С.130.

2. Explorations in Turkestan. Expedition of 1903, under the Direction of R. Pumpell, Washington, 1905. P.8-10.



3. Шишкин. В.А. Варахша. -М.,1963.С.16.
4. Шишкин. В.А. Раскопки в мечети Магаки-аттари в Бухаре. «Труды ИИА АН УзССР». Вып.7. –Ташкент,1955. Стр.29-60
5. Шишкин. В.А. Раскопки в мечети Магаки аттари в Бухаре. «Труды ИИА АН УзССР». Вып.7.-Ташкент,1955. С.29
6. Тураев Х. Три частных коллекций документов, поступившие в Бухарский музей Тезисы докладов и сообщений Всесоюзной конференции «Бартольдские чтения -1990». -М.,1990. С.77-78.
7. Boltaev A. Kh. The research of the S.Yurenev un the Mocque Kalan //European Journal of Humanities and Social Sciences. № 5.-Vienna. 2018. P.8.
8. Бухарский музей, инв. № 11448/7. Архив Специальной научно-реставрационной производственной мастерской, инв. № 3210.С.
9. Бухарский музей, инв. № 11444/7. Архив СНРПМ, инв. № 3209.
10. Бухарский музей, инв. № 11446/7. Архив СНПРМ. инв. № 3115.
11. Boltaev A. Kh. The research of the S.Yurenev un the Mocque Kalan //European Journal of Humanities and Social Sciences. № 5. -Vienna. 2018. P.11-12
12. Ставиский Б.Я. Сергей Николаевич Юренев - Человек, Личность, а также музейный работник, археолог, краевед... (материалы биографии). К столетию со дня рождения. Бухарский музей. –Бухара,1996. С.8-30.
13. Мухаммаджонов А. Яхё Гуломовни хотирлаб.-Тошкент,2000. Б.52-53.
14. Жумаев А.Ш.Бухоро археологияси (ўқув-услугий кўлланма).-Бухоро,2006. Б.50.
15. Ахраров И. Археологическое изучение Бухары // Тезисы докладов сессии, посвященной итогам полевых археологических исследований 1972 г. – Ташкент,1973; Ахраров И., Усманова З. И. Новые данные к истории Бухары // История и археология Средней Азии. – Ашхабад,1978. С. 98-106;
16. Мухамеджанов А. Р. Бухара — город двадцати пяти веков. Общественные науки в Узбекистане. Вып.9-10-11.-Ташкент,1997. С.3-9.
17. Мухамеджанов А. Результаты археологических исследований на территории города Бухары // Общественные науки в Узбекистане. № 1.-Тошкент,1984. С.36-44.
18. Жумаев А.Ш.Бухоро археологияси (ўқув-услугий кўлланма).-Бухоро, 2006. Б.50.
19. Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих).-Тошкент,1991.
20. Мухамеджанов А. Р. Бухара — город двадцати пяти веков. Общественные науки в Узбекистане. Вып.9-10-11.-Ташкент,1997. С.3-9.



O'ZBEK ETNONIMIYASIDA TOTEMIZM

Marqayev Komil Sherqulovich

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

[marqayevkomil@gmail.uz;](mailto:marqayevkomil@gmail.uz)

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi totemistik tasavvurlar asosida yaralgan etnonimlar haqida fikr yuritiladi. Turkiy xalqlarda totem hisoblangan hayvonlar, qushlar, o'simliklar, narsalar haqida tarixiy manbalarda ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Totemizm ilk urug'chilik davrida yuzaga kelgan. Etnonimlarning ba'zilarida totem hisoblangan hayvon yoki qush aniq sezilib turadi (buqa, toyloq, tulki, qarg'a), ba'zilarida esa u yashirin holatdadir (avjin, qo'ng'iroq, bahrin).

Tayanch so'zlar: etnonim, totem, totemik e'tiqod, urug', qabila, etnos.

TOTEMIZM В УЗБЕКСКИХ ЭТНОНИМАХ

Маркаев Комил Шеркулович

Кандидат филологических наук, доцент

Университет информационных технологий и управления

Аннотация. В статье рассматриваются этнонимы, возникшие на основе тотемистических представлений в узбекском языке. В исторических источниках сохранились некоторые сведения о животных, птицах, растениях и предметах, считавшихся тотемами у тюркских народов. Тотемизм зародился в период раннего родового общества. В некоторых этнонимах явно прослеживается связь с тотемными животными или птицами (бык, копыто, лиса, ворон), в других же она скрыта (авджин, конгирот, бахрин).

Ключевые слова: этноним, тотем, тотемическое верование, племя, род, этнос.

TOTEMISM IN UZBEK ETHONYMS

Markayev Komil Sherqulovich

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

University of Information Technologies and Management





Abstract: *The article examines ethnonyms that originated from totemistic beliefs in the Uzbek language. Historical sources have preserved some information about animals, birds, plants, and objects that were considered totems among Turkic peoples. Totemism emerged during the early tribal society period. In some ethnonyms, the connection with totemic animals or birds (bull, hoof, fox, raven) is clearly traceable, while in others it is more obscure (Avjin, Kongirot, Bakhrin).*

Keywords: *ethnonym, totem, totemic belief, tribe, clan, ethnos.*

KIRISH:

Milliy qadriyatlarning transformasiyalashuvi jarayonlari kuchayib, urugʻ-jamoa munosabatlari haqidagi tasavvurlar tobora unutilmoqda, milliy oʻzlikni anglash susaymoqda. Albatta, urugʻ, qabilachilik munosabatlarini tiklashning aslo imkoniyati yoʻq. Lekin xalqimizning jamoaviy qadriyatlarini avaylab-asrab, hozirgi kundalik turmushimizda samarali foydalanish nihoyatda zarur. Shu boisdan har bir inson oʻz shajarasini, yaʼni qabila, urugʻining nomlarini teran bilmogʻi lozim.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI.

Xitoy manbalarida turkiylarda boʻri va xon soʻzlari sinonim sanalib, qadimiy turk qavmlari tugʻ (bayroq)larida boʻrining ramzlari boʻlgan. Turkman professori S.Otaniyozovning yozishicha, turkman tilida biri, mejdek (“boʻri” maʼnosida), gurt (“boʻri”) kabi etnonimlar mavjud. Abulgʻoziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarida Oʻgʻuzxon davrida totemik eʼtiqodlar haqida fikr bildirilgan. V.V.Bartold ham Rashiddin fikrlariga tayanib, Islom davrida ham oʻgʻuzlarda totemistik tasavvurlar borligi va uni qabila yoki urugʻning aʼzosi deb hisoblashganini yozgan.

TADqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqola etnik nomlarning paydo boʻlishini turkiy manbalarda, jumladan oʻzbek tilidagi mohiyati va yaralish asosini oʻrganishga bagʻishlangan. Muammoni kengroq yoritish maqsadida tarixiy-qiyosiy usuldan ham foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Milliy yuksalish tufayli oʻzlikni anglashga va tarixiy qadriyatlarimizning tiklanishiga keng yoʻl ochildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahnamoligida ajdodlarimizni eʼzozlash va qadrlash tuygʻularini kuchaytirish maqsadida olamshumul va keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz taʼkidlaganidek: “Millat tarixini milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy taʼsiri boʻlmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga oʻrgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”[1]. Keyingi yillardagi ayrim manbalarda oʻzbek etnik birlik (qabila, urugʻ) lari nomlari XIX asrning oxiri XX asrning 50-yillarida bahram topib oʻzbek millati tarkibiga singib ketgan va unutilgan deb fikr bildirishadi. Vaholanki, hozirgi



vaqtlarda Yurtimizning yirik shahar va qishloq mahallalarida yashaydigan aholi o'z qabila va urug'larini unutishgan bo'lsada, ajdodlari o'troq, yarim o'troq tarzda yashagan O'zbekistonning janubiy hududlaridagi o'zbeklarda (qiyot, qo'ng'iroq, chuyut, mang'it, qatog'on, uz, juz (yuz), saroy, barlos, kenagas, va h.k) esa urug'chilik munosabatlari anchagina saqlanib qolgan.

Totemizmi ilk urug'chilik davrida yuzaga kelgan diniy ko'rinish bo'lib, bunga ko'ra ma'lum urug' va qabila, uning a'zolari biror hayvon, o'simlik yoki predmet bilan qandaydir aloqador deb hisoblangan va bu aloqa qarindoshlik deb tushunilgan. Shunga ko'ra, hayvon, o'simlik yoki narsa muqaddaslashtirilgan va unga sig'inilgan. Totem so'zi Shimoliy amerikalik odjiva hindiyalar tilidagi *ototem* so'zidan olingan bo'lib, «*uning urug'i*» ma'nosini anglatadi. Totem deb tan olingan jonli yoki jonsiz obyekt urug', qabila yoki shu kabi etnik birlikning shunchaki muqaddas e'tiqodi bo'lmasdan, totemni qarindosh deb hisoblashgan, o'zlarining taqdiri va baxtini u bilan bog'lashgan. Masalan, turklarning qadimiy ajdodlari bo'rini muqaddas hayvon deb hisoblashgan va u totem bo'lgan. Xitoy mualliflarining xabar berishlaricha, VI asr turklarda bo'ri va xon so'zlari sinonim tushunchalarni anglatadi. Shuning uchun qadimiy turklarning bayroqlarida bo'rining kallasi tasviri tushirilgan razmlar bo'lgan. O'zbeklarda bo'ri chaqaloqni o'limdan asraydi deyilgan e'tiqod bolaga Bo'ri, Bo'rivoy, Bo'riniso, Bo'rixol, Bo'riqul, Bo'rimurod, Boybo'ri kabi ismlar berilishida, chaqaloqni bevaqt o'lim va baloqazodan asrash uchun uni tug'ilgach, bo'ri terisiga o'rab olishda, bo'ri jag'idan o'tkazishda, farzand ko'rmagan ayollarning bo'rining tishini beliga bog'lab yurishlarida va shu kabilarda yorqin ifodalangan. Turkman professori S.Otaniyozovning yozishicha, turkman tilida biri, mejdek («bo'ri» ma'nosida), gurt («bo'ri») kabi etnonimlar mavjud[2].

Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarayi tarokima» asarida qayd qilinishicha, O'g'uzxon davrida shunqor, ukki, qarchig'ay, turumboy, lochin, humoy, tuyg'un, qarg'a muqaddas qush – totem hisoblangan[3]. V.V.Bartold Rashiddin bergan ma'lumotlarga asoslanib, o'g'uzlarda hatto islom davrida ham totemik e'tiqod saqlangani va ular har bir qushni e'zozlashib, uni urug'ning a'zosi deb hisoblashganini, ularga tegishmagani va go'shtini yeyishmagani yozgan edi. Totemizmi bilan bog'liq mana shu kabi tasavvurlar dunyodagi ko'pgina xalqlarda mavjud. To'plangan etnonimik materiallar orasida 50 ga yaqin etnonimning totemik e'tiqodlar bilan aloqadorligi ma'lum bo'ldi: avjin, bag'ish, bahrin, uyshin, bo'g'un, boybo'ri, guvalak, ilonli, kaltatoy, kojar, kerayit, kiyikchi, javli, olchin, sari, toyloq, tulki, to'lg'a, to'pichoq, enaka, esaboy, yobi//yobu, chovgan, chuvalay, qarg'a, qiyg'ochli, qorabura, qoralochin, qoraqush, qoraqo'yli, qoraqursoq, qo'yin, qo'zichi, qo'ng'iroq, qo'chqorbuloq va boshqalar.





Keltirilgan etnonimlarning ba'zilarida totem hisoblangan hayvon yoki qush aniq sezilib turadi (buqa, toyloq, tulki, qarg'a), ba'zilarida esa u yashirin holatdadir (avjin, qo'ng'iroq, bahrin). Keyingi holatda etnonim uchun asos bo'lgan va totemik tasavvur ifoda qiluvchi so'z hozirda iste'moldan chiqqan, shuning uchun ham tushunarsiz bo'ladi. Shu sababli quyida keyingi tip, yani botiniy ma'no kasb etgan etnonimlarning ba'zilariga to'xtalamiz.

Avjin – urug' nomi. U av<ev<uy shaklida o'zgargan bo'lib, qadimiy turkiy tilda uy – sigir ma'nosidir. –jin, -chin, -chil predmetning mavjudligini anglatuvchi qo'shimchadir[4].

Bahrin – turklashgan mo'g'ul qabilasi nomi bo'lib, dastlab Dashti Qipchoqqa kelib o'rinishgan, keyinchalik, XVIII-XIX asrlarda ularning katta qismi Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysiga tarqalgan. 1924 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda bahrinlarga mansub 9000 aholi yashagan. Bahrin qadimiy turkiy tilda katta yirtqich qush, lochinning bir turi bo'lib, uni qo'lga o'rgatib ovchilikda foydalanilgan.

Bug'un//bug'un – gavzan ham deb yuritiluvchi ushbu hayvon tog' sigiri ma'nosini beradi. Bu yerda sigir totemdir va undan urug' nomi yasalgan.

Kaltatoy – qadimgi turkiy qabila va o'zbek urug'laridan birining nomi. Kaltatoy so'zi kichik jussali, kalta bo'yinli otni anglatgan va u totem hisoblangan[5]. Etnos nomi ana shu asosda yasalgan.

Yobi//yobu – qabila va urug' nomi bo'lib, bu so'z oddiy, jaydari otni anglatgan.

O'zbek dostonlarida: «Yobi dema, shu ot tulpor ekan de» misrasi uchraydi. Ot nomining etnos nomiga o'tishi totem bilan aloqador.

Qo'ng'iroq-qadimiy turkiy qabila nomi. XX asrning 20 yillarida qo'ng'iroqlar 134650 kishini tashkil qilgan bo'lib, Qashqadaryo hududida, Surxondaryoning Boysun va Sherobod tumanlarida yashagan. Qo'ng'iroqlar o'zbek tilining qipchoq lahjasida so'zlashgan. Qo'ng'iroq etnonimining etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud. Ba'zilar uni qo'ng'ir rangli otga bog'lashsa, boshqalar rang nomi bo'lgan qo'ng'ir leksemasiga daxldor deb hisoblashgan. Ammo, ba'zi tadqiqotchilar fikricha, qo'ng'iroq so'zi qadimiy turkiy so'z bo'lib, u mo'g'ulcha xun kerey (qora qarg'a) so'ziga aloqadordir, u xun+kerey+t>xunkereyt>xunkirat> ko'ngirat>qo'n-g'iroq evolyusiyasini boshidan kechirgan. So'z tarkibidagi -t qo'shimchasi ko'plik, jamlik, to'dani anglatgan. Demak, qo'ng'iroq asli qarg'alar demakdir [6]. Qarg'a esa qadimiy turklarda totem hisoblangan. Buni kerayit etnonimining paydo bo'lishi ham isbotlaydi.

Kerayit qadimiy oltoy tillariga mansub so'z bo'lib, u qarg'a ma'nosini anglatgan. So'z oxiridagi -t ko'plik, jamlikni bildirgan [7]. Mo'g'ul tilida ham xerree(n)-qarg'a demakdir. Mana shunday fikrni G.Axmetyanov ham aytgan. Shu



bilan birga kerayit soʻzini qora uy, Rashiddin esa qora odam deb talqin qilgani ham maʼlum. Ammo kerayit etnonimini totem boʻlgan qargʻa nomi bilan bogʻlab izohlash kengroq tarqalgan.

XULOSA:

Oʻzbekistonning janubiy hududlaridan toʻplangan etnonimik materillar turkiy xalqlar, jumladan, oʻzbeklarda hayvonlar nomi (buqa, boyboʻri, kiyikchi, olchin-bugʻu, sari-qoʻy, toyloq, tulki, toʻpichoq, qorabura, qoraqoʻyli, qoʻzichi, qoʻchqorbuloq), qushlar nomi (irgʻoqli, kojor-burgut, jovli-lochin, toʻlgʻa, chavgon-lochin, chuvalay, qargʻa, qiygʻochli-qaldirgʻoch, qoralochin, qoraqush), baʼzi mayda jonivorlar nomi (ilonli, sariqumursqa, murcha, qoramurcha, chumoli) totem boʻlgani va ular nomi oʻsha asosda urugʻ va qabilalar nomiga koʻchganini koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Xalq soʻzi”. Toshkent, 2021-yil 20-yanvar.
2. Атаниязов С. Этнонимы в туркменском языке. Дисс. ... д-ра филол. наук. Ашхабад. 1990. 290 с.
3. Abulgʻoziy B. Shajarayi tarokima. Toshkent. Choʻlpon, 1995. 48 b.
4. Nafasov T. Oʻzbekiston toponimlarining izohli lugʻati. Toshkent. Oʻqituvchi, 1988. 288 b.
5. Nafasov T., Markayev K. Uzbekskiy etnoantropnimi // Onomastika Uzbekistana. Tashkent. 1989. S. 136-139.
6. Marqayev K.SH. Oʻzbek etnonimlari. Monografiya. Qarshi. 2021 “Intelekt-nashriyot”, 108 b.
7. Otajanova A. Xorazm etnotoponimlari va ularning lugʻaviy asoslari. Filol. fan. nomz. ... diss., Toshkent. 1997, 139 b.

BUXORO SHAHRINING TARIXIY QISMI: TADQIQOTLARNING TARIXIY TAHLILI

Fattullayev Farrux Fazliddin oʻgʻli

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro shahrining tarixiy qismiga tegishli mahallalar tarixi, uni oʻrganishga doir olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari xronologik ketma ketlikda tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Buxoro, tarixiy markaz, mahalla, tadqiqotlar, YUNESKO, 2500 yillik yubiley.



ИСТОРИЧЕСКАЯ ЧАСТЬ ГОРОДА БУХАРЫ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЯ

Фаттуллаев Фаррух Фазлиддин угли

Базовый докторант Бухарского государственного университета

***Аннотация.** В данной статье в хронологическом порядке анализируются история кварталов, входящих в историческую часть города Бухары, проведенные исследования и их результаты.*

***Ключевые слова:** Бухара, исторический центр, окрестности, исследования, ЮНЕСКО, 2500-летие.*

HISTORICAL PART OF THE CITY OF BUKHARA: HISTORICAL ANALYSIS OF RESEARCH

Fattullayev Farrukh Fazliddin oglu

Bukhara State University basic doctoral student

***Abstract.** In this article, the history of neighborhoods belonging to the historical part of the city of Bukhara, the research conducted and their results are analyzed in chronological order.*

***Keywords:** Bukhara, historical center, neighborhood, research, UNESCO, 2500th anniversary.*

KIRISH:

O'zbekiston zaminining qaysi hududiga murojaat qilmaylik, ming yillik yer qa'ridagi ilk hayot nishonalarini, eng qadimiy madaniyat va san'at namunalarini har qadamda topish va shu orqali bu yerlarda qanday buyuk sivilizatsiya mavjud bo'lganligini ko'rishimiz muqarrar. Mana shu mo'tabar yurtimizdagi yerosti xazinalaridan, asrlar davomida sukutga cho'mib yotgan shahristonlardan topilgan arxeologik ashyolar, noyob tasvirlar va hali ochilmagan, o'z sirlarini pinhon saqlab kelayotgan cho'lu biyobonlar, hech shubhasiz, bugun biz yashayotgan tuproqda qadim - qadim zamonlardan boshlab buyuk madaniyat va san'at rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Shu ma'noda, ulug' ajdodlarimizning umumjahon va umumbashariyat taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasini hozirgi kunda dunyoda hech kim inkor qilolmaydi. Bunday xulosani yuzlab bebaho topilmalar, osori-antiqalar va buyumlar isbotlab beradi[1]. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan qadimiy Buxoro





savdo-sotiq markazi sifatida jahonga dong taratdi. O'rta asrlardayoq o'zining timu-toqlari, o'ziga xos savdo rastalari bilan xorijlik savdogarlar e'tiborini tortgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... Azaldan savdo yo'llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan boqiy Buxoro, uning ko'pni ko'rgan, ilm-ma'rifat, dinu diyonat, bunyodkorlik borasida nom qozongan xalqi har qanday hurmat va e'tiborga munosibdir". Dunyoda alohida bir elga, alohida bir yurtga bag'ishlab barpo qilingan yodgorliklar majmuasi kamdan-kam uchraydi. Buxoroi Sharif ayni shunday o'lkalar qatoriga kiradi. Shahrimizda shunaqa tarixiy obidalar borki, ularga o'xshashini hech qaysi musulmon davlatida uchratmaysiz.

ASOSIY QISM.

Buxoro asrlar davomida ulkan Sharqning ilmu ma'rifat va dinu e'tikod markazlardan biri sifatida jaxonga dong'i ketgan qadimiy shaxar. Buxoro o'z davrida ilm-fan, ma'rifat va madaniyat markazlaridan biriga aylanib, bu shaxarda diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topgan.

Asrlar davomida Buxoroning dong'i butun Shark bo'ylab faqat ilmu ma'rifat, madaniyat hamda savdo-sotiq sohasidagina emas, balki Turkistonning yirik ma'muriy markazi sifatida ham taralib kelgan. Chunki bu shaxar Quyi Zarafshon o'lkasining qadimgi hokimlarining markaz shaharlaridan biri bo'lgan.

Buxoro o'tmishi garchi tarixiy va tadrijiy voqealarga nihoyatda boy va qiziqarli bo'lsada, ammo uning zarvaraqlarining ko'pgina sahifalari bizgacha to'liq saqlanmagan.

Ayniqsa vohaning uzoq o'tmishi haqidagi ma'lumotlar, shaharning vujudga kelishi haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda mutloqo uchramasligi sababli, Buxoroning qadimgi davrlardagi tarixini yoritishda arxeologik kuzatishlar va tadqiqotlar juda muhim jihat hisoblanadi.

Ulkan ko'hna Sharqning dinu e'tiqod, ilm-fan va ma'rifati yo'lida o'zining qo'shgan salmoqli hissasi tufayli ilk o'rta asrlardayoq "Qubbatul islom", "Buxoro-i sharif" nomlari bilan musulmon olamida shuhrat topgan- Buxoroning tarixiy o'tmishini o'rganish, hozirgi kunda yangi bir bosqichga ko'tarildi.

Dunyo miqyosida XVII-XVIII asrlardan boshlab qadimiy madaniyat obidalarini arxeologik nuqtai-nazardan tadqiq qilish boshlangan bo'lsa, bizning o'lkamizda bu ishlar faqatgina XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridan boshlangan. Bu davrda Buxoro vohasi Buxoro amirligining markaziy mintaqasi bo'lib, uzoq vaqtgacha bu joyda arxeologik tekshirishlar o'tkazilishi uchun ruxsat berilmagan. Ayniqsa, Buxoro hukmdorlari, islom dini vakillari o'lkadagi yodgorliklarni qazib o'rganishni man qilganlar.

XX asrning 50-yillaridan esa Buxoro shahrini arxeologik tadqiq qilish keng tus oldi. 1952-yildan boshlab taniqli mahalliy tarixchi S.N.Yurenev Buxoro shahrining



tarixiy obidalarini o'rganish bo'yicha arxeologik ekspeditsiyalarida faol qatnashadi va mintaqani o'rganish doirasida dastlabki arxeologik faoliyatini shaharning tarixiy obidalarini kuzatish bilan boshlagan[2].

S.N.Yurenev binoni sinchkovlik bilan o'rganib chiqib, o'z hisobotida quyidagilarni qayd etdi. Kalon masjidining har tomonida bir xil qamish qatlami yotqizilgan. Binoning sharqiy devorida loydan yasalgan poydevor joylashgan bo'lib, balandligi 4,80 metrni tashkil qilgan. Shimoliy devorning balandligi 5.30 metr edi, poydevori ko'milgan, ammo poydevor g'ishtlari yaxshi saqlangan. Binoning poydevorining holatini aniqlash uchun devorlarning poydevori 80 sm qazilgan va er qatlamini qazish natijasida XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladigan chinni va shisha parchalar topilgan. Masjidning g'arbiy tomonidagi kirish eshigi yer sathidan 67 sm pastda joylashgan edi. S.N.Yurenevning so'zlariga ko'ra, bu erda qamish paspaslari ishlab chiqarish ustaxonasi yoki ularni sotish joyi - bozor joylashgan[3].

1952-yil aprel oyida S.N.Yurenev Kalon masjidida masjidning qurilish texnikasi va qurilishda ishlatilgan material turlarini aniqlash maqsadida yangi tadqiqotlarni boshlaydi. S.N.Yurenevning ma'lumotlariga ko'ra, masjidning tomi 27-30 sm tuproq bilan qoplangan. Bu tuproq qatlamdan XIII asrga oid ikkita sopol, XV-XIX asrlarga tegishli ko'plab sopollar va XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yashil sirlangan qopqoqli idishlar topib o'rganiladi.

1953-yil may oyida S.N.Yurenev arxeolog sifatida Kalon masjididagi qazishmalarga rahbarlik qiladi. Tadqiqotlarda M.X.Panchenko, arxitektor A.S. Bernshteinlar ham ishtirok etadi. 1953-yil 19-mayda Minorayi Kalon va Kalon masjidi o'rtasida 9 ta shurf tushiradi.

S.N.Yurenev olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalarni beradi: 1.Kalon masjidi yodgorligining quyi qatlamlari Kushon davriga oidligini aniqlaydi. Masjidning birinchi madaniy qatlamida topilgan va Kushon davri bilan bog'liq ikkita sopol buyum buyumlari buni tasdiqlagan. 2. Uchinchi shurfda, masjidning birinchi poydevori uchun, notekis tosh bloklar ishlatilgan. Madaniy qatlamning qalinligi 25-30 sm. S.N.Yurenevning yozishicha, mo'g'ullar Buxoroni 1220-yil fevralda egallab olishgan, keyin masjid saqlanib qolgan, ammo 1273-yildagi tartibsizliklardan keyin masjid yoqib yuborilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, masjidning birinchi binosi Kutayba ibn Muslim (713-yil) davriga to'g'ri kelishini aytadi. 3. Ikkinchi marta masjid yong'indan keyin xuddi shu joyda qurilgan. Masjidning ikkinchi qurilishida oldingi poydevori tosh plitalari ustiga tuproq qatlami yotqizilgan va shundan keyingina qurilish boshlangan. 4. Masjidning uchinchi qurilishi uchun ikkinchi qurilishi asos bo'lib xizmat qilgan, ustiga yana olti qator g'isht terilib, masjid qurilgan. Har bir davrda ishlatilgan g'ishtlarning o'lchamlari har xil: masjidning ikkinchi qurilishi g'ishtlarining hajmi 28x28x5,5 sm,



masjidning birinchi qurilishi paytida – 19x19x3 sm g'ishtlardan foydalanganligi aniqlangan.

1953-yilning 11-18-sentabrida arxeologik tadqiqotlar P.I.Mitrofanov va I.G. Antipov tomonidan olib borilgan va 9 ta shurf tashlangan. 1953-yil 14-sentabrda V. A.Shishkin va A.V.Nilsonlar tadqiqot o'tash joyiga kelib va 1953-yil 21-sentabrgacha tashlangan shurflarda tadqiqotlar o'tash bilan shug'ullanishadi. O'sha yilning 22-sentabridan 10-oktabrigacha chuqurlarning tavsifi tuzilgan. Chuqurlarni suratga olish I.Y.Davidov tomonidan amalga oshirilgan. 1953-yil 31-oktabrda Kalon masjidi yonidagi qazish ishlari tugatilgan[4].

Umuman olganda S.N.Yurenev Buxoro shahri hududining juda ko'plab joylarida tadqiqotlarini amalga oshirgan. U 1955-yilda Ko'kaldash madrasasida, 1956-yilda Fayzobod, Seyfeddin Boharzi, Ko'kaldosh madrasalarida, 1957-1959-yillarda Kalon masjidida qayta ta'mirlash ishlari, arxeologik tadqiqotlar va kuzatishlar olib borilgan[5].

XX asrning ikkinchi yarmida sovet mustabid tuzumi davrida ham O'zbekistondagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash-tiklash borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Masalan, KPSS Markaziy Qo'mitasi tomonidan 1980-yil 12-avgustda "SSSR xalqlari tarixiy va madaniy yodgorliklari to'plamini nashr qilish to'g'risida" qaror qabul qilinadi. Mazkur qaror asosida 1980-yilning 8-sentabrida O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi va Ministrlar Sovetining yodgorliklar to'plamini nashr qilish to'g'risidagi 604-sonli qarori chiqadi. Ushbu qaror shartlarini bajarish yuzasidan, O'zbekiston KP MK va Ministrlar Sovetining 1980-yil 17-sentabrdagi 164"P"- sonli buyrug'iga asosan, 1983-yilda Buxoro viloyati va shahri tarixiy-madaniy yodgorliklarini to'plam nashriga tayyorlash to'g'risida tadbirlar belgilanadi.

1980-yil 19-sentabrda YUNESKOning qarori bilan Toshkentda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yillik yubileyi nishonlandi. Mazkur yubileyga tayyorgarlik munosabati bilan Buxorodagi 40 ta me'morchilik yodgorliklari ta'mirlandi, Toshkent va Afshonada allomaga haykal o'rnatildi. O'zSSR Madaniyat vazirligining 1980-yil 25-avgustdagi 417-sonli buyrug'i asosida tuzilgan hukumat komissiyasi tomonidan 20 ta yodgorlik "a'lo"ga, 20 tasi esa "yaxshi" ta'mirlangan, deb qabul qilib olindi. O'zSSR Madaniyat vazirligi kollegiyasining 25-mart 1982-yildagi 413-sonli qarorida Buxoro viloyati madaniyat boshqarmasining O'zSSR "Tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunning bajarilishi borasidagi ishlar haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi. Viloyatda jami 714 ta yodgorlik davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ulardan 329 ma'muriy, 259 monumental san'at, 126 tasi arxeologik yodgorliklar bo'lgan. Yana 20 ta yodgorlikni ittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan yodgorliklar ro'yxatiga kiritish tavsiya qilingan. 274 yodgorlik esa respublika ahamiyatiga ega bo'lib, davlat



muhofazasiga olingan. Buxoro shahri va viloyatdagi tuman markazlarida 379 ta yodgorlikning hisob varaqasi tuzilgan. 143 yodgorlik fotofiksatsiya qilindi. 1987-yilda esa 603 ta yodgorlik davlat muhofazasi va hisobiga olingan bo'lib, ulardan 293 tasi me'moriy, 100 tasi arxeologik, 210 tasi monumental san'at asarlari bo'lgan. 24 ta yodgorlik ittifoq, 244 tasi respublika va 335 tasi mahalliy ahamiyatiga ega yodgorliklar toifasiga kiritildi. 2 ta me'moriy obida, ya'ni Ismoil Somoniy maqbarasi va Minorayi Kalon YUNESKO tomonidan ro'yxatga olingan.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, Buxoroning eski shahar qismidagi mahallalar tarixini o'rganishda tarixiy va arxeologik tadqiqotlar juda muhim jihat hisoblanadi. Aynan shu tadqiqotlar Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyini nishonlash uchun zamin bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jayxun sohilidagi boqiy shaxar. Ma'rifat, 2002, 3 aprel, -B.5.
2. Boltaev A. Kh. The research of the S.Yurenev un the Mocque Kalan //European Journal of Humanities and Social Sciences. № 5.-Vienna. 2018. P.8.
3. Бухарский музей, инв. № 11448/7. Архив Специальной научно-реставрационной производственной мастерской, инв. № 3210.
4. Boltaev A. Kh. The research of the S.Yurenev un the Mocque Kalan //European Journal of Humanities and Social Sciences. № 5. -Vienna. 2018. P.11-12.
5. Ставиский Б.Я. Сергей Николаевич Юренев - Человек, Личность, а также музейный работник, археолог, краевед (материалы биографии). К столетию со дня рождения. Бухарский музей. –Бухара,1996. С.8-30.

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI SOXASIDAGI HAMKORLIK TARIXI

Boymurodov Shuhrat Toshkenboyevich

Qarshi xalqaro universiteti ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: O'zbekiston xalqaro nufuzli tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan turli yo'nalishlarda, xususan, Germaniya bilan o'rta maxsus ta'limi muassasalarini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv tarbiya jaryonini tashkil etishi, hamda kadrlar malakasini oshirish, turli mavzuda ilmiy anjumanlar tashkil etish bo'yicha hamkorlik tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zbek-german loyiha, KFW, Gyote instituti, akademik litsey, nemis fondi, InWEnt.





ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ СРЕДНЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ГЕРМАНИЕЙ

Боймуродов Шухрат Тошкенбоевич

доцент кафедры социально-гуманитарных наук
Каршинского международного университета

***Аннотация:** В статье анализируется сотрудничество Узбекистана с влиятельными международными организациями и зарубежными странами по различным направлениям, в частности, с Германией в укреплении материально-технической базы средних специальных учебных заведений, организации учебно-воспитательных процессов, а также повышении квалификации кадров, организации научных конференций на различные темы.*

***Ключевые слова:** узбекско-германский проект, Kfw, Гёте-Институт, академический лицей, Немецкий фонд, Inwent.*

HISTORY OF COOPERATION IN THE FIELD OF SECONDARY VOCATIONAL EDUCATION BETWEEN UZBEKISTAN AND GERMANY

Boymurodov Shuhrat Toshkenboyevich

Associate Professor of the Department of Social and
Humanitarian Sciences of Karshi International University

***Abstract:** The article analyzes Uzbekistan's cooperation with influential international organizations and foreign countries in various areas, in particular, with Germany in strengthening the material and technical base of secondary specialized educational institutions, organizing educational processes, as well as improving the skills of personnel, and organizing scientific conferences on various topics.*

***Keywords:** Uzbek-German project, KFW, Goethe Institute, academic lyceum, German foundation, Inwent.*

KIRISH:

Mustaqillik yillarida O'zbekiston turli xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy sohalarda qizg'in hamkorlik olib bordi. Xalqaro aloqalarda ta'lim sohasi markaziy bo'g'inlardan biri bo'lib, ta'lim tizimining barcha bosqichlaridagi muassasalar xorijiy davlatlarning u yoki bu ta'lim maskanlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ydi. O'zbekiston BMT, YUNESKO,



YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar hamda O'zbekiston ta'lim sohasida Konrad Adenauer fondi (Germaniya), Britaniya Kengashi, Tassis kabi xalqaro tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'ydi.

O'zbekistonda Germaniyaning KfV banki bilan hamkorlikdagi "Axborot va kommunikatsion texnologiyalar sohasida kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga ko'mak" loyihasi, Germaniya texnikaviy hamkorlik tashkiloti (GTZ)ning "O'zbekistonda boshlang'ich kasb-hunar ta'limini qo'llab-quvvatlash" kabi loyihalari amalga oshirildi. Germaniyaning KfV bankining 8,7 mln yevro, Germaniya Texnikaviy Hamkorlik tashkilotining 4,4 mln yevro miqdoridagi "O'zbekistonda boshlang'ich kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga ko'mak" grand loyihasi amalga oshirildi.¹ Mablag'ning 850 ming markasi kasb-hunar kollejlari zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlashga yo'naltirildi.² 1999-2001 yillar davomida Toshkent shahri va viloyati, Samarqand viloyatidagi 5 ta kollej o'quv laboratoriyalarini jihozlash uchun 1,5 mln marka sarflandi. Mazkur ta'lim muassasalarida xalqaro tajribalar asosida o'quv rejasi va dasturi ishlab chiqildi. Shuningdek, Germaniyaning "Pfaff-Zingir" kompaniyasi 1999-2003 yillar davomida respublikadagi 65 ta kollejlarda yangi uskunalar o'rnatishga ko'maklashdi³.

1999-2004 yillar davomida "O'zbekistonda boshlang'ich kasb-hunar ta'limini qo'llab-quvvatlash" o'zbek-german loyihasi asosida ish beruvchi hamkor korxonalar bilan birgalikda 4 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayoni 8 ta kasb-hunar kollejida tajribadan o'tkazildi. Masalan, moliyaviy va tashkiliy ishlar bo'yicha mutaxassislar Qo'yliq maishiy xizmat, Buxoro iqtisodiyot va bank hamda Samarqand yengil sanoat kasb-hunar kollejlari, mehmonxona xo'jaligi, restoran ishi va turizm bo'yicha mutaxassislar Toshkent, Buxoro va Samarqandagi Sartepa turizm kasb-hunar kollejlari xalqaro oshxona oshpazlari Qo'yliq maishiy xizmat, Toshkent va Buxoro turizm kollejlari hamda qishloq xo'jaligi texnikasi va jihozlari bo'yicha mexaniklar Toshkent viloyatining Qibray hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumanlarida joylashgan qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari tayyorlandi. Mazkur ilm maskanlarida ta'lim jarayoni yangi tajribaviy o'quv reja va dasturlari asosida tashkil etilib, bu yerdagi o'quv ishlab chiqarish ta'limi jarayonlariga 240 ta korxona jalb etildi. Ta'lim-tarbiya jarayonini kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari va muhandis-pedagoglari bilan bir qatorda hamkor ishlab chiqarish korxonalarining yetakchi mutaxassislari olib bordi.

¹Sultanov A.V. Istoriya sotrudnichestva Uzbekistana so stranami Yevropi v gumanitarnoy sfere. 1991-2001 gg.(na primere Avstrii, Germanii, Shveysarii) Avtoref. diss.... kand. ist. nauk.-Tashkent, 2006.S.14.(31)

²Usmonov N., Ta'limda xorijiy investitsiya. // Ma'rifat, 2003, 27 avgust.

³Raupov J., Hamkorlik samarasi. // Ma'rifat, 2003, 25 iyul.



O'zbekiston Respublikasi OO'MT vazirligi O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazi hamda "ABU-Consuit" firmasi (Berlin) bilan hamkorlikda GTZ Germaniya texnikaviy hamkorlik jamiyati loyihasining asosiy bajaruvchilari hisoblandi. Jami 5,5 yil faoliyat ko'rsatgan mazkur loyihaning moliyaviy ta'minoti esa, Germaniya iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik federal vazirligi tomonidan amalga oshirildi.

Loyihaga kirgan tajribaviy kollejlarning moddiy texnika jihozlanishi borasida 1,2 mlrd. so'm miqdorida ishlar amalga oshirildi. Xususan, 9 ta tijorat trening firma, 2 ta chet tillari laboratoriyasi, 3 ta o'quv restorani, 9 ta maxsus mehmonxona, restoran va turizm fan xonalari, 3 ta o'quv oshxonasi, 2 tadan metallarga qayta ishlov berish, payvandlash va qishloq xo'jalik mashinalarni ta'mirlash ustaxonasi, 1 ta kompyuter xonasi zamonaviy texnika anjomlari va asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Ilm maskanlari jami 53 mln so'mlik o'quv adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va maxsus kompyuter dasturlari bilan ta'minlandi.⁴ Germaniya taraqqiyot banki (KfW)ning 8,69 mln yevro miqdoridagi investitsiyasi hisobiga amalga oshirilgan "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga ko'maklashish" loyihasiga 14 ta kompyuter va axborot texnologiyalari yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari kiritildi.⁵ Germaniya taraqqiyot bankining 7669,4 ming yevro imtiyozli krediti hisobidan kasb-hunar kollejlari Germaniyaning "Fujitsu Sieshens Coshputers" va "Lucas Nuelle" kompaniyalari tomonidan axborot-texnologiya asbob-uskunalar va mebellar bilan jihozlandi. Germaniya taraqqiyot banki imtiyozli kreditining tejalgan 746,6 ming yevro hamda loyiha mablag'larini qo'shimcha 1200 ming yevro to'ldirish hisobidan yana 8 ta kasb-hunar kollejlarini axborot-texnologiya asbob-uskunalar va mebellar bilan jihozlandi. 32 ta ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlarida ta'lim mazmuni va sifatini oshirish maqsadida, Germaniya taraqqiyot bankining 1023 ming yevro miqdordagi grant mablag'lari sarflandi.⁶

Toshkent qurilish va kommunal kasb-hunar kollejining suv, gaz ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini montaj qilish va ta'mirlash yo'nalishi ustaxonalari 2010-2011-o'quv yilida eng zamonaviy jihozlar (Germaniya taraqqiyot bankining imtiyozli krediti asosida) bilan ta'minlandi. Bular qurilish va uy-joy kommunal sohasi bozoriga endigina kirib kela boshlagan turli jihozlarning o'quv modullari hamda, sohada qo'llaniladigan eng so'ngi rusmdagi asbob-uskunalar va dastgohlari edi. Elektr energiyasi va gaz bilan ishlaydigan uy isitgich tizimlari, kichik korxonalar uchun havo tozalash uskunasi, gaz taqsimlovchi punkt, qayta tiklanuvchi muqobil energiya manbalarni elektr va issiqlikka aylantirib beruvchi moslamalar,

⁶ O'zR O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi joriy arxivi. Markazning 2008 yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti. 1-39 varaqlar



binolarda sun'iy iqlim hosil qiluvchi qurilmalarning modullari hamda payvandlash, montaj qilish anjomlari, turli chilangarlik asboblari majmui shular jumlasidandir.

Ijtimoiy hamkorlik markazi Kopengagenda bo'lib, O'zbekistonda uning Soren Kay Andersen va Mikkel Maylund kabi vakillari faoliyat olib bordi. Markaz dasturlarida muayyan hududda o'rta maxsus ta'limi masalalariga e'tibor qaratildi.

Ijtimoiy hamkorlik umumijtimoiy maqsadlarni ko'zlagan holda resurslar va imkoniyatlarni birlashtirib, ma'lum vazifalarni amalga oshiruvchi davlat tuzilmalari, jamiyat tashkilotlari, tadbirkorlik va fuqoralarning o'zaro manfaatli hamkorligidir. Ijtimoiy hamkorlik doirasi keng bo'lib, u ishga joylashtirish va ta'lim masalalari bilan shug'ullanuvchi turli toifadagi nodavlat tashkilotlari, mahalliy uyushmalar va tadbirkorlarni ham o'z ichiga qamrab oldi. Ijtimoiy hamkorlik demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot, umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatdiki, G'arbiy Yevropada oxirgi 20 yilda mehnat bozoridagi "yutuq-yutuqqa" asoslangan korporativ munosabatlar modeli tanlandi. Ijtimoiy muloqot ish beruvchilar, xodimlar va hukumat tashkilotlari uchun birdek manfaat keltiradi.⁷

O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorligida kadrlar malakasini oshirish va ularni xorijiy davlatlarga stajirovkaga va talaba yoshlarni o'qishga yuborish, ta'lim tarbiya jarayonida jahon tajribasidan unumli foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi professor-o'qituvchilarni kelajakka ishonch bilan qarashga, ta'limni yanada rivojlantirish hamda takomillashtirishda yangi dasturlar ishlab chiqishga, talabalarga zamonaviy andozalarda ta'lim berishga sezilarli yordam berdi.

Germaniya Federativ Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan "Maktablar: kelajak hamkorlari" loyihasi e'lon qilinib, unda respublikadagi qator akademik litsey talabalari va o'qituvchilari faol ishtirok etdi. Loyiha rejasiga muvofiq butun dunyoda tanlab olingan ta'lim muassasalarida nemis tili darsini qo'llab-quvvatlovchi xalqaro dastur hayotga tatbiq etildi. Ushbu dasturning maqsadi o'quvchilari eng yaxshi ta'lim olish imkoniga ega bo'lgan ta'lim muassasalardan iborat xalqaro tizimini shakllantirishdir. "Maktablar: kelajak hamkorlari" loyihasi doirasida Gyote instituti hamda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti qoshidagi "Nuriston" akademik litseyi o'rtasida hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolangan bo'lib, unda nemis tili kurslari, mamlakatimiz hamda Germaniyada metodik-didaktik malaka oshirish, 14-17 yoshlilar orasidan tanlab olingan o'quvchilarni olmon yurtidagi yoshlar uchun mo'ljallangan til kurslarida o'qitish kabi maqsadlar mo'ljallangan. Mazkur hamkorlikning samarasi o'laroq, "Nuriston" akademik litseyi nemis tili o'qituvchisi Dilfuza Otamuradova hamda o'quvchisi Shahnoza

⁷ Pirson D., Ijtimoiy hamkorlik – kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish omili. // Kasb-hunar ta'limi №4, 2009, B. 4-6.



Nusratullayeva dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri Germaniyada ta'lim olib qaytdi. Dastur rejasiga muvofiq jahonning 8 ta davlatidan tashrif buyurgan 52 nafar o'quvchi to'rtta sinfga bo'linib tahsil oldi. O'zbekistondan 9 nafar o'quvchi til o'rganish kursida ta'lim olib, uning 2 nafari qashqadaryolik edi. 2008-yil 16-26 - iyun kunlari loyiha doirasida 10 nafar O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, loyihaga kiritilgan kasb-hunar kollejlari rahbar xodimlari Germaniya davlatida malaka oshirdi.

2008-yil 17-21-noyabr kunlari Chirchiq sanoat-iqtisodiyot kasb-hunar kollejida Germaniyadan kelgan mutaxassis Domenik Vilson ishtirokida "Avtomatlashtirilgan boshqaruv va elektr qurilmalarini montaj qilish va sozlash laboratoriya jihozlarini o'quv jarayoniga joriy etish va ulardan samarali foydalanish" mavzusida seminar-trening o'tkazildi.

2003-yildan boshlab xalqaro rivojlanish bo'yicha nemis fondi (DSE)ning mablag'lari hisobiga grant loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Loyiha doirasida 75 nafar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi xodimlari Germaniyada olti oylik malaka oshirish kurslarida bo'ldi. Germaniyada malaka oshirishdan o'tgan pedagog xodimlar o'tkazilgan 68 ta seminardan tashqari malaka oshirish jarayonida olingan o'quv adabiyotlari va materiallarni o'quv jarayonida qo'lladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti ilmiy xodimlari orttirilgan tajribaga ko'ra, o'quv uslubiy qo'llanmalarni chop etdi.

2004-yil sentabrda "O'zbekistonda boshlang'ich kasb-hunar ta'limini qo'llab-quvvatlash" o'zbek-german loyihasining natijalariga bag'ishlangan anjuman o'tkazilib, unda loyiha koordinatori, doktor Yurgen Kupfer ma'ruza qildi va asosiy ko'rsatkichlar xususida fikr bildirdi. Shuningdek, anjumanda Samarqand yengil sanoat, Toshkent turizm va Qibray qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejlari rahbarlari T.Tosheva, A.Shamsiyev va Sh.Iskandarovlar o'z ilm maskanlarida tajribaviy kasbiy tayyorgarlik ishlarining natijalari va muammolari to'g'risida ma'ruza qildi.⁸ Germaniya texnikaviy hamkorlik jamiyati tomonidan taklif etilgan professor Shtokman tomonidan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari moddiy-texnika bazasi, kadrlar ta'minoti va ta'lim-tarbiya jarayoni monitoringini yuritish axborot tizimi"ning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda uni ta'lim jarayoniga tadbiq etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi. Germaniyaning xalqaro malaka oshirish va rivojlantirish tashkiloti (InWEnt) tomonidan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutida 2008-yil 4-9-fevralgacha va 14-26-aprelgacha bo'lgan muddatlarda Germaniya davlatida "Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va

⁸ Usmonov N., O'zbek-nemis loyihasi. // Ma'rifat. 2004, 22 sentabr. №77.



ta'mirlash" mutaxassisligi bo'yicha malaka oshirish kursida ishtirok etgan o'qituvchilar uchun o'rttirilgan bilim va ko'nikmalarni ta'lim muassasalarida targ'ibot qilishni kuchaytirish maqsadidagi muloqot seminarlari tashkil etildi.⁹

Xullas, O'zbekistonning xalqaro aloqalar tizimida ta'lim sohasidagi Germaniya bilan hamkorligi muhim o'rin egallab, ayniqsa o'rta maxsus ta'lim tizimini rivojlantirish tadbirlari qizg'in olib borildi. O'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va ularga jahon andozalari darajasida ta'lim-tarbiya berish maqsadida dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalari yo'lga qo'ydi. Talaba yoshlar shijoati tashabbusi va iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun turli xil jamg'armalar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga katta miqdorda mablag'lar ajratildi. O'zbekiston xalqaro nufuzli tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan turli yo'nalishlarda, xususan, ta'lim muassasalarini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish, kadrlar malakasini oshirish, talabalarni fanlar bo'yicha xalqaro musobaqalarga jalb etish, turli mavzuda ilmiy anjumanlar tashkil etish bo'yicha hamkorlik qilib keldi.

FOYDALAGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarov A. Kichik mutaxassislar salohiyati. // Ma'rifat, 2012, 16-may.
2. Pirson D., Ijtimoiy hamkorlik – kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish omili. // Kasb-hunar ta'limi №4, 2009, B. 4-6.
3. Usmonov N., Ta'limda xorijiy investitsiY. // Ma'rifat, 2003, 27 avgust.
4. Raupov J., Hamkorlik samarasi. // Ma'rifat, 2003, 25 iyul.
5. Usmonov N., O'zbek-nemis loyihasi. // Ma'rifat, 2004, 22 sentabr. №77.
6. Султанов А.В. История сотрудничества Узбекистана со странами Европы в гуманитарной сфере. 1991-2001 гг. (на примере Австрии, Германии, Швейцарии) Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Ташкент, 2006.С.14.(31)
7. O'zR O'MKHTM joriy arxivi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan 2005 yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisoboti. 1-16 varaqlar.
8. O'zR O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan 2008 yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti. 1-39 varaqlar

⁹O'zR O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi joriy arxivi. Markazning 2008 yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti. 1-39 varaqlar.



KINO SAN'ATI: ESTETIK, TEXNOLOGIK VA MADANIY O'ZGARISHLAR

Ochilova Kamola Ilxom qizi

Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada kino san'ati, uning estetikasi, texnologik rivojlanishi va madaniy ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Kino san'ati nafaqat vizual va audial elementlarning uyg'unligi orqali estetik ifoda yaratish, balki uning texnologik o'zgarishlar, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning ta'sirida yangi shakl va ko'rinishlarni kashf etishi ham muhim o'rin tutadi. Maqolada kino san'atining asosiy estetik xususiyatlari, ya'ni yorug'lik, rang, kompozitsiya va tovush kabi elementlar, shuningdek, raqamli texnologiyalarning kino yaratishda qanday o'zgarishlarga olib kelganligi haqida tahlillar keltiriladi.

Kalit so'zlar: vizual, audial, elementlar, estetik ifoda, texnologik o'zgarishlar, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt.

КИНО: ЭСТЕТИЧЕСКИЕ, ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ

Очилова Камола Ильхом кызы

Старший преподаватель Каршинского государственного технического университета

Аннотация: В этой статье дается глубокий анализ искусства кино, его эстетики, технологического развития и культурного влияния. Кино — это не только создание эстетического выражения посредством сочетания визуальных и аудиальных элементов, но и открытие новых форм и проявлений под влиянием технологических изменений, цифровых технологий и искусственного интеллекта. В статье анализируются основные эстетические характеристики кино, а именно такие элементы, как свет, цвет, композиция и звук, а также то, как цифровые технологии привели к изменениям в кинопроизводстве.

Ключевые слова: визуальный, аудиальный, элементы, эстетическое выражение, технологические изменения, цифровые технологии и искусственный интеллект.

CINEMA: AESTHETICS, TECHNOLOGY, AND CULTURAL CHANGE

**Ochilova Kamola Ilkhom qizi**

Senior lecturer at Karshi State Technical University

Abstract: *This article provides an in-depth analysis of cinematic art, its aesthetics, technological development, and cultural impact. Cinematic art is not only about creating aesthetic expression through the harmony of visual and auditory elements, but also about discovering new forms and expressions under the influence of technological changes, digital technologies, and artificial intelligence. The article discusses the main aesthetic characteristics of cinematic art, such as light, color, composition, and sound, as well as analyzes how digital technologies have led to transformations in the process of filmmaking.*

Keywords: *visual, audial, elements, aesthetic expression, technological changes, digital technologies and artificial intelligence.*

KIRISH:

Kino san'ati — bu faqat bir qator suratlar va tasvirlardan tashkil topgan texnik jarayon emas, balki insoniyatni madaniy va hissiy ifodalanishining eng kuchli vositalaridan biridir. Uning rivojlanishi va evolyutsiyasi davomida kino san'ati nafaqat o'zgacha estetik yondoshuvlarni, balki jamiyat va madaniyatning turli qatlamlarini aks ettiruvchi, yangi tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi vositaga aylangan. XIX asrning oxirlarida kinoning ixtiro qilinishi bilan birga, san'atning ushbu turi tezda ommaviy madaniyatning ajralmas qismlaridan biriga aylandi. Kinoning tomoshabinlarga ta'sir qilish qobiliyati, ular bilan o'zaro aloqasi va keng ko'lamli fikr-mulohazalar uyg'otish qobiliyati kino san'ati tomonidan yaratilgan yangi estetik va vizual tajribalar orqali shakllangan. Kino san'ati, birinchi navbatda, tasvir va tovush yordamida hikoya qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa tomoshabinlar uchun o'zgaruvchan va dinamik tajribalarni taqdim etadi. Kino estetikasi filmdagi yorug'lik, rang, kompozitsiya, tovush va harakat kabi elementlarning uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Bunday estetik yondoshuv orqali kino tomoshabinlarga nafaqat voqeani, balki uning hissiy, ruhiy va madaniy kontekstini ham yetkazishga muvaffaq bo'ladi. Shu bilan birga, kino texnologiyalari rivojlanishi bilan kino san'ati ham transformatsiyalangan. Raqamli texnologiyalar, CGI (computer-generated imagery) va 3D filmlar kabi yangiliklar kino san'atining estetik va texnik imkoniyatlarini yangi darajaga olib chiqqan. Kino san'ati nafaqat ijodkorlarning san'at asari sifatida, balki ijtimoiy va madaniy ta'sirlar orqali ham o'zining ahamiyatini oshirgan. Filmlar jamiyatdagi muhim ijtimoiy, siyosiy va madaniy masalalarni ko'taradi, ular tomoshabinning dunyoqarashini shakllantiradi va boshqalar bilan bo'lgan aloqalarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada kino san'ati,



uning estetik, texnologik va madaniy aspektlarini tahlil qilish orqali kino sohasidagi yangi tendensiyalar va uning jamiyatga ta'sirini yoritishga harakat qilinadi.

Estetik asoslar: Kino san'ati, estetikani ko'p jihatdan tasviriy va auditoriya elementlari yordamida yaratarkan, bu jarayon tomoshabin bilan chuqur hissiy va ruhiy aloqalarni rivojlantiradi. Tarvainen, Westman va Oittinen (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, filmning kayfiyati uning estetik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. Ularning fikricha, kino estetikasi asosida yorug'lik, rang, tovush va kompozitsiya kabi unsurlarning uyg'unligi tomoshabinning hissiy reaksiyalarini shakllantiradi, bu esa kino san'ati va uning etika va psixologik jihatlarini o'rganishga asos bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, filmning vizual va audial elementlari, vaqt va makon tushunchalarini taqdim etishda birlashgan holda, insonning kundalik hayotidagi ko'rish va eshitish tajribasini kengaytiradi.

Texnologik rivojlanish va estetik o'zgarishlar: Kino san'ati texnologiyaning rivoji bilan paralel ravishda o'zgarib borgan. Raqamli texnologiyalar, CGI (Computer-Generated Imagery), 3D filmlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi kinoning estetik ifodalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Chen (2022) o'zining tadqiqotida raqamli kino texnologiyalarining vizual tasvirlar, vaqt va makon tushunchalari, hikoya qilish usullari, tovush va tasvir munosabatlari kabi asosiy estetik elementlarga yangi shakl va ko'rinishlar kiritganini ta'kidlaydi. Bu texnologiyalar kino sohasini avvalgi "mekan va vaqt" tizimidan ancha farq qiluvchi yangi shakl va ko'rinishlarga olib kelgan. Raqamli tasvirlar yordamida filmning nafaqat tashqi qiyofasi, balki ichki ma'nosi ham yuksaltirildi.

Madaniy ta'sir va kino fenomenologiyasi: Kino, faqatgina estetik yoki texnologik vosita sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy shakllanishning ajralmas qismi sifatida ham o'zining muhimligini tasdiqladi. Kino tomoshabinini faqat vizual shaklda emas, balki hissiy va madaniy jihatdan ham ta'sir qiladigan san'at shakli sifatida ko'rish lozim. Sobchack (2004) kino fenomenologiyasini o'rganishda, kino tomoshabinini bilan to'liq aloqada bo'lishini, uning hissiyotlari va sezgilarini ko'rsatish orqali film tomoshabining ko'rsatgan voqealarni va holatlarni qanday qabul qilishi, tushunishi va his etishini ko'rsatadi. Kino tomoshabinini film orqali dunyoni qanday anglaydi va tushunadi, uning ongi va hissiyotlari qanday shakllanadi, degan savollarga javob beradi. Filmlar ijtimoiy haqiqiyatni aks ettirish, masalan, urushlar, gender tengsizliklari, iqtisodiy va siyosiy tizimlar kabi mavzularni qo'llab-quvvatlab, tomoshabinlarni bu haqda o'ylashga undaydi. Shuning uchun kino san'ati nafaqat estetik tajriba yaratishda, balki jamiyatni shakllantirishda ham katta rol o'ynaydi.

Zamonaviy kino san'ati: raqamli texnologiyalar va estetik inqilob: Zamonaviy kinoda texnologik rivojlanish san'at estetikasi bilan uyg'unlashgan.



Raqamli kamera, CGI, 3D texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari orqali film yaratish jarayoni ancha murakkablashdi va imkoniyatlari kengaydi. Biroq, texnologiyaning ko'payishi film san'atini soddalashtirmaydi — aksincha, mutaxassisdan yanada yuqori tafakkur, tasviriy ifoda vositalarini chuqur anglash va zamonaviy tomoshabinning talablariga moslashishni talab qiladi. Zamonaviy kino, texnologik innovatsiyalar yordamida yangi uslub va janrlarni kashf etdi. Bundan tashqari, film san'ati raqamli shaklga ko'chishi bilan, film tomoshabini bilan o'zaro aloqasi yangi o'lchovga chiqdi. 3D va IMAX texnologiyalari, tomoshabinlarni faqat filmni ko'rish emas, balki filmning ichiga kirish, voqealar bilan birga yashash hissini uyg'otish imkoniyatini yaratdi.

XULOSA:

Kino san'ati, zamonaviy jamiyatda o'zining etnik, estetik va madaniy ahamiyatini yanada oshirgan. Uning rivojlanishi nafaqat yangi texnologiyalar yordamida estetik va vizual imkoniyatlarni kengaytirish, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlarga ta'sir qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Kino san'ati o'zining estetik va texnologik rivojlanishlari orqali jamiyatning turli qatlamlariga ta'sir o'tkazib, uning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradi. Film san'ati nafaqat tomoshabinlarga vizual tajribalar, balki yangi dunyoqarash, yangi fikrlash va hissiyotlar haqida o'ylash imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, kino san'ati nafaqat badiiy san'atning bir turi, balki jamiyatning madaniy shakllanishi, o'zgarishi va rivojlanishidagi markaziy omilga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tarvainen, P., Westman, M., & Oittinen, R. (2015). *The aesthetics of film: The Role of Light, Color, and Composition*. Journal of Film and Media Studies, 21(3), 202-216.
2. Chen, Z. (2022). *Digital Film Technology: The Influence of CGI and 3D Technology on Aesthetics in Cinema*. International Journal of Cinema and Digital Arts, 30(1), 50-62.
3. Sobchack, V. (2004). *The Phenomenology of Film: The Intersection of Consciousness and Visual Media*. Journal of Film Theory, 16(4), 349-365.
4. Mulvey, L. (2006). *Visual and Other Pleasures*. Palgrave Macmillan.
5. Metz, C. (1974). *Film Language: A Semiotics of Cinema*. University of Chicago Press.
6. Balazs, B. (2002). *Early Film Theory: Invisible Men and Cinematic Myths*. Oxford University Press.
7. Bordwell, D., & Thompson, K. (2010). *Film Art: An Introduction*. McGraw-Hill Education.





ZARAFSHON DARYOSINING BUXORO SUV XO‘JALIGI TARMOG‘IDAGI TARIXIY AHAMIYATI

Xamrayev Iskandar Muratjanovich

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zarafshon daryosi Tojikiston va O‘zbekiston hududidan oqib o‘tuvchi yirik daryo ekanligi, Zarafshon daryosining Buxoro suv xo‘jaligi tarmog‘idagi tarixiy o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oltin saqlovchi qumlar, ipak yo‘lidagi shaharlar, sug‘orish kanallari, cho‘l qumlari, Strabon, Iskandar Zulqarnayn, “Buxoro tarixi” asari, shohariqlar, geologik dalillar.

ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РЕКИ ЗАРАФШАН В СИСТЕМЕ ВОДНОГО ХОЗЯЙСТВА БУХАРЫ

Хамраев Искандар Муратджанович

Бухарский государственный университет, базовый докторант

Аннотация: В статье подчеркивается тот факт, что река Зарафшан является крупной рекой, протекающей по территории Таджикистана и Узбекистана, а также историческая роль и значение реки Зарафшан в водохозяйственной сети Бухары.

Ключевые слова: золотоносные пески, города на Великом Шелковом пути, оросительные каналы, пески пустыни, Страбон, Александр Македонский, “История Бухары”, песчаные дюны, геологические свидетельства.

THE HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE ZARAFSHAN RIVER IN THE WATER MANAGEMENT SYSTEM OF BUKHARA

Khamrayev Iskandar Muratjanovich

Bukhara State University Basic Doctoral Student

Abstract: This article highlights the fact that the Zarafshan River is a large river flowing through the territory of Tajikistan and Uzbekistan, and the historical role and importance of the Zarafshan River in the Bukhara water management network.





Keywords: *gold-bearing sands, cities on the Silk Road, irrigation canals, desert sands, Strabo, Alexander the Great, the work “History of Bukhara”, sand dunes, geological evidence.*

KIRISH:

Zarafshon daryosi Buxoro va kengroq Markaziy Osiyo mintaqasining tarixiy suv xo‘jaligi tizimida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Zarafshon daryosi mintaqadagi Buxoro, Samarqand va boshqa qadimiy shaharlar uchun asosiy suv manbai bo‘lgan. Uning suvlari Ipak yo‘li bo‘ylab qishloq xo‘jaligi, aholi punktlari va savdo-sotiqni rivojlantirish imkonini berdi. Qadim zamonlardan beri daryo kanallar va qanotlar (yer osti kanallari) ning keng tarmog‘ini oziqlantirib, suvni qishloq xo‘jaligi yerlariga tarqatgan. Darg‘om, Shohrud va boshqa kanallar bug‘doy, paxta va meva kabi ekinlarni saqlash uchun juda muhim edi. Buxoroning yirik Islom ilmi va savdo markazi bo‘lib rivojlanishi Zarafshon suvlariga bog‘liq edi. To‘qimachilik, kulolchilik va qog‘oz ishlab chiqarish uchun suv zarur edi. Somoniylar saltanati davrida Buxoro hukmdorlari irrigatsiya infratuzilmasini yaxshilab, kanal va suv omborlarini saqlab qolishgan.

Zarafshon daryosi Tojikiston va O‘zbekiston hududidan oqib o‘tuvchi yirik daryo bo‘lib, mintqa tarixi, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Zarafshon — O‘rta Osiyodagi Tojikiston va O‘zbekistondagi daryo. Uning nomi, forsha “oltin yoyuvchi” daryoning yuqori oqimida oltin saqlovchi qumlarning mavjudligini bildiradi[1]. Daryo Tojikistonning Pomir-Oloy tog‘laridagi Zarafshon muzligidan boshlanadi. Tojikistonning So‘g‘d viloyati va O‘zbekistonning Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari orqali 877 km (545 mil) g‘arbga oqib o‘tadi. Tarixan Amudaryoga oqib kelgan, ammo keng sug‘orish tufayli u hozir Qorako‘l cho‘lida tugaydi. Samarqand va Buxoro kabi Ipak yo‘lidagi shaharlarni qo‘llab-quvvatlab, qishloq xo‘jaligi va savdo-sotiqni rivojlantirish imkonini bergan. Zarafshon suvlari O‘zbekistonda paxtachilik, uzumzor va meva bog‘larini qo‘llab-quvvatlaydi. Darg‘om va Kattaqo‘rg‘on tizimlari kabi yirik sug‘orish kanallari uning oqimini dehqonchilikka yo‘naltiradi. Qadimgi konchilar daryoning yuqori irmoqlarida oltin zarralarini qidirib topishgan.

Strabonning yozishicha, Zarafshon daryosining makedoniyaliklar qo‘yishgan. Bu haqda yunon tarixchisi Gerodot o‘zining 9 kitobdan iborat mashhur “Tarix” asarida to‘xtalib o‘tadi[2]. Gerodotga kelsak, uning “Tarix” asari birinchi navbatda yunon-fors urushlari va Ahamoniylar imperiyasi geografiyasiga bag‘ishlangan. Iskandar boshchiligidagi makedoniyaliklar O‘rta Osiyoda Iskandariya Eschate (hozirgi Xo‘jand, Tojikiston) kabi aholi punktlari va qal’alar barpo etishgan, lekin Zarafshon daryosining o‘zini “topmagan”, chunki u tabiiy geografik xususiyatdir. Strabonning eramizning 1-asri boshlarida yozilgan 17 jildlik



“Geografiya” asari O‘rta Osiyo, jumladan Zarafshon daryosi tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Yunon geografi va tarixchisi Strabonning 17 kitobdan iborat “Geografiya” asarida ham Zarafshon daryosi haqida muhim ma’lumotlar mavjud[3]. Strabon daryoga makedoniyaliklar asos solgan deb da’vo qilmaydi (chunki daryolar tabiiy tuzilmalardir), lekin u buni Iskandar Zulqarnaynning mintaqadagi yurishlari bilan bog‘laydi. Iskandar boshchiligidagi makedoniyaliklar Zarafshon yaqinida Aleksandriya Eschate (“Eng olis Iskandariya”, zamonaviy Xo‘jand yaqinidagi) kabi shaharlar va harbiy postlar qurdilar va daryodan strategik va qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanganlar. Zarafshonni yunonlar Politimetus (Nolyutimos) deb atashgan, bu “juda qimmatli” yoki “yuqori qadrli” degan ma’noni anglatadi, ehtimol uning sug‘orish va savdodagi ahamiyati tufayli. Daryoning o‘zi Iskandardan oldin bo‘lgan bo‘lsa, So‘g‘diyondagi yunon va makedoniyalik ko‘chmanchilar unga tayangan, keyinchalik tarixchilar (masalan, Arrian) Iskandarning qirg‘oqlari yaqinida mahalliy qabilalar bilan to‘qnash kelganini qayd etgan. Strabonning ta’kidlashicha, Politimetus (Zarafshon) dengizga quyiladigan daryolardan farqli o‘laroq cho‘lda g‘oyib bo‘lgan - bu tafsilot daryoning Amudaryoga yetguncha qurib ketishi haqidagi zamonaviy kuzatuvlarga mos keladi. Gerodot Zarafshon daryosini to‘g‘ridan-to‘g‘ri eslatib o‘tmaydi, chunki uning asosiy e’tibori Fors imperiyasining g‘arbiy qismlariga qaratilgan edi. Biroq, keyingi yunon tarixchilari Ptolemey va Arrian (Iskandarning yurishlari haqida yozgan) bunga ishora qiladilar.

X asrda yashagan fors tarixchisi Muhammad Narshaxiyning yozishicha, O‘rta Osiyodagi muhim suv yo‘li bo‘lgan Zarafshon daryosi qadimda dastlab Rudi Mosaf nomi bilan mashhur bo‘lgan. “Buxoro tarixi” asari bilan mashhur bo‘lgan Narshaxiy mintaqaning madaniy va geografik tarixini, jumladan, daryoning ilk aholi punktlari va sivilizatsiyalar uchun ahamiyatini hujjatlashtirgan. Tarixchi Muhammad Narshaxiyning yozishicha, qadimgi davrlarda Zarafshon daryosi Rudi Mosaf nomi bilan yuritilgan[4]. Zarafshon daryosi ming yillar davomida jamiyat uchun hayotiy manba bo‘lib, uning qirg‘oqlari bo‘ylab qishloq xo‘jaligi, savdo va urbanizatsiyani qo‘llab-quvvatlab kelgan. Uning nomi, Zarafshon forschadan kelib chiqqan bo‘lib, “oltin yoyuvchi” degan ma’noni anglatadi, ehtimol uning unumdor yerlarni sug‘orishdagi roli yoki suvlarida bir paytlar topilgan oltin zarralarini nazarda tutadi. Biroq Narshaxiyning uning oldingi nomi Rudi Mosafga ishora qilishi daryoning qadimgi Markaziy Osiyo madaniyatlari uchun ahamiyatini aks ettiruvchi islomgacha bo‘lgan yoki ehtimol so‘g‘dlardan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi. Ushbu tarixiy qayta nomlash mintaqaning qatlamli tarixini ta’kidlaydi, bu yerda til va madaniy siljishlar - islomgacha bo‘lgan Eron sivilizatsiyalaridan fors va turkiy ta’sirlargacha - geografik o‘ziga xosliklarni qayta shakllantirgan. Zarafshon daryosi Ipak yo‘lining markazlari sifatida uning qirg‘oqlari bo‘ylab gullab-yashnagan Samarqand va Buxoro kabi shaharlar merosining markaziy qismi bo‘lib qolmoqda.



X asrga oid forscha tarixiy-geografik risoladagi “Hudud ul Olam” ga ko‘ra, O‘rta Osiyoning eng muhim suv yo‘llaridan biri bo‘lgan Zarafshon daryosi “Buxoro daryosi” deb atalgan. Bu nom daryoning Buxoro shahri va uning atrofidagi hududlarni saqlab qolishdagi muhim rolini ko‘rsatadi. Narshaxiyning “Hudud – ul olam” risolasida Zarafshon daryosining nomi Buxoro daryosi deb keltiriladi[5]. “Hudud ul Olam” Islom olami va qo‘shni mintaqalarning geografiyasi, madaniyati va savdo yo‘llarini tavsiflovchi muhim o‘rta asr fors matnidir. Uning Zarafshon daryosining Buxoro daryosi deb atalishi daryoning Buxoro vohasi uchun iqtisodiy va qishloq xo‘jaligidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Daryo Samarqand va Buxoro kabi Ipak yo‘li shaharlarining gullab-yashnashiga imkon yaratib, sug‘orish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Rudi Mosafdan Buxoro daryosi va keyinroq Zarafshonga o‘tish mintaqadagi so‘g‘d va forslardan tortib islom davridagi turkiy sulolalargacha bo‘lgan rivojlanayotgan siyosiy va madaniy ta’sirlarni aks ettiradi. Buxoro daryosi nomi daryoning o‘ziga xosligini uning eng ko‘zga ko‘ringan shahar markazi bilan bog‘lagan bo‘lsa, Zarafshon uning iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatib turardi. Zarafshon daryosining ko‘plab tarixiy nomlari O‘rta Osiyo tarixida geografiya va o‘ziga xoslik qanday o‘zaro bog‘langanligini ko‘rsatadi. Hudud ul Olam kabi o‘rta asr matnlari va Narshaxiy asarlari daryolar qanday qabul qilinganligi va ular yashab turgan shaharlar va sivilizatsiyalar bilan bog‘liq holda nomlanishi haqida qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Markaziy Osiyoning hayotiy tarmog‘i bo‘lgan Zarafshon daryosi o‘zining asosiy oqimi va quyi oqimidagi tabiiy oqimlar va kanallar tarmog‘i orqali keng hududlarni oziqlantiradi. Tarixchi olim Muhammadjonovning fikricha, Zarafshonning quyi oqimida mavjud bo‘lgan shohariqlar qadimgi davrlarda tabiiy ravishda vujudga kelgan suv tarmoqlari hisoblanadi[6]. Tarixiy va geologik dalillar shuni ko‘rsatadiki, bu suv yo‘llarining ko‘pchiligi qadim zamonlarda shakllangan, tabiiy jarayonlar natijasida shakllangan va keyinchalik insoniyat sivilizatsiyalari tomonidan sug‘orish va aholi punktlarida foydalanilgan. Zarafshon daryosining quyi oqimi ko‘p tabiiy taqsimotlarga bo‘linadi, ular ming yillar davomida cho‘kindi, mavsumiy suv toshqini va tektonik faollik natijasida vujudga kelgan. Qadimgi So‘g‘d va undan keyingi fors sivilizatsiyalari bu tabiiy kanallardan foydalanib, ularni sug‘orish tarmoqlariga kengaytirgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston va Tojikistondagi ko‘plab kanallar qishloq xo‘jaligi uchun qattiq tartibga solingan ushbu qadimgi tabiiy oqimlar yo‘lidan o‘tadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ortiqcha foydalanish va daryoning o‘zgarishi bu tarixiy kanallar oqimini kamaytirib, quyi oqimdagi ekotizimlarga ta’sir ko‘rsatdi. Zarafshon daryosining quyi oqimlari nafaqat zamonaviy irrigatsiya inshootlari, balki chuqur tarixiy ildizlarga ega tabiiy shakllanishlardir. Ularning evolyutsiyasi





Markaziy Osiyoning suv landshaftini shakllantirishda geologiya va insoniyat sivilizatsiyasi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aks ettiradi.

Muxtasar qilib aytganda, Zarafshon daryosi Buxoro suv xo'jaligining asosi bo'lib, uning iqtisodiyoti, madaniyati va qurg'oqchil hududda omon qolishini ta'minlagan. Uning tarixiy tizimlari dastlabki gidrotexnikani namoyish etadi va Markaziy Osiyo merosining asosiy qismi bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusamadzoda, Daler; Abdushukurov, Djamshed A.; Dului, Octavian G.; Zinicovscaia, Inga (23 November 2020).
2. Геродот. История. В девяти книгах. Перевод и примечания Г.А.Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – 600 с.
3. Страбон. География. В 17 книгах. Перевод, статья и комментарии. Г.А.Стратановского. – Л.: Наука, 1964. – С.48.
4. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors-tojik tilidan A.Rasulov tarjimasini. – T.: Fan, 1966. –B.18,45.
5. Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi). Fors tilidan tarjimon O.Bo'riyev. – T.: O'zbekiston, 2008. –B.9.
6. Мухаммаджонов А.Р. История орошения Бухарского оазиса. – Т.: Фан, 1978. –С.61.

MILLIY G'OYA KONSEPSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Abdurahim Erkayev Panjiyevich,
Qarshi davlat universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada taraqqiyotning yangi bosqichida O'zbekiston taraqqiyoti va uning milliy g'oya bilan aloqadorligi, milliy g'oyaning jamiyat rivojlanishidagi muhim omil ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy g'oya, milliy g'oya tizimi, g'oya, konsepsiya, g'oyaviy tizim, siyosiy jarayonlar, milliy g'oyaning funksiyalari.

ПРОБЛЕМЫ РАЗРАБОТКИ КОНЦЕПЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ

Абдурахим Эркаев Панджиевич,
Профессор Каршинского государственного университета



Аннотация: В данной статье анализируется развитие Узбекистана на новом этапе развития и его связь с национальной идеей, а также то, что национальная идея является важным фактором развития общества.

Ключевые слова: национальная идея, система национальных идей, идея, концепция, идеологическая система, политические процессы, функции национальной идеи.

PROBLEMS OF DEVELOPING THE CONCEPT OF A NATIONAL IDEA

Abdurahim Erkayev Panjiyevich,
Professor, Karshi State University

Abstract: This article analyzes the development of Uzbekistan at a new stage of development and its connection with the national idea, the importance of the national idea as a factor in the development of society.

Keywords: national idea, national idea system, idea, concept, ideological system, political processes, functions of the national idea.

KIRISH:

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining umumxalq referendumida qabul qilinishi jamiyat hayotining barcha yo'nalishlari va jabhalarini uning talablariga mos rivojlantirishini talab qiladi. Bu milliy g'oya konsepsiyasiga ham taalluqli.

Mustaqil rivojlanayotgan har bir xalqning adolat qaror topgan jamiyatda yashash orzusi, maqsadi, unga erishishiga undaydigan, bu yo'lda hammani birlashtiradigan da'vati bo'ladi. Aynan o'sha da'vat milliy g'oya deyiladi.

Milliy g'oya aslida xalqning strategik oliy maqsadini, ya'ni qanday tuzumda yashamoqchi, qanday jamiyat qurmoqchi, qanday insonni tarbiyalamoqchi ekani qisqa, lo'nda, mujassam ifodalaydi.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, dastlab "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" degan shior olg'a surildi. Mazkur shior buyuk kelajakni yaratish orzusi yo'lida xalqni birlashtirdi. Shior milliy g'oyani ilk ifodasi edi deyish mumkin. Lekin bu jozibali shiorda inson va jamiyat eslatilmagan, birinchi o'ringa davlat kelajagi chiqarilgan edi. Endigina davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan xalq uchun strategik maqsadga bunday yondashish, ya'ni birinchi galda davlat mustaqilligini mustahkamlash tabiiy hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillari O'zbekiston kelajagini, uning taraqqiyot yo'lini turli tabaqalar, ijtimoiy guruhlar har xil tushunar edi. Ziyolilarning bir qismi,



shaharda yashovchi rus tilida ta'lim olgan va turmush tarzi ancha yevropachalashgan aholi qatlamlari g'arbcha liberal-demokratik siyosiy tizim tarafdori bo'lsa, ularga qarama-qarshi jabhada turganlar O'zbekiston islom respublikasi bo'lishi kerak, deb hisoblar edi. Ular oralig'ida har xil, oxirigacha to'liq shakllanmagan, chala va eklektik, hatto radikal-ekstremistik qarashlar ham bor edi. Agar ular avj olib, amaliy harakatga aylanib ketsa, respublikada, Tojikiston, Moldaviya, Gruziyadagidek, to'qnashuvlar, fuqarolik nizolari kelib chiqishi hech gap emas edi.

Bunday ziddiyatli qarashlarni, harakatlarni hisobga olib, "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" shiori o'rtaga tashlandi. Uning mazmuni aziz Vatanni ko'z qorachig'iday asrash, keyingi avlodlarga bekamu ko'st, mustaqilligini saqlab, obod yurtga aylantirib yetkazish edi.

Milliy g'oyaning hammaga tushunarli va ma'qul ifoda shaklini topish yuzasidan izlanishlar davom etdi. Va nihoyat, "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz" shakli topildi. Bu ifodada endi "davlat" emas, har bir inson va butun millat uchun birdek qadrlı Vatanni ya'ni (jamiyat va davlatni), unda erkin va farovon yashashi lozim bo'lgan inson hayotini oliy maqsadga aylantirgan edi. Lekin mazkur ifodadagi milliy g'oya konsepsiyasi har tomonlama rivojlantirildi. Faqat uning asosiy tushuncha va tamoyillarini aniqlab, sharhlaydi. U ma'rifiy-targ'ibiy darajada qolib ketdi. Islohotlar umumiy nazariyasi va har bir sohada amalga oshiriladigan islohotlar konsepsiyalari va aniq vazifalar bilan bog'lanmadi.

Mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar, davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiy sohalarini rivojlantirish, ilm-fan, madaniyat, barkamol avlodni tarbiyalash va boshqa vazifalarning hech biri milliy g'oya bilan bog'lanmasdan rivojlandi. E'lon qilingan milliy g'oya esa o'z o'zicha, go'yoki, harakat qildi va hayotdan ajralib qolgan mafkuraviy qolipga, ta'limning barcha bo'g'inlarida o'qitiladigan, bir birini takrorlaydigan mavzular yig'indisiga aylanib qoldi. Milliy g'oyaning bu ifodasi ham besamar ketdi. Xalq ongiga singmadi.

Yana shuni nazarda tutish kerakka, hech bir xalq, hech bir mamlakat mahdudlikda yashamaydi. Balki, jahon hamjamiyatida muayyan aloqalar ishtirokchisiga aylanadi. Shu sababdan hayotimizga nafaqat ichki omillar, tendensiyalar, shuningdek tashqi geosiyosiy ahvol va jarayonlar ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Jahon geosiyosiy maydoni ko'pqutbli modelga aylanish tendensiyasini boshdan kechirmoqda. Ammo bu jarayon silliq kechayotgani yo'q. Jahon tartibotining eski shakllari, tuzilmalari va yangi tendensiyalar o'rtasida o'ta xavfli ziddiyatlar, ba'zan jahonning turli mintaqalarida yuz berayotgan fojiali qurolli to'qnashuvlar, lokal urushlar yuz bermoqda. Tomonlar bir-biriga nisbatan turli sanksiyalar e'lon



qilmoqda. Sanksiyalar faqat iqtisodiy aloqalar, savdo-sotiqnigina emas, hattoki madaniy va sport aloqalarini ham qamrab olmoqda. Informatsion urush, har xil feyk axborotlarni tarqatish odatiy holatga aylanib qoldi. Gibril urush degan tushuncha paydo bo'ldi. Jahon tinchlik-osoyishtaligi, barqaror rivojlanishi, iqtisodiyoti, savdo-sotiq va madaniy almashuv bundan qattiq zarar ko'rmoqda. Narxlar oshib, inflyatsiya kuchayib borayotir. Jahon geosiyosiy maydonidagi buyuk davlatlar o'rtasida kechayotgan shafqatsiz raqobat, gibril urush barcha davlatlarga, jumladan O'zbekistonga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahondagi XX asr ikkinchi yarmida paydo bo'lgan global xavf-xatarlar: termoyadro urushi xavfi, ommaviy qirg'in qurollari (yadro qurollari, kimyoviy, biologik qurollar), "demografik portlash", ekologik halokat kabi xavflar yoniga XXI asrda yangilari qo'shildi: xalqaro terrorizm, narkotrafik, kiber xujum, feyk axborotlar, separatizm kabilar. Globallashuv va ommaviy madaniyat ta'sirida milliy nigilizm, mumtoz milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bepisand qarash, kosmopolitizm va texnokratizm rivojlanmoqda. Bunday sharoitda xalqimizdan jipslik, birdamlik, o'z kuchiga ishonch, vatanparvarlik va mas'uliyat har qachongidan ko'proq talab qilinadi. Ularni esa, umumiy strategik maqsadni ifodalovchi milliy g'oya ta'minlaydi.

Milliy g'oya Yangi O'zbekistonda aniq ifodaga va o'z konsepsiyasiga ega bo'lishi lozim. Buni yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitusiyasi qabul qilinishi ham taqozo etadi. Bu borada izlanishlar davom etmoqda. Shu yil "Xalq so'zi" gazetasining 11-aprel sonida mavzuga bag'ishlangan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, senator Rustam Xolmurodovning "Millat uchun hayot-mamot masalasi" nomli maqolasi e'lon qilindi.

Maqolada ko'tarilgan asosiy g'oyalarni to'la qo'llab-quvvatlagan holda, quyidagi fikrlarni ham bildirib o'tishni maqsadga muvofiq hisoblayman. Domla taklif etgan sifatli ta'lim – tarbiya g'oyasi, bir tomondan, milliy g'oyaning aniq, konkret namoyon bo'lish shakli, ikkinchi tomondan esa, keng ma'nodagi strategik maqsadga erishish, ya'ni milliy g'oyani amalga oshirishning vositasidir. Milliy g'oya mazmun – mohiyatiga ko'ra, bilim olishdan, ta'lim – tarbiya tizimini takomillashtirishdan kengroq tushunchadir.

Milliy g'oya davlat mafkurasi emas, balki fuqarolik jamiyatiga oid ma'naviy-ma'rifiy qadriyatdir. U xalqni ulug'vor maqsad yo'lida birlashtiradi, safarbar etadi. Butun jamiyatning avvalo har bir vatandoshimizning davlat idoralari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining, aholining turli qatlamlarining say-harakatlarini, faoliyatini yagona maqsad yo'lida muvofiqlashtiradi. Yuridik shaxslar qonun doirasida o'z nizomlari asosida, jismoniy shaxslar o'z dunyoqarashi, e'tiqodi asosida mustaqil faoliyat yuritsalar-da, milliy g'oya ular faoliyatining umummilliy



manfaatlar va oliy strategik maqsad, milliy orzu – havas bilan bog‘laydi. Binobarin, milliy g‘oya konsepsiyasi oddiy fuqaro amaliy intilishlaridan, davlat hokimiyati organlari faoliyatigacha, ijtimoiy guruhlar turmushidan butun jamiyat hayotigacha o‘ziga xos yo‘lchi yulduzga aylanishi, oliy ijtimoiy marrani ko‘rsatish zarur.

Uchinchi Renessansning moddiy-iqtisodiy ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ahloqiy, kasbiy-tabaqaviy, insoniy-e‘tiqodiy, intellektual-texnologik, estetik, ekologik va boshqa madaniy asoslari mavjud. Milliy g‘oya konsepsiyasi har bir asos bo‘yicha turli bosqichlarda amalga oshiriladigan strategik vazifalarni, taxminiy mo‘ljallarni belgilab, jamiyat rivojlanishi tendensiyalari bilan bog‘lab ijodiy va tanqidiy tahlil etib borishi lozim

Ta‘lim – tarbiyadagi, madaniyat sohasidagi, ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi, tashqi aloqalardagi har bir islohot, harakat, qaror oqibat natijada milliy g‘oya maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Masalan, biror sanoat korxonasi bunyod etilishi yoki modernizatsiya qilinishi uning texnologiyasi eng zamonaviymi, qay darajada milliy iqtisodiyotimiz va ichki mutaxasssilarimizni jahonda raqobatbardosh eta oladi, degan savolga javob berishi kerak. Shunda yangi qurilayotgan korxona Uchinchi Renessans iqtisodiy poydevorini yaratishga xizmat qiladi. Xuddi shunday milliy ta‘lim tizimi jahondagi eng ilg‘or tizimlardan biriga aylansa, yoshlarga, bo‘lajak mutaxasssilariga sifatli bilim bersa, to‘rtinchi sanoat inqilobi talablariga javob beradigan, sun‘iy intellekt, AT, nano-, bio- va zamonaviy kognitiv texnologiyalar sharoitda samarali mehnat qila oladigan kadrlarni tayyorlay olsa, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga hissa qo‘shadi.

Milliy g‘oya davlat mafkurasi bo‘lmaganidek, etnik g‘oya ham emas. U O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini birdek aks ettiradi. U joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma’noda Uchinchi Renessans g‘oyasi istiqbolga intilish, Yangi O‘zbekistonni, ma’rifatli jamiyatni barpo etish maqsadiga mos keladi. Uning safarbarlik kuchi, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. U avlodlar o‘rtasida vorisiylikni mustahkamlab, o‘tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodiy yutuqlari bilan bog‘laydi, bizga avvalgi ikki Renessansni yaratgan buyuk ajdodlarning davomchilari ekanimizni eslatib turadi.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish milliy g‘oya sifatida sog‘lom fikrlaydigan har bir shaxsga milliy identligini, ya’ni oldiga ulug‘vor maqsad, yuksak ideallar qo‘ygan xalqimizga mansubligini anglatadi, milliy g‘ururni, or-nomusni uyg‘otadi, xalqning bunyodkorlik ishlariga kuch-g‘ayrat, jo‘shqinlik baxsh etadi, jamiyatni umummilliy harakatga chorlaydi. Ushbu g‘oya barcha konsepsiyalarga, jumladan Ma’rifatli jamiyat konsepsiyasiga ham integratsiya qilinishi zarur va shart.

Yangi O‘zbekistonda barpo etilajak ma’rifatli jamiyatning bosh, markaziy g‘oyasi, ya’ni milliy g‘oyasi Uchinchi Renessans poydevorini yaratish mohiyatiga



ko‘ra insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik g‘oyasidir. Bu inson manfaatlarini, imkoniyatlarini to‘la yuzaga chiqarish, mehr-oqibat va xayrixohlik muhitida inson farovon yashashi uchun barcha zarur moddiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish lozimligini ifodalaydi. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish milliy g‘oya sifatida Ma‘rifatli jamiyat konsepsiyasining tizim yaratuvchi negiz g‘oyasidir. Milliy g‘oya va ma‘rifatli jamiyat konsepsiyalari o‘zaro chambarchas bog‘langan, ular dialektik birlikni tashkil etadi.

Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat, iqtisod sohalarida yanada chuqurroq integratsiyalashuvni talab etadi, milliy g‘oya ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-madaniy mahdudlikni inkor etadi. Xalqimiz ongi, jamiyatimiz hayoti yangiliklarga, ilg‘or bunyodkor g‘oyalarga doimo ochiq bo‘lmog‘i lozim. Ammo o‘zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, identligimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta‘lim-tarbiya tizimiga, ma‘naviyatga, milliy adabiyotga va san‘atga, jumladan, an‘anaviy qo‘shiqchilik va maqomga, baxshichilikka, milliy raqslarga, folkloriga, shuningdek milliy sport va xalq o‘yinlariga jiddiy e‘tibor qaratishni taqozo etadi.

Milliy g‘oyaning va uning negizida shakllanadigan “Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-Birinci galda xalqning birligini, jipsligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini ta‘minlaydi, ya‘ni konsolidatsion vazifani bajaradi;

-Shaxsga va millatga o‘zligini, haqiqiy tub manfaatlarini, muayyan tarixiy va zamonaviy, umumbashariy va milliy qadriyatlar tizimiga mansubligini, identligini anglatadi;

-Inson kapitalini rivojlantiradi, ta‘lim va tarbiyani ma‘rifatli jamiyatning hal qiluvchi vositasi darajasiga ko‘taradi; ta‘lim olishga bo‘lgan intilishni rag‘batlantiradi;

-Strategik maqsadga erishishning muhim yo‘nalishlarini, vazifalarini, ilmiy va ma‘naviy-mafkuraviy tushunchalarini, tamoyillarini, meyorlarini asoslab beradi va jamiyat hayotining barcha sohalarida real harakatga va pirovard maqsadga aylanadi;

-Milliy yuksalish izchil va qat‘iy dunyoviylik, mulk shakllarining teng huquqligi va ayni paytda xususiy mulkchilik va tadbirkorlik ustuvorligi tamoyillari negizida yuz berishini ochib beradi; Raqobat murosasiz kurashga, korporativ va shaxsiy manfaatlarining jamiyat manfaatlariga qarshi turishiga aylanib ketmasligining oladi va ularni muvozanatga keltiradi; ijtimoiy sheriklikni asoslaydi;

-Jamiyat a‘zolari va yoshlarni tarbiyalashda jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini, avvalo zamonaviy fan – texnika yutuqlari va kelajak texnologiyalari talablarini milliy identlikni mustahkamlash zarurati bilan uyg‘unlashtirish; Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining istiqbolli bosqichlarini belgilaydi;



-Inson qadr-qimmatini ulug'lashning, har bir fuqaro ongida o'z hayoti va taqdiri uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi, vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishning, aholi moddiy farovonligini ta'minlash uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishning, xalqning roziligiga erishishning ma'rifiy asoslari bo'lib xizmat qiladi;

-Jaholatning, ekstremizm va ayirmachilikning har qanday ko'rinishlariga qarshi ma'rifat asosida kurash olib borishni, diniy bag'rikenglikni, dunyoviy va diniy qarashlar o'rtasida sog'lom muvozanat bo'lishi lozimligini asoslaydi;

-Iqtisodiyotni, butun mamlakatni innovatsion asosda rivojlantirish, halqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarish zarurligini ijtimoiy ongga singdiradi;

-O'zbekiston va xalqimiz jahonning mutaraqqi davlatlari va halqlari qatoriga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Milliy g'oya huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tushunchalarini ochib berishga, ular eng ulug' milliy qadriyatlar darajasiga ko'tarilishiga xizmat qilmog'i lozim. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida xalqimiz ongida va amaliy hayotida qonun ustuvorligi, yuksak huquqiy madaniyat qaror topadi. Inson sha'ni va qadr-qimmatini amalda ulug'lash uchun barcha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlar vujudga keladi, bozor iqtisodiyoti ijtimoiy yo'naltirilganlik kasb etadi. Keng mazmundagi ma'naviy erkinlik va mafkuraviy, madaniy, diniy tolerantlik (bag'rikenglik) qaror topadi. Shaxsning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi uchun zarur ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Философия науки. Краткий энциклопедический словарь.- М.: Наука, 2008 г. С117
2. Философия и методология науки (понятия категории проблемы школы направления). Терминологический словарь-справочник, - М.: Наука, 2017. С-243
3. Краткая философская энциклопедия. - М.: Прогресс - Энциклопедия, 1994.- С415
4. Saparov B. Milliy g'oya tizimida milliy o'zlikni anglashning tuzilmaviy-funksional tahlili. Falsafa dokroti (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –T.:2018. B-13
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. B -71.
6. Sapaev V. O, The actuality of improvement in rural social standard of living in Uzbekistan // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 11. – С. 147-151. <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss11/24/>



TIZIMLI YONDASHUVDA “YAXLITLIK VA QISM” MUAMMOSI

Djurayev G‘olibjon Raimjonovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail:djurayevgr@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqola "yaxlitlik va qismlar" kategoriyasini ilm-fan, texnika va boshqaruvdagi tizimli yondashuvning asosiy tushunchasi sifatida tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda yaxlitlik va tuzilma haqidagi falsafiy va metodologik qarashlar yoritiladi, unsurlar bilan yaxlit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlari o‘rganiladi, shuningdek, tizim xossalarini shakllantirishda ierarxiklik, emerdjentlik va teskari aloqa roli ko‘rib chiqiladi. Tizimli o‘zaro bog‘liqliklarni anglash murakkab obyektlarni loyihalash, boshqarish va tahlil qilishda muhim ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: tizimli yondashuv, yaxlitlik, qism, tuzilma, ierarxiya, emerdjentlik, o‘zaro ta’sir, tashkilot, sinergiya.

ПРОБЛЕМА «ЦЕЛОСТИ И ЧАСТИ» В СИСТЕМНОМ ПОДХОДЕ

Джураев Голибжон Раимжонович

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры «Общественные науки»

Аннотация. Данная статья посвящена анализу категории «целое и части» как основного понятия системного подхода в науке, технике и управлении. В ней раскрываются философские и методологические взгляды на целостность и структуру, изучаются механизмы взаимодействия между элементами и целым, а также рассматривается роль иерархичности, эмерджентности и обратной связи в формировании свойств системы. Обосновывается важность понимания системных взаимосвязей при проектировании, управлении и анализе сложных объектов.

Ключевые слова: системный подход, целостность, часть, структура, иерархия, эмерджентность, взаимодействие, организация, синергия.

THE PROBLEM OF "WHOLENESS AND PART" IN A SYSTEMATIC APPROACH



Djurayev Golibjon Raimjonovich

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of "Social Sciences"

Abstract *This article is devoted to the analysis of the category of “wholeness and parts” as a fundamental concept of the systems approach in science, technology, and management. It explores philosophical and methodological views on wholeness and structure, examines the mechanisms of interaction between elements and the whole, and discusses the role of hierarchy, emergence, and feedback in shaping system properties. The paper substantiates the importance of understanding systemic interconnections in the design, management, and analysis of complex objects.*

Keywords: *systems approach, wholeness, part, structure, hierarchy, emergence, interaction, organization, synergy.*

KIRISH:

Tizimli yondashuvdagi eng muhim tushunchalardan biri bu — yaxlitlik va qismlar oʻrtasidagi munosabatdir. Ushbu munosabat tizimli fikrlash va tahlilning asosini tashkil etadi, turli tabiatdagi tizimlarning (biologik, ijtimoiy, texnik va kibernetik) tuzilishi, faoliyati va rivojlanishi tamoyillarini aniqlaydi. Tarixan "yaxlitlik va qismlar" kategoriyasi qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi, biroq XX asrda bu tushuncha tizimli metodologiya doirasida ilmiy asosga ega boʻldi.

Umumiy tizimlar nazariyasi, kibernetika, sinergetika va boshqa fanlararo yondashuvlarda "yaxlitlik" nafaqat qismlarning yigʻindisi sifatida, balki ularning oʻzaro taʼsiri, uyushganligi va funksional bogʻliqligining natijasi sifatida qaraladi. Bu esa tizim tarkibiy qismlarida mavjud boʻlmagan yangi xossalarning paydo boʻlishiga olib keladi. Ushbu xossa — emerdjentlik — tizimiy yaxlitlikning asosiy belgisidir.

ASOSIY QISM

Qadimgi yunon faylasuflari (Aristotel, Platon) yaxlitlikni qismlar yigʻindisidan ortiq narsa deb hisoblagan. Ushbu tezis falsafaning asosiy prinsiplaridan biri sifatida tizimli fanlarda bugungi kungacha saqlanib qolgan. Aristotel shunday degan: "Butun — bu qismlar yigʻindisidan ortiqroqdir."

Tizimli yondashuvda yaxlitlik — bu elementlar va ularning oʻzaro taʼsiri orqali tashkil etilgan sistema. Ushbu oʻzaro taʼsirlar, aloqalar natijasida elementlarni alohida oʻrganish orqali tushuntirib boʻlmaydigan xossalar yuzaga keladi.

I.V. Blauberger taʼkidlashicha, obyektning tizimlili, birinchi navbatda, strukturaning — yaʼni elementlar oʻrtasidagi barqaror aloqalar majmuasining





mavjudligi bilan aniqlanadi. Yaxlitlik bu — aynan ushbu aloqalarning o'ziga xos uyushmasi orqali paydo bo'ladigan xossadir.

Masalan, biologiyada organizm o'z a'zolarining oddiy yig'indisiga teng emas. Ijtimoiy tizimda — jamiyatni alohida shaxslarni o'rganish orqali tushunib bo'lmaydi. Texnikada — qurilmaning funksional sxemasi faqat butun holatida ma'noga ega bo'ladi.

Emerdjentlik (inglizcha emergence — yuzaga kelish) — bu yaxlitlikda yangi sifatlarning paydo bo'lishi bo'lib, ular alohida qismlarga xos emas. Bu, masalan, intellektual tizimlarda o'z-o'zini o'rgatish qobiliyati yoki ijtimoiy tizimlarda jamoaviy aql kabi namoyon bo'lishi mumkin.

Bu tushuncha bilan sinergiya bog'liq — ya'ni, yaxlitlik qismlarning yig'indisidan ko'p (yoki ba'zida kam) bo'lishi mumkin. Bu holat jamoaviy mehnat, ekotizimdagi organizmlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, texnik komponentlarning integratsiyasida kuzatiladi.

Tizimlar ko'p darajali bo'lishi mumkin. Har bir daraja o'z navbatida tizim hisoblanadi va uning qismlari quyi darajadagi tizimlardir. Bu — ierarxik tashkil etilgan tizimlar bo'lib, ularni Bertalanfi, Bogdanov va Sadovskiy asarlarida keng yoritilgan.

Masalan, inson biotsioal mavjudot sifatida a'zolar (pastki tizimlar), hujayralar (pastroq tizimlar) va boshqalardan tashkil topgan. Shu bilan birga, inson oilaga, jamiyatga, davlatga — yuqoriroq tizimlarga kiradi. Har bir darajada o'ziga xos tashkilot tamoyillari mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir.

Tizim effekti faqat qismlarning mavjudligidan emas, balki ularning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi. Aynan elementlar o'rtasidagi munosabatlar (hamkorlik, muvofiqlik, bo'ysunish, sinxronizatsiya) yangi sifattdagi ob'yekt sifatida tizimni yaratadi.

Demak, tizimiy tahlil jarayonida nafaqat tizimning tarkibini, balki uning tuzilmasini — qismlar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish muhimdir. Masalan: tashkilotda yuqori malakali xodimlar (elementlar) bo'lishi mumkin, lekin muvofiqlik (strukturasi) bo'lmasa, tizim samarali ishlamaydi.

Tizimiy metodologiyada muhim narsa shuki, qism yaxlitlik orqali aniqlanadi va aksincha. Elementni tizim kontekstisiz o'rganib bo'lmaydi. Bu prinsip fan sohasidagi holistik (yaxlitlikka asoslangan) yondashuvning asosi bo'lib, reduksionizmga zid hisoblanadi.

Bundan tashqari, tizimlar ochiq bo'ladi — ular tashqi muhit bilan modda, energiya, axborot almashinuvini amalga oshiradi. Demak, biror qism bir tizimda element, boshqa tizimda esa pastki tizim bo'lishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI





Maqolada tizimiy tahlil usuli — obyektни tizim sifatida o‘rganishga asoslangan ilmiy metodologiya qo‘llanilgan. Asosiy metodologik prinsiplar:

- **Yaxlitlik** — obyektни yagona butun sifatida ko‘rib chiqish;
- **Ierarxiya** — tizim darajalarini tahlil qilish;
- **Funksionallik** — qismlarning yaxlitlikdagi funksiyalarini tahlil qilish;
- **Emerdjentlik** — qismlar o‘zaro ta’siri orqali yuzaga keladigan yangi xossalarni aniqlash;
- **Kontekstualik** — elementlarni atrof-muhit va tizim maqsadlari bilan bog‘liq holda o‘rganish.

Manba sifatida quyidagi klassik va zamonaviy mualliflarning asarlaridan foydalanilgan: L.F.Bertalanfi, I.V.Blauberg, V.N.Sadovskiy, A.A.Bogdanov, hamda tizimli fikrlash va tashkilot nazariyasiga oid zamonaviy tadqiqotlar.

XULOSA

"Yaxlitlik va qism" kategoriyasini tushunish murakkab tizimlarni chuqurroq tahlil qilish, ularning tashkil topishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishidagi qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Tizimli yondashuvda yaxlitlik qismlarning yig‘indisiga teng emas, qismlar esa faqat yaxlitlik kontekstida mazmun kasb etadi. O‘zaro ta’sir, tuzilma, ierarxiya, teskari aloqa — bularning barchasi tizimning xatti-harakatini va evolyutsiyasini belgilaydi.

Amaliyotda bu shuni anglatadiki, samarali boshqaruv faqat tizimli bog‘liqliklarni tushunish asosida amalga oshiriladi, bardavom va moslashuvchan tizimlarni loyihalash esa elementlar va ularning strukturasini tahlil qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Берталанфи Л. фон. Общая теория систем. — М.: Прогресс, 1969.
2. Блауберг И.В., Юдин Э.Г., Садовский В.Н. Системный подход в современном знании. — М.: Наука, 1973.
3. Богданов А.А. Тектология: Всеобщая организационная наука. — М.: Экономика, 1989.
4. Прокофьев В.Н. Общесистемные закономерности. — М.: МИРС, 2008.
5. Сенге П. Пятая дисциплина. — М.: Олимп-Бизнес, 2007.
6. Артёмов О.Ю., Овчинникова Н.В. Взгляд на управление с позиции системного подхода. — М., 2013.
7. Уемов А.И. Системный подход и общая теория систем. — М.: Мысль, 1978.
8. Малик Ф. Менеджмент: Основы системного управления. — М.: Дело, 2005.





INSON SALOMATLIGI ME'YORLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Ro'zimurodov Siroj Madatovich

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni salomatligi va axloqiy mezonlar asosida ularning salomatlik me'yorlarini belgilashdagi roli ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarda salomatlik madaniyatini va uning me'yorlarini shakllantirishda ijtimoiy ong, tibbiy ta'lim va axborot vositalarini muhimligini ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy ong, tibbiy madaniyat, salomatlik me'yorlari, sog'lom turmush tarzi.

ФАКТОРЫ, ФОРМИРУЮЩИЕ СТАНДАРТЫ ЗДОРОВЬЯ ЧЕЛОВЕКА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Рузимуродов Сирож Мадатович

Доцент кафедры «Общественные науки»,
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: В данной статье с социально-философской и социологической точки зрения анализируется здоровье молодежи и ее роль в определении норм здоровья на основе этических критериев. Также показана важность общественного сознания, медицинского образования и средств массовой информации в формировании культуры здоровья и его норм у молодежи.

Ключевые слова: медицинское сознание, медицинская культура, нормы здоровья, здоровый образ жизни.

FACTORS FORMING HUMAN HEALTH STANDARDS: A SOCIAL- PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Rozimurodov Siroj Madatovich

Associate Professor, Department of "Social Sciences",
Samarkand Institute of Economics and Service





Abstract: This article analyzes the health of young people and its role in defining health norms based on ethical criteria from a socio-philosophical and sociological perspective. The importance of public consciousness, medical education, and mass media in shaping a culture of health and its norms in young people is also shown.

Keywords: medical consciousness, medical culture, health norms, healthy lifestyle.

KIRISH:

Jamiyatda salomatlik nafaqat organizmning jismoniy holati, balki insonning ruhiy, aqliy, ijtimoiy va ma'naviy barqarorligini ifoda etuvchi murakkab ijtimoiy tushunchadir. Inson hayotining mohiyati va mazmunini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinganda, uning tub ildizida salomatlikning turli qirralari yotadi. Ayniqsa, yoshlarni ongida salomatlik me'yorlarini shakllantirish va bu faqat tibbiy yoki ijtimoiy masala emas, balki jamiyat taraqqiyoti, axloqiy tafakkur, madaniy qadriyatlar va hayotiy maqsadlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan **ontologik va aksiologik** muammo hisoblanadi. "Salomatlik" tushunchasi jamiyat tibbiy hayotining mazmun-mohiyatini ifodalovchi va tarkibiy tuzilishini o'zida namoyon qiladigan asosiy falsafiy kategoriyalardir. Bu tushunchaning mazmun-mohiyati va ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlamasdan turib, jamiyatning tibbiy hayotini hamda uning negizini belgilovchi omillardan biri bo'lgan aholining tibbiy madaniyani shakllantirish va yuksaltirish, uni globallashtirish jarayoni talablariga mos ravishda tubdan o'zgartirish masalasini hal qilib bo'lmaydi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlashicha "Biz o'z faoliyatimizni boshlagan dastlabki kunlardan e'tiboran siz, hurmatli xalq vakillari bilan barcha muhim vazifalarimiz qatorida ikkita eng asosiy masalaga alohida ahamiyat qaratish haqida kelishib olgan edik. Bularning birinchisi - jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash bo'lsa, ikkinchisi - aholimizning sog'lig'ini muhofaza qilishdir. Hammamiz tushunamiz, tinchlik va sog'liq – bu har bir inson, butun xalqimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan buyuk ne'matdir. Shuning uchun ham mana shu ikki sohada biz ahvolni tubdan o'zgartirib, ijobiy natijalarga erisha olsak, butun jamiyatimizdagi vaziyat va ijtimoiy muhit keskin o'zgaradi, men bunga aminman"[1;154],– degan edi.

Shu o'rinda salomatlik deb nimaga aytiladi, degan savol yuzaga keladi. Bu savolga qadimgi zamonlardan boshlab hozirgi vaqtgacha soha olimlari va faylasuflar, shifokorlar, tabiblar va boshqalar tomonidan juda ko'plab qarshlar bayon qilingan. Masalan, miloddan avvalgi 460-377 yillarda yashab o'tgan qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuf-tabibi Gippokrat: "Sog'lomlik – bu tashqi tabiiy muhitning inson organizmiga ta'siri tufayli paydo bo'ladigan va rivojlanadigan



holatdir”[2;60],– degan bo’lsa, Aflotun: “Odam hayotini abadiy ruh boshqaradi. U uchta - aqliy, hayvoniy va o’simlik ruhlaridan iborat. Aqliy ruh bosh miyada joylashgan, hayvoniy ruh yurakda va qonda joylashgan, o’simlik ruhi esa jigarda bo’ladi. Bulardan eng muhimi hayvoniy ruh, u tanaga issiqlik va harakat bag’ishlaydi. Jigardagi o’simlik ruhi esa organizmni oziq bilan ta’minlaydi. Bu uchala ruh uchta mavhum kuch yordamida harakat qiladi. Sog’lomlik ham, kasallik ham shu uchta ruhga bog’liq. Odam shu ruhlarning ta’siridan chetga chiqmay yashasa, salomat, agar chetga chekinsa, kasallik paydo bo’ladi”[3;23],– degan fikrni ilgari surgan holda odamlardagi sog’lomlik va bemorlikni ruhlarga bog’laydi. Shuningdek, antik dunyoning mashhur faylasuf-tabiblaridan yana biri 130-201 yillarda yashagan Klavdiy Galen: “Sog’lomlik – bu 4 ta unsur namlik, jismoniy tana, organlar va butun organizmni boshqaruvchi kuchlarning muvozanati va uyg’unlashuvidan iboratdir. Shu sababli biz og’riqlarni his qilmaymiz, har kungi vazifalarimiz bo’lgan yuvinish-taranish, ichish, ovqatlanish va rahbarlik qilishda qatnashish kabi o’zimizga kerakli bo’lgan ishlarni bajaramiz”[4;37],– degan edi. Shuning uchun yoshlarda salomatlik me’yorlarini shakllantirish degani, aslida ularning hayot falsafasini, qadriyatlar tizimini, insoniylik mezonlarini va tafakkur madaniyatini shakllantirishni anglatadi. Bu esa nafaqat maktab yoki oliy ta’lim muassasalarida, balki oilada, ommaviy axborot vositalarida, madaniyat va san’atda, hatto diniy-ma’naviy tarbiyada salomatlikni borliqning ajralmas qismi sifatida tushuntirishni talab qiladi. Salomatlik me’yorlari shunchaki jismoniy gigiyena yoki sportga oid qoidalardan iborat emas, balki ular shaxsning dunyoqarashi, hayotga bo’lgan munosabati, o’z tanasiga va ongiga nisbatan ongli yondashuvi orqali qaror topadi. Shu jihatdan, salomatlikni falsafiy kategoriyalar – axloq, erkinlik, mas’uliyat, ozodlik, vijdon, g’amxo’rlik bilan uyg’un holda ko’rish muhimdir.

Markaziy Osiyoda yashab o’tgan ajdodlarimizdan Ismoil Jurjoniy (1080 – 1141) “Xorazmshoh xazinasi”, “Tibbiyotining mohiyati” nomli asarlarida “Sog’lomlik – bu kishi sog’lig’iga salbiy ta’sir etuvchi barcha omillarni bartaraf etishdir”[5;98], – degan bo’lsa, Abu Mansur Qamariy (Abu Ali ibn Sinoning tib ilmidagi ustoz bo’lgan) esa “Boylik va sog’lomlik” nomli kitobida quyidagicha yozgan edi: “Sog’lomlik birinchi galda normal, xotirjam hayot kechirishdir. Buning uchun esa normal ovqatlanish, har xil zararli odatlardan saqlanish kerak” [5;102] ligini uqtirgan. Shuningdek, salomatligi uchun mas’uliyatni his qilgan yosh – bu jamiyat oldidagi mas’uliyatni ham chuqur anglay oladigan insondir. Sog’lom tan, sog’lom ruhda yashovchi shaxs esa o’z qarorlarida erkin, hayotga nisbatan ongli, tafakkurda aniq va irodali bo’ladi. Aynan shu salohiyat orqali u o’zini jamiyatda ijodkor, ijobiy kuch sifatida namoyon qila oladi. Demak, salomatlikning shakllanishi – bu shaxsning ijtimoiy shakllanishi jarayonidir.





Buyuk ajdodlarimizdan eng mashhuri Shayxurrais Abu Ali ibn Sino(980-1037) o'zining "Tib qonunlari" nomli qomusiy asarida: "Biror kishining" "odam gavdasining holi uch xil bo'ladi: sog'liq, kasallik, uchinchi sog'liqqa ham, kasallikka ham qo'shilmaydigan bir holat; holbuki, sen ikki xilgina qilib qo'ya qolding" deyishi to'g'ri emas, chunki shunday bahsni qiluvchi kishi yaxshi o'ylasa, ikki narsadan tashqari, uchinchi bir holatning bo'lmasligini va bizning uchinchi holat bayoniga muhtoj emasligimizni tushunadi. Agar uchinchi holat lozim bo'lsa, albatta, bizning "gavdaning nosog'lig'i" degan so'zimiz kasallikni hamda sog'liq ta'rifiga sig'maydigan uchinchi bir holatni o'z ichiga olgan bo'ladi.

Sog'liq shunday malaka yoki holdirki, u sababli a'zolaridan sog'lom ishlar vujudga chiqadi. Sog'liq uchun bu ta'rifga muqobil: kela oladigan biron o'zga ta'rif yo'q. Lekin bahs qiluvchilar sog'liqni o'zlaricha ta'riflab, o'zlariga ham kerak bo'lmaydigan shartlarni sog'liq ta'rifiga kiritib yuboradilar. Bu to'g'rida tabiblar bilan bahslashib o'tirishga o'rin yo'q. Tabiblar ham bu kabi narsalar haqida munozara qiladigan kishilardan emaslar. Tabiblar bilan yoki ularning fikriga qo'shilmovchi kishilar bilan munozara qilish tibda biror foyda yetkazmaydi ham. Ammo bu masalada haqiqatni bilish boshqa fan, ya'ni mantiq fanining qoidalariga tegishlidir. Haqiqat mantiq fanidan talab qilinsin!" [6;12].

"Salomatlik" tushunchasiga berilgan bir qator ta'riflardan ham ko'rinib turibdiki, ularda: *birinchidan*, o'rab turgan tabiiy muhitning hal qiluvchi roli; *ikkinchidan*, qandaydir "mutlaq ruh"ning boshqaruvchanligi; *uchinchidan*, butun dunyo asosini tashkil etuvchi birlamchi mohiyat; *to'rtinchidan*, inson organizmidagi barcha a'zolarining o'z vazifalarini to'liq bajarishdagi holati kabilar asos qilib olingan. Holatga bunday tarzda yondashishga, *birinchidan*, aholining salomatligini asrash borasidagi shakllangan shart-sharoitlar; *ikkinchidan*, aholi salomatligini saqlash uchun yetkazib beriladigan dori-darmonlarning yetishmasligi; *uchinchidan*, jamiyatda ustun bo'lgan falsafiy dunyoqarash talablarini bajarishning qat'iyligi; *to'rtinchidan*, o'z manfaatini ko'zlovchi ayrim doiralarning butun mamlakat aholisining emas, balki birinchi navbatda o'zining, oilasining, yaqin qarindosh-urug'larining salomatligini saqlash borasida g'amxo'rlik sabab bo'lgan.

Inson axloqiy mezonlar asosida tarbiyalansa, ular salomatlikning ahamiyatini chuqur anglaydi. Shaxsiy salomatlik uchun mas'uliyat, gigiyenik madaniyat, zararli odatlardan yiroqlik, faol hayot tarzi kabi tushunchalar bevosita axloqiy qarorlar va qadriyatlar bilan bog'liq. Inson sog'lig'i jamiyatdagi eng yuksak qadriyat sifatida talqin etilganda, bu tushuncha axloqiy ongda ham chuqur ildiz otadi. Yoshlarda salomatlik me'yorlarini shakllantirishning eng muhim axloqiy omili – o'z salomatligiga bo'lgan ongli munosabatdir. Har bir inson o'z tanasiga, ruhiyatiga va sog'lig'iga hurmat bilan qarashi, unga zarar yetkazmasligi kerak. Bu jihatdan, o'ziga g'amxo'rlik qilish bu axloqiy majburiyatdir. Bu, avvalo, o'z salomatligiga, hayotiga



nisbatan mas'uliyatli bo'lishni anglatadi. Ayniqsa, yoshlarning o'z sog'lig'i uchun javobgarlik his qilishi, ular ichki axloqiy madaniyatining shakllanganidan darak beradi. Jamiyatda salomatlikni saqlashga oid qadriyatlar mavjud bo'lsa, bu umumiy axloqiy muhitni sog'lomlashtiradi. Bunda oila muhitining tutgan o'rni nihoyatda muhim. Ota-ona o'z farzandlariga sog'lom hayot tarzini, gigiyenik me'yorlarni va to'g'ri ovqatlanish madaniyatini o'rgatishi axloqiy jihatdan namunali xulqni shakllantiradi. Farzandlarda sog'lom turmush tarzi ongini shakllantirishda axloqiy o'rnak ko'rsatish – bu eng ta'sirchan metodlardan biridir. Shu bois XX asrning o'rtalaridan boshlab “salomatlik” tushunchasiga faylasuflar, tibbiyotshunoslar, politologlar psixologlar tomonidan ilmiy ta'riflar berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, salomatlik me'yorlari jamiyatda ijtimoiy, madaniy, tibbiy va axboriy omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab konstruktsiya hisoblanadi. Ular nafaqat biologik ko'rsatkichlarga, balki mavjud ijtimoiy qadriyatlar, tibbiyot amaliyoti, ommaviy axborot vositalari, diniy e'tiqodlar, iqtisodiy sharoit va hatto siyosiy kontekstga ham bevosita bog'liqdir. Har bir davrda va har bir jamiyatda sog'liq va kasallikning qanday talqin qilinishi – bu me'yorlarni kim belgilashini, qanday targ'ib qilishini va ularning jamiyatda qanday qabul qilinishini aniqlaydi.

Xulosa qilib aytganda inson salomatligi - bu nafaqat biologik holat, balki chuqur ijtimoiy, axloqiy va madaniy mohiyatga ega tushunchadir. Salomatlik me'yorlarini shakllantirish jarayoni jamiyatning adolat, erkinlik, haqiqat va inson qadr-qimmatiga bo'lgan munosabati bilan bevosita bog'liq. Bu esa, uni shunchaki tibbiy yoki texnologik masala sifatida emas, balki ijtimoiy-borliq va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar kontekstida anglashni talab qiladi. Shu sababli, salomatlik me'yorlarini shakllantirishda ijtimoiy adolat, madaniy moslashuvchanlik, axborotning haqqoniyligi va tibbiy ta'limning sifati muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotdan kelib chiqib, sog'liqni saqlash siyosatida va ommaviy sog'liq kampaniyalarida tibbiy me'yorlar tushunchasini ijtimoiy ongga singdirishda ehtiyotkorlik va inklyuzivlikka asoslangan yondashuvlar zarurligi xulosa qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis Senatining Yigirmanchi Yalpi Majlisidagi nutq// Uning o'zi. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019. – B.154.
2. Гиппократ. О враче 1. // Этика и обшая медицина. – СПб.: Азбука, 2001. – С. 60.
3. Чикин С.Й. Врачи – философи. – М.: Медицина, 1990. – С.23.



4. Гален из Пергама (130-201) //100 учених, изменивших мир. – Мн.: Харвест, 2006. – С. 36-38.
5. Qodirov A.A. Tibbiyot tarixi. Darslik. – T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993.
6. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. 1-jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992. – B.12.
7. Madatovich R. The Role of Civic Responsibility In Educating Youth In A Healthy Spiritual Environment In An Information Society //Pubmedia Social Sciences and Humanities. – 2025. – T. 3. – №. 1. – S. 6-6.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY MEROSIDA IJTIMOIY-AXLOQIY G‘OYALARNING IFODASI

Alimov Akbar Narboyevich

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)., dotsent
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mashhur mutafakkir Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida ijtimoiy-axloqiy faollik g‘oyalari qanday ifodalangani tahlil qilinadi. Unda adibning axloqiy qarashlari, insonning jamiyatdagi o‘rni, odob-axloq, halollik, adolat, ezgulik kabi tushunchalarga bergan e‘tibori yoritiladi. Shuningdek, Koshifiyning asarlari orqali yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularga ma‘naviy qadriyatlarni singdirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Maqolada Koshifiyning fikrlarining zamonaviy jamiyatda dolzarbligi, ma‘naviy tarbiyani shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Husayn Voiz Koshifiy, ijtimoiy-axloqiy faollik, ma‘naviy tarbiya, odob-axloq, adolat, ezgulik, yosh avlod, qadriyatlar.

ВЫРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫХ ИДЕАЛОВ В НАСЛЕДИИ ХУСЕЙНА ВАЗА КАШИФИ

Алимов Акбар Нарбоевич

Доктор философии (PhD) по философии, доцент
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: В данной статье анализируется, как идеи социально-нравственной активности выражены в трудах известного мыслителя Хусейна Вауза Кашифи. В нем освещаются нравственные взгляды писателя, место человека в обществе, внимание к таким понятиям, как этика,



честность, справедливость, доброта. Также через произведения Кашифи показана роль в воспитании подрастающего поколения гармонично развитыми личностями, привитии им духовных ценностей. В статье раскрывается актуальность идей Кашифи в современном обществе и их значение в формировании духовного воспитания.

Ключевые слова: Хусейн Ваиз Кашифи, социально-нравственная активность, духовное воспитание, этика, справедливость, доброта, молодое поколение, ценности.

EXPRESSION OF SOCIAL-MORAL IDEALS IN THE HERITAGE OF HUSAYN WAZ KASHIFI

Alimov Akbar Narboyevich

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Associate Professor
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract: This article analyzes how the ideas of social and moral activism are expressed in the works of the renowned thinker Husayn Voiz Koshifiy. It illuminates the writer's moral views, a person's place in society, and attention to such concepts as ethics, honesty, justice, and kindness. Also, through the works of Kashifi, the role of educating the younger generation as harmoniously developed individuals, instilling spiritual values in them, is shown. The article reveals the relevance of Kashifi's ideas in modern society and their importance in shaping spiritual education.

Keywords: Husayn Vaiz Kashifi, social and moral activity, spiritual education, ethics, justice, kindness, young generation, values.

KIRISH:

Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotida ko'p asrlik tarixga egadir. Shu o'rinda XI-XII asrlarda so'fiylik Movaraunnahrda keng tarqaladi va mustaqil tariqatlar shakllanadi. Tasavvuf ta'limotining nazariy va amaliy jihatlariga bag'ishlab ko'plab asarlar bitilgan bo'lib, ular orasida Markaziy Osiyolik allomalarning risolalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyodagi yassaviya, kubraviya, naqshbandiya tasavvuf yo'nalishlari asoschilari hamda ko'plab ulamolar tomonidan tasavvuf ta'limotining mohiyatini bayon etishga bag'ishlangan nodir risolalar bitilgan. Bu risolalar orasida Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati" asari muhim ahamiyat kasb etadi.





Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati” asari tasavvuf ta’limotining amaliy jihatlari va tariqat ahlining rioya etilishi lozim bo’lgan axloq-odob qoidalari batafsil bayon etilgan nazariy manbadir. “Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog’liq”[1;B.24-25]. Shu o’rinda yoshlarni jamiyatimizning axloq-odob qoidalari asosida yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalash boy ma’naviy merosimizga bevosita bog’liqdir.

Naqshbandiylik tariqatining vakili sifatida Husayn Voiz Koshifiy tasavvuf ahlini ijtimoiy faollik masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Ma’lumki, ko’plab tariqatlarda so’fiylarni uzlatga berilishi, faol ijtimoiy munosabatlardan chetlashishlari targ’ib etiladi. Naqshbandiylik ta’limoti esa tariqat vakillarini jamiyat hayotida ijtimoiy faol bo’lishga undagani bois hozirgi kunda dunyoda eng keng tarqalgan so’fiylik oqimi hisoblanadi. Mazkur tariqatning vakili sifatida Husayn Voiz Koshifiy darvesh faoliyatida mehnat va kasb-kor xususida batafsil to’xtalib o’tar ekan shunday deydi: “bilgilki, darvesh halol va pokiza kasb bilan shug’ullanishi kerak, chunki kasb-tariqatning zaruriy shartidir. Kishi rohati uchun zarur narsa esa vojibdir. Va agar kishi o’z kasbi bilan zaruriy narsalarni muhayyo etmasa, odamlarni ranjitadi, azobga qo’yadi. Demak, kimki jamiyatdan foyda ko’rsayu, lekin foyda yetkazmasa, u ishlamagan bo’ladi. Bas, biror kasb bilan shug’ullanmagan darvesh o’zini xalq bo’yniga yuklagan bo’ladi. Bu esa tariqatda mumkin emas”[3;B.83]. Alloma kishi o’z kasbi bilan zaruriy narsalarni muhayyo etishi lozimligini ta’kidlamoqda, tariqatda tekinxo’rlik, birovlar hisobiga kun kechirish mumkin emasligini uqtirib o’tadi. Uzlat va tarkidunyochilikni rad etar ekan, tariqat vakillarini halol kasb bilan shug’ullanishga chaqiradi. Alloma tariqat vakillarini ijtimoiy faollikka chaqirar ekan shunday deydi: “shunday qilib, ma’lum bo’ladiki, darvesh uchun kasb zaruriydir va shunga binoan darvesh kasb odobini ham bilish hamda unga rioya qilishi lozim. Bilgilkim, hamma kasblarga birday taalluqli qisqacha qoida adablar mavjud, shuningdek har bir kasb uchun alohida odob ham bor” [3;B.83]. Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillarini kasb-hunar bilan shug’ullanishga chaqirar ekan, ularni o’zlari egallagan kasbning axloqiy normalariga rioya etishlarini talab etadi. O’zining “Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati” asarida tariqat vakillari shug’ullanadigan kasb va hunarlar, ularning har birining axloq-odob qoidalari va normalarini ratsianallik tamoyili asosida ta’kidlab o’tadi. Shuning uchun bugungi kunda ta’lim tizimida kasb etikasiga oid o’quv qo’llanmalarda ham Koshifiy tomonidan ratsianallik tamoyili asosida ishlab chiqqan axloq-odob qoidalari o’z ahamiyatini yo’qatmagan. Koshifiy mazkur asarida tariqat vakillari egallashi mumkin bo’lgan barcha kasb-hunarlar



xususida to‘xtalib o‘tadi. Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillarini xizmat ko‘rsatish sohasida, xususan, mehmon kutish axloq-odoblarini batafsil yoritib beradi. Bundan tashqari alohida bir faslda tariqat vakillaridan bo‘lgan xodimlar (xizmatkorlar) odobini mantiqiylik nuqtai-nazaridan izohlaydi. Tariqat vakillari bo‘lgan xodimlarni odob-axloq qoidalarini bayon etar ekan shunday deydi: “...xodim to‘rt ishni yaxshi bilishi va doim ado etishi lozim. Buning biri – supurib-sidirish, ikkinchisi – ovqat pishirish, uchinchisi - kir yuvish, to‘rtinchisi - idish-tovoq yuvish. Va bu ishlarning har biri uchun amal qilinadigan ma’lum qoidalar bor” [3;B.85].

O‘rta asrlarda maddohlik kasb-faoliyat turi sifatida Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzida keng tarqalgan. Hatto XIX-XX asrning boshlarigacha yirik shaharlarda ularning alohida mahallalari bo‘lgan. Bundan tashqari, Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillaridan bo‘lgan ma’raka tuzuvchilar hamda tomosha ko‘rsatuvchilarning axloqiy qoidalarini ham tushuntirib beradi. Ma’raka tuzuvchilar sifatida maddohlikning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: “shuni bilgilki, futuvvat ahli (ahli shadd) orasida maddohlarning martabasi eng balanddir. Buning sababi shuki, ahli bayt, xonadon muhabbati barchaning ko‘nglida mavjud va agar birov boshqa birovni sevsa, sevgilisining ta’rifini tilidan qo‘ymaydi. Maddohlar shunday xususiyatga ega kishilardirlar va uzluksiz ahli bayt ta’rifida so‘z aytadilar va xonadonning yodida so‘z aytish bilan vaqt o‘tkazadilar” [3;B.90].

Husayn Voiz Koshifiy aholiga xizmat ko‘rsatishning shakli sifatida maddohlikning ahamiyatini tushuntirar ekan, ularni quyidagicha tasniflaydi: “agar maddohlar necha xil bo‘ladi, deb so‘rasalar, to‘rt xil deb aytgil: birinchidan – o‘zlari badehatan ijod qiluvchilar, ular o‘zlari she’r aytish qobiliyatiga ega bo‘lib, hikoyatu rivoyatlarni nazmga tushurib, bayon qilaveradilar. Ikkinchi xili – boshqa shoirlarning she’r, hikoya yoki badehalarini ijro etib, xalqqa foyda etkazuvchilardir. Masalan, saqqolar (suv tarqatuvchilar) shunday kishilar bo‘lib, ularning ishidan odamlar xursanddirlar. To‘rtinchi toifa har yerdan har xil baytlarni yod olgan kishilar bo‘lib, ular eshikma-eshik yuradilar, qasida aytib non yig‘adilar va maddohlikni gadoylik, deb tushunadilar. Bularni agarchi qiyofalariga qarab maddoh desalarda, aslida ushbu jamoaga muvofiq emasdirlar” [3;B.91]. Maddohlik kasbining mohiyatini tushuntirishda ham ratsional yondashmoqda. Maddoh gadolardek tekinxo‘rlik qilib non yig‘moqliklari, balki ma’rakalarda xizmat ko‘rsatishlari, tadbirlarda diniy ilohiy rivoyatlar, baytlar aytib kishilarga ma’naviy ozuqa ulashishlari kerak.

Husayn Voiz Koshifiy maddohlik kasbi mazmuni va mohiyatini bayon etgandan so‘ng xizmat ko‘rsatish sohasi sifatida suv tashuvchi meshkobchilar – soqqalar faoliyati xususida ham to‘xtalib o‘tadi: “bilgilkim, saqqolar ham maddohlarga kiradilar. Biroq saqqolar g‘oyat mo‘tabar kishilardirlar va ularning rutbasi ulug‘dir:



Dengiz qa'riga sho'ng'igan dilovar er,
Yo g'arq bo'ladi, yo Gavhar olib chiqar.

Va ba'zilar saqqolik kasbining pirini Salmon forsiy debdurlar. Negaki, Salmon forsiy doimo elkasida mesh bilan odamlarni uyiga suv tashigan, shu bois bu rivoyat durustdir. Shayx Sa'diy ham saqqolarni hayot bag'ishlovchi mardlar deganlar" [3;B.93]. Samimiy va beg'araz bu kasb egalarini alloma alohida extirom bilan bayon etadi. Saqqolar, suv tashuvchilar faoliyati ahamiyatini yoritir ekan, ularning axloq-odob qoidalari xususida shunday deydi: "agar saqqolarning odobi nechta, deb so'rasalar, o'nta deb aytgil. Avval shuki, saqqolik bilan shug'ullanuvchi odam pok bo'lishi kerak, zero faqat pokiza kishi bu kasbni qila oladi. Ikkinchidan, ma'naviy jihatdan qalbi pok bo'lsin. Uchinchidan, suvni ulashayotganda o'ng qo'ldan boshlasin. To'rtinchidan, odamlarga halol va toza suvdan keltirib tarqatsin. Oltinchidan, saqqoligi uchun haq talab qilmasin, chunki bu tamagirlikka kiradi. Balki tavoze bilan beminnat xizmat qilsin... Sakkizinchidan, biron bir yig'ilishga ijozatsiz kirib bormasin va umuman da'vat qilinmagan o'tirishlarga bormasin. Ammo borilishi joiz bo'lgan ommaviy yig'inlarga borishi kerak. To'qqizinchidan, o'z kasbdoshlariga hasad qilmasin va agar saqqolardan birining ishi rivoj topsa, bundan faqat xursand bo'lsin. O'ninchidan, o'z ishini sevsin va barcha ikir-chikirigacha yaxshi bilsin" [3;B.93]. Alloma suv tashuvchi saqqolar kasbini mohiyatini hamda ularning kasbiy axloqiy fazilatlarini bayon etishda mantiqiy ratsional yondashar ekan avvalo gigiyena nuqtai-nazardan pokizalikka shuningdek ma'naviy jixatdan pok bo'lishga chaqiradi.

Temuriylar davrida o'rta asrlarda, xususan mehmon kutish odobi va xizmat ko'rsatishning axloqiy qoidalariga alohida e'tibor berilgan. Mamlakatdagi karvonsaroy va choyxonalarda, to'y va ma'rakalarda, xalq sayillari va bazmlarda hamma mezbon va mehmon, xodimlar va xizmatkorlar, xullas, xizmat ko'rsatuvchi servis ahli yuqorida bayon etilgan odob-axloq qoidalariga rioya etishlari shart bo'lgan. O'rta asrlarda mazkur axloqiy talablar xizmat ko'rsatish sifatini yuqori darajada bo'lishini ta'minlagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, avvalo, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Naqshbandiya tariqati nazariyotchilari tomonidan tasavvuf vakillari orasida ijtimoiy faollik, ya'ni jamiyatda muayyan bir kasb egallashlari lozimligi asoslab berilgan. Shuningdek Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillarini halol mehnat qilib kun kechirishga chaqiradi. Mehnat qilib halol turmush kechirish uchun esa tariqat vakillariga muayyan bir kasb-hunar zarurligini targ'ib etadi. Har bir tariqat vakillari o'zi egallagan kasb-hunarning axloq odob qoidalariga mukammal rioya etishlari zarurligini ta'kidlaydi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir //Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.24-25.
2. Bo‘riyev O. Turon tarixining oltin davri. – Toshkent, 2019.– B.88.
3. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvatnomai sultoni; Axloqi muhsiniy. Nashrga tayyorlovchilar M.Aminov, F.Xasanov. – Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. - B.83.
4. Gonsales, Rui De Klavixo Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406) –Toshkent.: O‘zbekiston, 2010. - B.154-185.
5. Xudoyshukurov T. va boshqalar. Kasbiy etika va etiket. Darslik. – Toshkent.:Iqtisod-moliya, 2021 - B.41.
6. Бехруз М.Х. Хусайн Ваиз Кашифи и его произведения эпистолярного жанра: Дисс... канд... ист. наук. – Москва, 1970. – С.23.
7. Алимов А.Н. Хусейн Ваиз Кашифи о совершенствовании человеческой морали // Гуманитарное знание и духовная безопасность: сборник материалов VIII международной научно-исследовательской конференции (г. Грозный, 10-11 декабря 2021 г.) – Махачкала: ЧГПУ, АЛЕФ, 2021. –С.13-17.
8. Alimov A.N., Azizqulov A.A. Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosiga G‘arb tadqiqotchilarining munosabati // Jahon madaniy sivilizatsiyasi kontekstida Xojagon Naqshbandiya tasavvufiy ta’limotlari ilmiy-ma’naviy merosining umumbashariy ahamiyati xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 2019 yil, 27-28 may. – Navoiy, 2019. – B.49-50.





XATIRCHI TUMANIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Azizqulov Akram Abduraxmonovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotasiya: Mazkur maqolada Xatirchi tumanida turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlar falsafiy-metodologik jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, tuman hududida mavjud bo'lgan ziyoratgohlar, ekologik turizm obyektlari hamda g'orlarga asoslangan spelioturizm yo'nalishlari tahlil qilinib, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari va kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar bo'yicha ham taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Xatirchi tumani, islom ilohiyoti, tasavvuf ta'limoti, tariqatlar, yassaviya tariqati, Badr Ota, Sayyid Ota, ziyoratgohlar, turizm, spelioturizm, Xatirchi tumani, tabiiy g'orlar, sun'iy g'orlar, Maydonsoy g'ori, xorijiy sayyohlar. Andigon qishlog'i, Shaldiraq qishlog'i, ekoturizm, gostronomik turizm, turizm qishlog'i.

ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ХАТИРЧИНСКОМ РАЙОНЕ

Азизкулов Акрам Абдурахмонович
Кандидат философских наук, доцент
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: В данной статье анализируются возможности развития туризма в Хатырчинском районе с философско-методологической точки зрения. Также анализируются существующие места паломничества, объекты экологического туризма и спелеотуристические направления на базе пещер в районе, а также выдвигаются предложения и рекомендации по существующим проблемам, путям их устранения и мерам, которые необходимо принять в будущем.

Ключевые слова: Хатырчинский район, исламская теология, суфизм, ордена, орден Яссавия, Бадр Ота, Сайид Ота, места паломничества, туризм, спелеотуризм, Хатырчинский район, естественные пещеры, искусственные пещеры, пещера Майдонсой, иностранные туристы. Село Андигон, село Шалдырок, экотуризм, гастрономический туризм, туристическая деревня.





OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN KHATIRCHI DISTRICT

Azizkulov Akram Abdurakhmonovich

Candidate of Philosophy, Associate Professor
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract: *This article analyzes the possibilities of tourism development in the Khatyrchi district from a philosophical and methodological point of view. It also analyzes the existing pilgrimage sites, ecotourism sites and cave-based speleotourism destinations in the district, and puts forward proposals and recommendations on existing problems, ways to eliminate them and measures to be taken in the future.*

Key words: *Khatyrchi district, Islamic theology, Sufism, orders, Yassaviya order, Badr Ota, Sayyid Ota, pilgrimage sites, tourism, speleotourism, Khatyrchi district, natural caves, artificial caves, Maidonsoy cave, foreign tourists. Andigon village, Shaldyrok village, ecotourism, gastronomic tourism, tourist village.*

KIRISH

Mamlakatimizni XXI asrda jahon hamjamiyatida oʻziga munosib oʻrinni egallashi va xalqaro nufuzining ortib borishi koʻp jihatdan barqaror iqtisodiy taraqqiyotga bogʻliqdir. Turizm iqtisodiyotimizni yuksalishiga xizmat qiladigan serdaromad sohalaridan biridir. Mamlakatimizda turizmning barcha sohalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjuddir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, "Oʻzbekiston juda katta turizm va rekratsiya salohiyatiga ega, unda jami 8,2 mingta madaniy meros obyekti mavjudligi, Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy taraqqiyot drayveri - turizmni rivojlantirish borasida vazifalarni belgilab berar ekan, Navoiy viloyatining turistik salohiyatidan unumli foydalanishga alohida toʻxtalib oʻtadi [1].

Navoiy viloyatining barcha tumanlarida turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Xususan, viloyatning Xatirchi tumanida 20 dan ortiq ziyorat obyektlari, Temuriylar davriga tegishli meʼmoriy obida, Sangijumon singari koʻplab geoturistik obyektlar va qoyatosh rasmlari, shuningdek, bir qancha rekrasion va ekoturizm maskanlari mavjud. Bundan tashqari tumanda spelioturizmni rivojlantirish boʻyicha ham imkoniyatlar mavjuddir. Mazkur turistik obyektlardan unumli foydalanish boʻyicha tavsiyalarimizni bayon etamiz.

Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida koʻplab islom ilohiyotining ulamolari, ayniqsa tasavvuf tariqatining pirlari va avliyolarining marqadlari (qabrlari) mavjud boʻlib, bugungi kunda ularning har qaysilari gavjum ziyoratgoh hisoblanadi.



Tumanda bunday muqaddas qadamjolarlarning soni 20dan ortiq bo'lib, Badr Ota, Shayx Gadoy Selkin, Najva Ota, Muhammad Huduriy, Xo'jaqul Eshon bobo, Sayyid Ota, Xo'ja Jarroh bobo, Qoshg'ar Ota, Tangriberdi Eshon bobo, Qaro bobo, Polvon Ota, Suluk ota, Langar Ota, Sayyid Amir Xalil Maydoniy, Hazrati Azizon Mavlono Vali, Abdurashid Xalifa, Qovus Ota, Mallato'n Ota, Mulla Juma, Rayim Devona ziyoratgohlari shular jumlasidandir[2].

Xatirchi tumanidagi Ibn Sino mavzesida joylashgan Badr ota ziyoratgohida Yassaviya tariqatining yetuk murshidi - piri dafn etilgan. Badr ota ismli murshid - Mavlono Badriddin Muxammad Hazrati Zangiotaning to'rtinchi xalifasi bo'lib. Yassaviya tariqatining valiy zotlaridan bir hisoblangan. Otalari shayx Mahmud ota bo'lgan. Badr ota 12 avlod bilan Hazrati Aliga, ya'ni payg'ambar xonadoniga borib taqaladi[2].

Husayn Al-Voiz Koshifiyning o'g'li Ali Safiyning "Rashohatul-aynil-hayot", Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat", Muhammad Tohir eshonning "Tazkirai Tohir Eshon", Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma", Kuprulzodaning "Turkiy mashoyixlar" kabi bir qancha asarlarda ma'lumotlar berilgan. Bu manbalarda Badr ota haqida o'nlab rivoyatlar keltirilgan.

Badr Otaning vafoti xijriy 681 yil, ya'ni milodiy 1283yilga to'g'ri keladi Maqbara yonida tarixiy jome' masjid mavjud bo'lib, Amir Nasrullaxonning buyrug'iga asosan 1800 yilda qurilgan. Qabr ustiga maqbara tiklangan, ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratilgan [3].

Xatirchi tumanining Bog'chakalon qishlog'idagi Oq masjid majmuasida ziyoratgoh mavjud. Mazkur ziyoratgohda Sayyid Ota qabri joylashgan bo'lib, ustiga maqbara tiklangan. Sayyid Ota - Sayyid Axmad ibn Sayyid Abu Bakr yuqorida bayon etilgan badr ota bilan zamondosh bo'lib, milodiy 1292 yoki 1311 yillarda vafot etgan. Yassaviya tariqatining ulug' shayxlaridan biri hisoblanadi. Ba'zi manbalarda Toshkentda, ba'zilarida esa Xorazmda tavallud topgan, degan qarashlar mavjud. Hazrati Zangi otaning yetuk xalifasi hisoblangan. Tasavvuf olamida ulug' valiylik sifati va tariqat yo'lidagi namunalari bilan mashhur. Manbalarda umrining so'ngini Orol dengizi bo'ylarida o'tkazganligi va o'sha joyda vafot etganligi ta'kidlanadi. Sayyid Otaning Bog'chakalondagi qabri ramziy hisoblanadi. Mazkur maqbara yonida 1380-1390-yillarda, ya'ni temuriylar hukmronligi davrida masjid bunyod etilgan bo'lib, davriy ta'mirlashlar tufayli bugungacha yaxshi holatda saqlanib qolgan. Manbalarda bu ziyoratgohda Zaxiriddin Muhammad Boburning bo'lganligi qayd etiladi.

Xatirchining Maydonsoy qishlog'ida Yassaviya tariqatining ulug' pirlaridan hisoblangan Sayyid Amir Halil Maydoniy va hazrati Azizon Mavlono valilarning qabrlari mavjud. Ikkalasi ham bir davrda, ya'ni XVI asrda yashab o'tishgan. Ularning karomatlari haqida Yassaviya tariqati pirlari haqidagi manbalarda batafsil



ma'lumotlar keltirilgan [3]. Bu zotlar tarixiy shaxslar bo'lib, o'z davrining yetuk valilari darajasida bo'lgan. Biroq, qabrlariga yodgorlik qo'yilmagan, maqbara ham bunyod etilmagan. Ziyoratchilar uchun hech qanday sharoit yaratilmagan.

“Ota” nisbasi faqat Yassaviya tariqati murshidlariga berilishi inobatga oladigan bo'lsak, Najva Ota, Qoshg'ar Ota, Polvon Ota, Suluk ota, Langar Ota, Qovus Ota, Mallato'n Ota ziyoratgohlari ham yassaviya tariqati pirlariga tegishli hisoblanadi. Xatirchi tumanida Yassaviya tariqati ulug' avliyolari maqbaralari ko'p ekan. Bugungi kunda dunyoning turli hududlarida yassaviya tariqatining ixlosmandari ko'p bo'lib, ular mazkur tariqat murshidlari pir-u avliyolarini qabrlarini ziyorat qilib turadilar.

Xatirchi tumanida istiqbolli turizm yo'nalishlaridan biri bu speleoturizm (sport yoki ilmiy tadqiqot maqsadlarida g'orlarga tashrif buyurishdir) hisoblanadi. Sport turizmining bir turi sifatida tabiiy yer osti va tog' daralaridagi bo'shliqlar – g'orlar bo'ylab sayohat qilish va ulardagi turli xil to'siqlarni maxsus vosita va asboblarni yordamida yengib o'tish – spelioturizmning mohiyatini tashkil etadi. Yoshlarni o'ziga jalb qiluvchi bu turizm turi ko'proq sarguzashtlarni va yangi taassurot va tuyg'ularni sevuvchilar uchun jozibali sayohat hisoblanadi.

Xatirchidagi spelioturistik obyektlar – g'orlar haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, tumanida tabiiy g'orlardan tashqari ko'plab sun'iy g'orlar ham mavjud. Sun'iy g'orlar Oqtog' tizmasidagi molibden ruda konlarini qazib olish vaqtida paydo bo'lgan. Sun'iy g'orlar vertikal, ba'zan esa gorizontallarga ega bo'lib, maxsus jihozlar - akvovkalar, karabinlar, arqonlar, ilgaklar - xullas, individual xavfsizlik tizimlarini talab etadi. Tumandagi bunday sun'iy g'orlar ekstremal sayohatlarni xush ko'ruvchilar uchun qiziqarli hisoblanadi.

Tumanda tabiiy g'orlar Nurota tog'ining Oqtog' tizmasida mavjud bo'lib, Oltinsoy MFY Maydonsoy qishlog'ida g'or shular jumlasidandir. Mazkur g'or mutaxassislar tomonidan o'rganilmagan. Mahalliy xalq vakillarining aytishicha, g'orning kirish joyi Xatirchining Maydonsoyida bo'lsa, chiqish joyi Jizzaxda ekan. G'orning kirish joyi ikkita (ko'zoynakka o'xshaydi) bo'lib, 3 metr g'or ichkarisiga kirgandan so'ng birlashib ketadi. G'orning kirish qismining balandigi 1,5 metr bo'lib, 10 metr yurgandan so'ng 2 metr va undan ziyod yuqorilab boradi [3].

Mahalliy xalq vakillaridan Qamariddin Baratov mazkur g'orni tadqiq etish taklifi bilan Toshkent shahridagi mutaxassislarga murojaat etadi. 2023-yilning 20-may kuni Germaniyadan 10 nafar sayyoh mazkur g'orga tashrif buyurishadi. Ular g'orning ichkarisiga 50 metrgacha kirib boradilar. Q.Baratovning aytishicha, g'or ularda juda yaxshi taassurot qoldiradi va ular kelgusi yili tayyorlanib (kerakli anjom va jihozlarni olib) g'orni kelib o'rganishlarini aytadi. Haqiqatan ham ular 2024-yil Maydonsoydagi g'orga ikkinchi marta tashrif buyuradilar. Ular bu safar g'orning qariyb 500 metr ichkarisigacha kirib boradilar. Bu xorijiy sayyohlar mazkur g'orni



kelgusida to'liq tadqiq etishni maqsad qilib qo'yganlar. Xorijiy sayyohlarni g'orga ekspeditsiya uyushtirishlari - ularni tumanda kamida 1-2 kun qolishini anglatadi. Ular uchun servis - xizmat ko'rsatish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yilishi mahalliy aholi uchun qulay daromad manbai bo'lib xizmat qiladi. Xatirchidagi boshqa g'orlarni ham tadqiq etish va turistik marshrut halqasiga kirgizish tuman iqtisodiyotiga katta daromad keltiradi. Chunki ekstremal turizmning bir ko'rinishi bo'lgan spelioturizm ishtiyoqmandlari ko'proq xorijiy sayyohlar hissasiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari tumanda eko va geoturizmni rivojlantirish uchun ham katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, tumandagi Andigon Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirishda katta imkoniyatga ega bo'lgan qishloq hisoblanadi. Andigon qishlog'i Xatirchi tumani markazidan 50-60 km masofada joylashgan. Qishloq tabiati xilma-xil va rang barang tog' hamda adirlardan bo'lib unda ko'plab, soy va buloqlar mavjud. Qishloq doimo yam-yashil bo'lib, bog'larida turli xil mevalar, ayniqsa bodomzorlar tashrif buyuruvchi sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Qishloqni turistik paselkaga aylantirish bugungi kunning davr talabidir.

Aholining asosiy mashg'uloti chorvachilik, parrandachilik, bog'dorchilik va hunarmandchilikdir. Qishloq o'zining echki sutidan tayyorlangan qurtlari va bodom yog'ilari bilan mashhurdir. Bunday imkoniyat qishloqda ekoturizmni, gastonomik turizmni hamda etnografik turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Gostronomik turizm uchun mo'ljallangan xonadonlarda milliy taomlarni xususan, tandirlarda non va yog'li patirlarni, echki sutidan tayyorlangan sariyog' va qurtlarni tayyorlanish jarayonlarini xorijiy sayyohlarga namoyish etish mumkin.

Shuningdek hunarmandchilik ustaxonalarida to'qimachilikni – tabiiy junlardan ip yigirish, turli xil ranglarga bo'yash, xilma-xil gilamlarni to'qish jarayonlarini xorijiy sayyohlarga bevosita namoyon etish, hatto ularni mazkur jarayonlarga ishtirok etishlari imkoniyati mavjuddir.

Xatirchi tumani Angidon mahallasidagi Shalldiroq qishlog'i xushmanzara tabiati, maftunkor bog'lari boshqa hududlardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Shalldiroq qishlog'ida joylashgan ulkan archa daraxti o'zining go'zalligi bilan nom qozongan. Mazkur tabiat mo'jizasini o'z ko'zi bilan ko'rgani kelayotgan mahalliy sayyohlar oqimi kun sayin ko'paymoqda. Archa tanasining aylana bo'ylab o'lchami taxminan 12 metr, balandligi esa 20 metr. O'zbekistondagi eng yirik igna bargli daraxtlardan biri bo'lgan mazkur archaning yoshi hozirgacha aniqlanmagan. Mahalliy aholining aytishicha, archaning yerga qadalganiga taxminan ming yildan ko'p vaqt bo'lgan. Mahalliy aholi tomonidan bu tabiat mo'jizasi "Avliyo archa" deb ziyorat etiladi. Shu yerlik fuqaro Normamat otaning aytishicha har yili 19 martdan 24-25 martgacha archadan changdek (tutundek) narsa (ajralib chiqadi) namoyon bo'lar ekan va atrofga juda muattar hid taralar ekan. Ziyoratchilar bu yerga kelib jonliqlar so'yib, o'zlarining rasm-rusumlarini bajarib ketishar ekan [3].



Tumanda turistik obyektlar ko'p bo'lib, ulardan oqilona foydalanish yo'lga qo'yilmagan. Xususan, Xatirchining "kichik Shveysariyasi" deb e'tirof etiladigan Andigon qishlog'iga, ayniqsa Shalldiroq qishlog'iga turistlarni olib boradigan manzil - yo'l mutlaqo talabga javob bermaydi. Andigon va Shalldiroq qishloqlarini turizm qishlog'iga aylantirish uchun avvalo turistlar va mehmonlar uchun birinchi galda shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchidan, Xatirchidagi mavjud xilma-xil turistik obyektlar tuman iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday ulkan salohiyatdan unumli foydalanish uchun tumanda ekoturizm, ziyorat turizmi, gostronomik turizm, spelioturizm va shu kabi boshqa ko'plab turistik obyektlarda ziyoratchilar uchun barcha shart-sharoitlarni, ya'ni infrotuzilmalarni yaratish lozim.

Ikkinchidan, Respublikamizdan va xorijdan tashrif buyuruvchi ziyoratchilar uchun Xatirchi tumanidagi Yassaviya tariqati murshidlarining maqbaralarini turistik xalqasini yaratish zarur.

Uchinchidan, mazkur muqaddas qadamjolarini kengroq targ'ibot va tashqivot etish maqsadida har bir ziyorat obyektlari, unda dafn etilgan islom ilohiyoti ulamolari to'g'risida buklet yoki boshqa ko'rinishdagi materiallar va ma'lumotlarni tayyorlash zarur. Shu bilan birga Xatirchi tumanidagi ta'mir talab ziyoratgohlarni ta'mirlash va ziyoratchilar uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim.

To'rtinchidan, ziyorat turizmi nafaqat iqtisodiyotning serdaromad sohasi, balki etnomadaniyat yutuqlarini xalqaro hamjamiyatga keng targ'ib etish omilidir. O'z navbatida, ziyorat turizm fuqarolarimizda milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz haqidagi tasavvurlarini oshirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllanishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, Xatirchi tumanida spelioturizmni rivojlantirish qulay imkoniyatlar mavjuddir, ya'ni hududda ko'plab tabiiy va sun'iy g'orlar mavjuddir. Mazkur obyektlarni turistik marshrut halqalariga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tumandagi tabiiy va sun'iy g'orlarni speliologlar tomonidan ilmiy tadqiq etilishi kerak. Xususan mazkur g'orlarni murakkabligi darajasiga ko'ra tasniflash va har birini tavsiflash kerak.

Oltinchidan, respublikamizdan hamda xorijdan ekstremal turizm ishtiyoqmandlari uchun, umuman, barcha sayyohlar uchun tumandagi spelioturistik obyektlar haqida to'liq ma'lumot beruvchi elektron platformasini bir necha tillarda yaratish zarur. Har bir spelioturistik obyektlarga tashrif buyuruvchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish, ularga xizmat ko'rsatish infratuzulmasini yaratish, xususan, ularga mehmon uylarini talab darajasida jihozlash va tayyorlash zarur.

Yettinchidan, Andigon va Shalldiroq qishloqlarni turizm qishlog'iga aylantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.





Zero, tumanda turistik qishloqlarni tashkil etish, xorijiy va mahalliy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish, qishloq aholisini mehnat bilan bandligini ta'minlashga, ularning iqtisodiy farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // Xalq so'zi 2017 22 dekabr
2. Xatirchi tumani: kecha va bugun" (matn): ilmiy ommabop /X.Qurbonov (va boshq) –Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2021. - 182 b.
3. Xatirchi tarixidan lavhalar / Respublika ilmiy anjumani materiallari / Toshkent, «Zilol buloq» nashriyoti, 2022. - 336 b.
4. Bo'riyev O. Turon tarixining oltin davri. – Toshkent, 2019.– B.88.
5. Xudoyshukurov T. va boshqalar. Kasbiy etika va etiket. Darslik. – Toshkent.:Iqtisod-moliya, 2021 - B.41.

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHDA ISLOM FALSAFASINING AHAMIYATI

Ochilov Ulugbek Jumayevich

“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi ma'naviy, mafkuraviy va g'oyaviy kurash olib borishda islom falsafasi hamda yurtimiz mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini atroflicha tadqiq etish bugungi kun falsafa fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqolada diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash profilaktikasi jarayonida Islom dinidagi konstruktiv g'oyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *globalashuv, neofundamentalizm, fanatizm, diniy ekstremizm, terrorizm, destruktiv g'oya, G'arb tamadduni, Internet, zo'ravonlik mafkurasi, Islom dini, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, oyat, sura, jihod, konstruktiv g'oya.*

ЗНАЧЕНИЕ ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ В БОРЬБЕ С РЕЛИГИОЗНЫМ ЭКСТРЕМИЗМОМ И ТЕРРОРИЗМОМ

Очилов Улугбек Джумаевич

Старший преподаватель кафедры «Социально-гуманитарных наук»



Каршинского государственного технического университета

Аннотация: Всестороннее изучение исламской философии и просветительских взглядов мыслителей нашей страны в духовной, идеологической и мировоззренческой борьбе с религиозным экстремизмом и международным терроризмом является одной из важных задач, стоящих перед философией сегодня. В данной статье освещаются особенности использования конструктивных идей ислама в процессе профилактики борьбы с религиозным экстремизмом и терроризмом.

Ключевые слова: глобализация, неопундаментализм, фанатизм, религиозный экстремизм, терроризм, деструктивная идея, западная цивилизация, Интернет, идеология насилия, исламская религия, Священный Коран, Хадис Шариф, аят, сура, джихад, конструктивная идея.

THE IMPORTANCE OF ISLAMIC PHILOSOPHY IN THE FIGHT AGAINST RELIGIOUS EXTREMISM AND TERRORISM

Ochilov Ulugbek Jumayevich

Senior lecturer of the department of “Social Sciences and Humanities”
of Karshi State Technical University

Abstract: A comprehensive study of Islamic philosophy and the educational views of our country's thinkers in the spiritual, ideological and ideological struggle against religious extremism and international terrorism is one of the important tasks facing philosophy today. This article highlights the specific features of using constructive ideas from Islam in the process of preventing the fight against religious extremism and terrorism.

Keywords: globalization, neo-fundamentalism, fanaticism, religious extremism, terrorism, destructive idea, Western civilization, Internet, violent ideology, Islamic religion, Holy Quran, Hadith Sharif, verse, sura, jihad, constructive idea.

KIRISH:

Globalashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan bir sharoitda turli kuchlar va markazlar o'rtasida siyosiy, mafkuraviy kurash avj olmoqda hamda inson ongi, ma'naviyati uchun turli tahdid va xatarlar kuchaymoqda. Islom dinining ko'plab izdoshlari uchun G'arb tamaddunnidagi turmush tarzi uslubi, individuallik, oila institutining barbod bo'lib borayotganligi, voyaga yetmaganlar o'rtasida alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, korrupsiya, fohishabozlik, suitsid kabi zavolkor, ijtimoiy illatlarning avj olishi inson tabiati uchun destruktiv omil



ekanligini hisobga olish kerak. Ko'pchilik diniy aqidaparastlar, radikallar islom dinini ma'naviy tanazzulga yuz tutayotgan G'arb dunyosi uchun maqbul muqobil yo'l, "islomlashtirish"ni esa o'z yo'lini Yevropadan boshlab, Internet vositasida "transmilliy islomiy hamjamiyat"ga olib keladigan "neofundamentalizm"ga olib keluvchi yo'l, deb bilishadi. Mazkur holatda ularning rejalari, intilishlari birinchi navbatda, ijtimoiy borliqdagi yoshlar qatlamining ongiga hamda ruhiy-ma'naviy qiyofasini destruktivlashtirishga qaratilganligi tabiiy. Binobarin, yoshlarning milliy urf-odat, qadriyatlarga, haqiqiy islom dini qonun-qoidalariga befarq munosabatda bo'lishi, bila turib diniy ekstremizm va terrorizm yo'liga kirib ketish holatlari hozirgi vaqtda ham uchramoqda.

Ekstremizm va terrorizm mafkurasiga qarshi kurashishning asosiy maqsadi muayyan mamlakatda terrorchilik saflarini to'ldirish maqsadida beg'araz, sodda yoshlarni yollashga bo'lgan urinishlarga qarshi ijtimoiy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish, terrorchilarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy bazani qisqartirish, terrorizmni har qanday shiorlar va mafkuraviy nuqtai nazardan qat'iy qoralash maqsadida jamiyatda terrorizm va ekstremizmga qarshi ijtimoiy-ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishdir. Chunki ekstremizm va terrorizm mafkurasi destruktivlik, zo'ravonlik mafkurasi hisoblanib, oxir-oqibat har qanday ijtimoiy borliqni zalolatga boshlaydi.

Diniy fundamentalizm va fanatizm asosida shakllanib, terrorchilik usullarini qo'llayotgan islom niqobidagi turli tashkilotlar va harakatlarga qarshi samarali mafkuraviy kurash olib borish hamda ularning kurash usullarini destruktiv, g'ayriinsoniy mohiyatini fosh etishda ularning tarixiy va g'oyaviy ildizlarini aniqlash va ilmiy-falsafiy tahlil qilish muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayni damda islom niqobi ostidagi terrorizmga qarshi ma'naviy, mafkuraviy va g'oyaviy kurash olib borishda islom falsafasi hamda yurtimiz mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini atroflicha tadqiq etish bugungi kun falsafa fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ma'lumki, islom dini faqat o'ziga xos aqidalardan iborat bo'libgina qolmay, balki mazkur dinga e'tiqod qiluvchi xalqlarning ijtimoiy, huquqiy, g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy hayot tarzi haqidagi qonun-qoidalar, ko'rsatmalari, pand-nasihatlar majmuasidir. Shunday ekan, islom dini, uning qadriyatlari, Qur'oni Karim, Hadisi sharif, ijmo' va qiyos asosida ishlab chiqilgan shariat ahkomlari ko'p asrlar davomida musulmon xalqlari, jumladan o'zbek xalqining ham ijtimoiy, ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab kelgan.

O'rta asrlardan buyon o'zbek xalqi ijtimoiy-ma'naviy hayotida islom dini falsafasi va qadriyatlarining o'ziga xos muhim ahamiyatini ta'kidlab Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday yozadi: "Sharq falsafasining muhim bir qismi bo'lgan islom madaniyatining o'zbek xalqi ma'naviyati tarixida tutgan muhim



o'zni shundaki, u odamlarni axloqiy poklikka, ma'naviy barkamollikka undagan. Umuminsoniy va ma'naviy-axloqiy mezonlarga tayangan holda kishilarni hamjihatlikka, totuvlikka, adolatga, mehr-muruvvatga, saxovatga, sabr-bardoshlikka chaqirgan".[1]. Qayd etish joizki, islom falsafasida konstruktiv g'oyalar va axloqiy fazilatlariga da'vat nafaqat muslim-musulmonlarga nisbatan bo'lgan munosabatlardagina emas, balki boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda ham aks etgan.

ASOSIY QISM:

Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning ijtimoiy, huquqiy, axloqiy, g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy hayot tarzining bosh manbai hisoblangan Qur'oni Karimda insonlarning turli millat-elat, madaniyat va dinlarga mansubligi jihatidan tafovut mavjudligi tabiiy ekanligi, biroq bu holat ular o'rtasidagi kelishmovchilik, adovat-nizo va urushlar uchun sabab, asos bo'la olmasligi ta'kidlangan. Bu borada quyidagi oyatlarni keltirish maqsadga muvofiqdir: "(Avvalda) odamlar faqat bir millat (ya'ni, bir dinda) bo'lgan edilar. So'ngra bo'linib ketdilar".[2]. Ko'rinib turibdiki, insonlar turlicha dinga mansubligi bilan farq qilsada Olloh inoyati, irodasining namoyon bo'lishini nazarda tutgan holda, o'zga dinga e'tiqod qiluvchi insonlarga nisbatan begona mavjudotga bo'lgandek g'ayriaxloqiy, g'ayriinsoniy munosabatda bo'lish nojoizdir. Shu bois, butun insoniyatga, jumladan har bir inson zotiga nisbatan izzat-ikrom va hurmat ularga ham taalluqlidir. Muhim jihatlaridan biri shuki, Qur'oni Karimda butun insoniyatning bir ota-onadan yaratilganligi haqidagi oyatlar barcha elat, millat va xalqlarning hamkorlikda, hamjihatlikda yashashlariga, ahil va murosada bo'lishlariga muhim sabab ekanligi haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Bu borada Qur'onda shunday ta'kidlangan: "Ey insonlar, darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishinglar (do'st-birodar bo'linglar) uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila-elatlar qilib qo'ydik". [3].

Umuminsoniy ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu oyatlardagi g'oyalar, bir tomondan, turli diniy e'tiqoddagi elat va xalqlar o'rtasida ziddiyat, adovatni shakllantiruvchi diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi, ikkinchi tomondan, islom dini hamma vaqt boshqa dinga mansub xalqlarga nisbatan murosasiz, tajovuzkor munosabatda bo'lgan, deb uqtiruvchi ba'zi islom muxoliflarining da'volariga qarshi g'oyaviy kurashda o'ziga xos mafkuraviy ahamiyatga egadir. "Bunday da'volar o'tmishda ham, hozir ham faqat ayrim mafkuraviy va siyosiy g'arazlar nuqtai nazaridan o'rta tashlangani ma'lum", deb ta'kidlaydi falsafa fanlari doktori N. Safarova. [4].

Qur'onida oyatlarida insonlarning turli dinlarga e'tiqod qilishlari Ollohnin xohishi bilan amalga oshganligi tufayli ularni majburlab Islom diniga kiritish joiz emasligi haqidagi fikrlar ham mavjud. Shu jumladan, "Yunus" surasining 99-



oyatida shunday deyiladi: “Agar Parvardigoringiz xohlasa edi, butun Yer yuzidagi barcha kishilar iymon keltirgan bo‘lur edilar. Axir siz odamlarni mo‘min bo‘lishga majbur qilurmisiz ? ”[5]. Ushbudan ayonki, islomda zo‘rlab dinga kiritish mumkin emasligi, zero kishining o‘z ixtiyori bilan keltirgan iymonigina haqiqiy, maqbul iymon ekanligi haqida fikr yuritildi. Demakki, dinga da‘vat qilish jismoniy kuch ishlatish, ruhiy bosim o‘tkazish, majburlash, urush, qatl yo‘li bilan emas, balki avvalo, dono fikr-mulohazalar, pand-nasihatlar orqali amalga oshirish lozimligi haqida muqaddas kitob oyatlarida keltiriladi. Masalan, “Nahl” surasining 125-oyatida quyidagi satrlar bor: “(Ey Muhammad), Parvardigoringizning yo‘li – diniga donolik, hikmat va chiroyli pand-nasihat bilan da‘vat qiling! Ular (sizlar bilan talashib-tortishadigan kimsalar) bilan eng go‘zal yo‘lda mujodala-munozara qiling!”. [6]. Muhim jihatlardan biri shuki, islom dinining tinchliksevarlik, sulhparvarlik, insonparvarlik xususiyatlaridan dalolat beruvchi Qur‘on oyatlarida islomga da‘vat etish bosqichida bo‘lgan ayrim qiyinchiliklar, to‘siqlarga nisbatan ham sabrli, toqatli bo‘lish, ulardan qattiq ranjimaslikka chaqiriladi. Qur‘oni Karimda mo‘min musulmonlarning bir-birlari bilan birodarligi, hamkorligi va hamjihatligi faqat ezgulik hamda Oloh yo‘lida taqvo yo‘li bilan amalga oshirilishi zarurligi ta‘kidlanadi. Bu xususdagi oyatni “Moida” surasidan keltirish mumkin: “Yaxshilik va taqvo yo‘lida hamkorlik qilingiz, gunoh va haddan oshish yo‘lida hamkorlik qilmangiz”. [7].

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, islom boshqa din vakillariga nisbatan g‘animlik va murosasiz munosabatda bo‘ladi, ularga zulm qilish, halok qilishga, islom dini uchun g‘ayridinlarni qatl qilishga da‘vat etadi, degan mazmundagi islom muxoliflarining ham, go‘yoki haqiqiy islomni tiklash uchun musulmonlarni “jihad”ga da‘vat qiluvchi islom ekstremistik guruhlar hamda oqimlarining ham da‘vosi asossizdir, chunki Qur‘oni Karimning muayyan oyatlarida insonlarning millati va dinidan qat‘iy nazar, begunoh odamlarni qatl qilish qattiq qoralanadi. Nafaqat bir qavmga yoki xalqqa nisbatan urushni olib borish, balki bir begunoh odamni qatl qilish ham mavjud jamiyatga va insoniyatga nisbatan amalga oshirilgan dahshatli yovuzlik sifatida qoralanib, shunday deyiladi: “... kimki biron jonni o‘ldirmagan va yerda buzg‘unchilik qilib yurmagan odamni o‘ldirsa, demak, go‘yo barcha odamlarni o‘ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya‘ni o‘ldirishdan bosh tortsa), demak, go‘yo barcha odamlarga hayot beribdi”. [8]. Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur‘onda islomni qaror toptirish va uning g‘oyalarini himoya qilish qilish yo‘lida “jihad”, “g‘azot” olib borish haqidagi oyatlar ham mavjud. Shunisi muhimki, ushbu oyatlar destruktivlikka zid holda konstruktiv ruhda bo‘lib, muayyan shart-sharoitlar taqozosi bilan butun bir xalqqa yoxud bashariyatga nisbatan destruktivizmni ko‘zlamagan ruhdagi oyatlardir. Din uchun kurash, qaysi din bo‘lishidan qat‘iy nazar mazkur din ahkomlarining yovuz, e‘tiqodsiz odamlar



tomonidan vayron qilinishi, ibodatxonalarning buzilishi, iymon-e'tiqodlarning toptalishi kabi destruktiv aktlarga qarshi olib borilishi kerakligi Qur'onning "Haj" surasi 40-oyatida keltirilgandir: "Agar Olloh odamlarning ayrimlarini ayrimlari bilan daf' qilib turmas ekan, shubhasiz, Olloh nomi ko'p zikr qilinadigan (rohiblarning) uzlatgohlari, (nasroniylarning) butxonalari, (yahudiylarning) ibodatxonalari va (musulmonlarning) masjidleri vayron qilingan bo'lur edi.". [9]. Ushbu oyatdan shunday xulosa qilish mumkinki, bu masalada boshqa din ahllari musulmonlar bilan teng ma'naviy huquqa egadirlar.

Islom dinining aqidaviy, ijtimoiy, huquqiy, axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy qonun-qoidalari hamda ko'rsatmalarining Qur'ondan keyin ikkinchi asosi, muqaddas manbai hisoblanmish hadislarda ham turli din ahllari o'rtasida hamjihatlik va o'zaro hurmat, adovatga qarshi o'zaro ishonch va murosasozlikni targ'ib qiluvchi konstruktiv g'oyalar mavjuddir. Hadislarda rivoyat qilinishicha, sahobalar Payg'ambardan so'rabdilar: "Yo Rasululloh, kimni, qanday odamni musulmon deymiz?", Payg'ambarimiz aytdilar: "Birovga, (jonli va jonsiz bo'lsin) qo'li va tili bilan zarar yetkazmaydigan odamni musulmon deymiz". Yo Rasululloh, mo'min deb kimni aytamiz? – deb so'rashibdi yana sahobalar, shunda Rasululloh: "O'ziga nimani ravo ko'rsa, shuni boshqalarga ham ravo ko'radigan, o'ziga nimani ravo ko'rmasa, boshqalarga ham shuni ravo ko'rmaydigan odam mo'min odam deyiladi", -- degan ekanlar. [10] Qanday dinga, millatga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, insonning umriga zomin bo'lish eng katta gunoh, ya'ni oddiy insoniylik nuqtai nazaridan yovuzlik, xuquqiy nuqtai nazardan jinoyat hisoblanishi haqida qator hadislar mavjuddir. Jumladan, Abdulloh ibn Umar: "Qutulib bo'lmaydigan mushkul holatlardan biri – kishining nohaq qon to'kib qo'ygan holatidir!" – deytdilar. [11].

Boshqa dinlar kabi islom dininig vujudga kelishi, turli xalqlarga qabul qildirilishi tarixida muayyan ijtimoiy-siyosiy, harbiy sharoitlar va maqsadlar taqozosi bilan urushlar, nohaq qon to'kishlar bo'lganligini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, shuni e'tirof etish kerakki, bu kabi jangu-jadallar, qon to'kishlar nohaq bo'lmaganligiga ishonch hosil qilinsagina, mazkur xatti-harakatlar ma'naviy jihatdan qoralanmasligi haqida hadislar mavjuddir. Ushbu holatga quyidagi hadis misol bo'ladi: "Ibn Umar rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallollohu alayhi va sallam: "Nohaq qon to'kmagan mo'min o'z dinida doimo rohatlanib yurg'aydur", – dedilar". [12]. Mazkur hadis mazmunidan kelib chiqadiki, islom dini uchun g'azotga kirilgan muhorabada ham nohaq, adolatsiz qon to'kmaslikka harakat qilish zarur.

Barcha taraqqiyparvar mafkuraga xos bo'lgan, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlarga insonparvarlik, rahm-shafqat bilan munosabatda bo'lish g'oyalari islom dinida ham mavjuddir. Shu sabab, islom dinining muqaddas manbalarida keltirilgan "jihad", "g'azot" kabi masalalariga aniq bir vaziyat nuqtai nazaridan yondoshmoq lozim. Ta'kidlash joizki, islom dini paydo bo'lgan vaqtlarda jihad muayyan tarixiy



va siyosiy vaziyatlar shakllangan holatlarda da'vat etilgan hamda ayni damda aniq shartlar, holatlar, meyorlar va tamoyillar asosida olib borilgan. Binobarin, bu talablar turli tarixiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarda bir xil amal qilmasligi tabiiy. Muayyan vaqt o'tib, islom dinida jihod haqidagi g'oyalarga yangi mazmun kiritilgan. Islom dinining vujudga kelgan dastlabki davridan farqli o'laroq, endi "so'z jihodi", "ko'rish jihodi", "qalb jihodi" va islomga oid ma'naviyatning turli jihatlarini namoyon etuvchi "jihod"lar haqidagi g'oyalar shakllangan va ular o'rtasidagi farqlar tan olingan. Hozirgi davrdagi terrorchilar alqayotgan "qilich jihodi" ancha oxirgi o'ringa surib qo'yilgan.

Jihod tushunchasiga tegishli ishlab chiqilgan qoida, cheklash, taqiqlash, da'vat va meyorlarni qo'pol ravishda makkorlik bilan buzib, hozirgi davrda diniy ekstremistlar va terrorchilar g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun jihodni turli mamlakatlarda g'orat qiluvchi urushga aylantirishga harakat qilmoqdalar. Ko'p hollarda islom aqidaparastlari ekstremistik va terrorchilik nuqtai nazaridan "qilich jihodi"ni oldingi o'ringa qo'yib, jihodning Qur'oni Karim va hadislardagi tavsiflarini noto'g'ri talqin qilgan holda uni musulmonlarning zaruriy burchi, vazifasi sifatida e'tirof etishmoqda hamda islom ummatining ongiga singdirishga harakat qilishmoqda. Mazkur nuqtai nazardan, hozirgi zamon diniy ekstremizm va terrorizmning destruktiv xususiyatlariga qarshi kurashning turli samarali vositalaridan biri sifatida islomiy qadriyatlarning yuqorida e'tirof etilgan konstruktiv g'oyalaridan foydalanish ijobiy samara berishi aniqdir.

XULOSA:

Xulosa sifatida shuni e'tirof etish joizki, XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshidan bugungi kungacha dunyoning turli mintaqalarida amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlari har xil ijtimoiy, siyosiy, diniy mazmundagi balanparvoz shior va da'vatlar bilan niqoblangan bo'lmasin, ushbu destruktiv, jinoyatkorona harakatlar faqat ayrim insonlar, ijtimoiy toifa-qatlam yoxud ijtimoiy borliqqa nisbatan, balki butun bashariyatga nisbatan amalga oshirilgan qabohat, vayronkor jinoyat sifatida qoralanmog'i lozimdir. Islom dini falsafasida, Qur'oni Karimda xalqlarning turli dinlarga e'tiqod qilishi ular o'rtasida adovat, urush, bir-birlariga nisbatan g'animlik munosabatida bo'lish, zulm o'tkazish uchun sabab bo'la olmasligi, o'zaro hamjihatlikda yashash, hamkorlik qilish, hurmat-ehtiromda bo'lish haqidagi konstruktiv g'oyalar ko'pgina oyatlarda o'z ifodasini topgan. Muqaddas kitob bo'lmish Qur'oni Karimdan keltirilgan oyatlarning hozirgi murakkab globallashuv davrida diniy ekstremizm va terrorizm qarshi kurashda g'oyaviy-mafkuraviy hamda e'tiqod jihatdan ma'naviy ahamiyati ham shundadir. Shu bois Qur'oni Karimning ushbu oyatlarida bayon qilingan g'oyalardan diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning inson ma'naviy qiyofasiga destruktiv ta'siriga qarshi kurashda g'oyaviy hamda ma'naviy qurol sifatida foydalanish nihoyatda zarurdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T.: "O'zbekiston". 1997. 35-b.
2. Qur'oni Karim. Yunus surasi, 19-oyat. // Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – T.; "Cho'lpon". 1992. 138-b.
3. Qur'oni Karim. Hujurot surasi, 13-oyat. 392-b.
4. Safarova N. Terrorizm (Tarixiy-falsafiy tahlil). T.; "Noshir". 2009 123-b.
5. Qur'oni Karim. Yunus surasi, 99-oyat izohi. 145-b.
6. Qur'oni Karim. Nahl surasi, 125-oyat izohi. 194-b.
7. Qur'oni Karim. Moida surasi, 2-oyat. 73-b.
8. O'sha joyda. Qur'oni Karim. Moida surasi, 32-oyat. 76-b.
9. Qur'oni Karim. Haj surasi, 40-oyat. 240-b.
10. O'sha joyda. Hadis. IV jild.; –Toshkent. 1992. 315-b.
11. O'sha joyda. Hadis. IV jild.; –Toshkent. 1992. 315-b.

YANGI O'ZBEKISTONDA INSON MA'NAVIY TARBIYASI

Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich

Qarshi davlat texnika universiteti v.b. dotsenti

Annotatsiya: maqolada Yangi O'zbekiston ma'naviy makonida barkamol insonni tarbiyalash masalalari, uning tamoyillari va amaliy yondashuvlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ma'naviy yangilanish, milliy o'zlik, ma'naviy makon, barkamol inson.

ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Лутфуллаев Абдували Абдунабиевич

Исполняющий обязанности доцента Каршинского
государственного технического университета

Аннотация: В статье анализируются вопросы воспитания всесторонне развитой личности в духовном пространстве Нового Узбекистана, его принципы и практические подходы.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовное возрождение, национальная идентичность, духовное пространство, гармоничная личность.



SPIRITUAL EDUCATION OF HUMANS IN NEW UZBEKISTAN

Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich

Acting Associate Professor, Karshi State Technical University

Abstract: *The article analyzes the issues of raising a well-rounded person in the spiritual space of New Uzbekistan, its principles and practical approaches.*

Keywords: *New Uzbekistan, spiritual renewal, national identity, spiritual space, harmonious person.*

KIRISH:

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ma'naviy yangilanish va milliy o'zlikni tiklash g'oyasiga asoslanadi. Barkamol inson tarbiyasi bu jarayonning markaziy masalalaridan biri bo'lib, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Yangi O'zbekistonning poydevorini, avvalo, ma'naviy yetuk, bilimli va Ovatanparvar yoshlar tashkil etadi." Barkamol inson nafaqat bilimli va malakali shaxs, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida uyg'unlashtirgan komil shaxsdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tarbiyaning yoshlar hayotidagi o'rni va ularga zamonaviy yondashuvlar haqida O'zbekiston prezidenti Sh.M Mirziyoyevning asarlari[1,2], D.R Farsaxonova[4], Z. Ismailova[6], A.P. Erkeyevlar [5] ilmiy ishlarida keng yoritilgandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish tahlil qilindi va ma'naviy tarbiya va ma'naviy tarbiyaning baholash uchun ilmiy asoslangan indikatorlari haqida tavsiyalar keltirib o'tildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmiy va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o'sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib yetishishlariga undagan. Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan "Pandnoma", "Siyosatnoma", "Qobusnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi jaloliy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Nigoriston", "Bahr al-ulum", "Kachko'li sultoni", "Jovidoni xirad", "Bistu se hikmat", "Hikoyoti dilpisand", "Odob as-solihin", "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid



biror soʻz va tushunchani izohlab, keyin unga oʻquvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmunmundariyasi, ularda ilgari surilgan ilgʻor gʻoyalar bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Xitoy donishmandi Syun-Szi “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yigʻlashadi. Katta boʻlganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”, deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuil Kant oʻz asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson boʻladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi.

NATIJA

Yangi Oʻzbekistonning maʼnaviy tiklanish konsepsiyasida alohida oʻringa ega. Bu tushuncha jamiyatning axloqiy, estetik va intellektual rivojlanish jarayonlarini qamrab oladi. Maʼnaviy makon quyidagi omillarni oʻz ichiga oladi:

- Milliy qadriyatlar va urf-odatlar.
- Din va axloqiy tamoyillar.
- Ilm-fan va sanʼatga asoslangan madaniy meros.
- Oilaviy va ijtimoiy munosabatlar.

Maʼnaviy makonning shakllanishida taʼlim-tarbiya tizimi muhim rol oʻynaydi. Barkamol insonni shakllantirishda maktab va oliy taʼlim muassasalarida milliy gʻoyalarni singdirish, tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish ustuvor yoʻnalish sanaladi.

Barkamol inson – bu maʼnaviy va axloqiy jihatdan yetuk, intellektual salohiyati yuqori, jamiyat rivojlanishiga hissa qoʻshadigan shaxsdir. Oʻzbekistonning milliy maʼnaviy tiklanish konsepsiyasida barkamol insonning quyidagi fazilatlari ajratib koʻrsatiladi:

1. **Axloqiy yetuklik:** Halollik, adolatparvarlik, vijdonlilik.
2. **Vatanparvarlik:** Millat va Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat.
3. **Intellektual rivojlanish:** Bilim va texnologiyalarni egallash, ijodkorlik.
4. **Estetik did:** Goʻzallikni anglash va qadrlash qobiliyati.
5. **Ijtimoiy masʼuliyat:** Jamiyat manfaatlariga xizmat qilish intilishi.

Yangi Oʻzbekistonning maʼnaviy siyosati barkamol insonni tarbiyalashga yoʻnaltirilgan quyidagi asosiy yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

1. **Taʼlim tizimini rivojlantirish:**

Maktabgacha taʼlimdan boshlab, oliy taʼlim tizimigacha milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targʻib qilish.

Barkamol avlodni tarbiyalash uchun “Milliy dastur” loyihalarini amalga oshirish.

Taʼlimda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirish.





2. **Milliy qadriyatlarni tiklash:**

Milliy bayramlar va tarixiy sanalar orqali yoshlarni milliy o'zlikka hurmat ruhida tarbiyalash.

O'zbekistonning buyuk allomalari va mutafakkirlarining merosini o'rganish va targ'ib qilish (Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy).

3. **Oilaviy tarbiya:**

Oilani ma'naviy tarbiyaning asosiy o'chog'i sifatida mustahkamlash.

Ota-onalarni bolalar tarbiyasida faol ishtirok etishga jalb qilish.

"Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida oilalarga ko'mak berish.

4. **Zamonaviy ma'naviy muhitni yaratish:**

Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga mos kontentlar bilan tanishtirish.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali yoshlarni zararli ta'sirlardan himoya qilish.

Kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun milliy loyihalar tashkil etish ("Kitobxon oila" tanlovi, "Bir million kitob" aksiyasi).

Ma'naviy barkamollikni ta'minlashda ta'lim tizimining o'rnini alohida ahamiyatga ega. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilishi lozim:

1. **Ma'naviyat darslari:**

Milliy ma'naviyat va tarbiya bo'yicha darslar joriy etish.

Darslarni interaktiv shaklda tashkil qilish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish.

2. **Tarixiy bilimlarni oshirish:**

O'zbekistonning boy tarixi haqida chuqur bilim berish orqali yoshlarning milliy g'ururini shakllantirish.

3. **San'at va sport:**

Yoshlarni san'at va sportga jalb qilish orqali ularning ma'naviy va jismoniy barkamolligini ta'minlash.

4. **Ijodiy loyihalar:**

Yoshlarni ilmiy, texnik va madaniy loyihalarga jalb qilish orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining bir qator dasturlari yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan. Jumladan:

• **"Yoshlar – kelajagimiz" dasturi:** Yoshlarning ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun sharoit yaratish.

• **"Oila va ma'naviyat" loyihasi:** Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarni mustahkamlash.

• **"Ma'naviyat va ma'rifat" markazi faoliyati:** Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash.



XULOSA.

Yangi O'zbekistonning ma'naviy makonida barkamol inson tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Barkamol insonni shakllantirish uchun ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Bu jarayonda davlat, oila va jamiyatning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni ma'naviy barkamollikka yetkazish orqali Yangi O'zbekistonning milliy tiklanish va taraqqiyot yo'lidagi maqsadlariga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
2. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari (2017–2023).
4. Ma'naviyat va ma'rifat markazi hisobotlari, 2023.
5. UNESCO (2021). *Education for Sustainable Development Report*.
6. Alisher Navoiy asarlari va ularning ma'naviy merosi bo'yicha tadqiqotlar.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020.

MUMTOZ ASARLAR TILINING O'RGANILISH TARIXI

Dinara Islamova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti.

Navruza Fayzullayeva

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda mumtoz asarlar tilining o'rganilishiga doir ba'zi ilmiy izlanishlar yoritiladi. Ularning turkologiya va o'zbek tilshunosligidagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Rabg'uziy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Bobur asarlari til xususiyatlarining o'rganilishiga oid tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: til tarixi, mumtoz asarlar tili, fonetika, leksika, morfologiya, uslub.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА КЛАССИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Динара Исламова

Доцент Самаркандского государственного



университета им. Шарофа Рашидова Университет
Наврўза Файзуллаева
Магистрант Самаркандского государственного
университета им. Шарофа Рашидова Университет

Аннотация: В данной работе освещаются некоторые научные исследования по изучению языка классических произведений. Раскрываются их роль и значение в тюркологии и узбекском языкознании. Анализируются исследования по изучению языковых особенностей в произведениях Рабгузи, Саккоки, Атои, Лютфи, Бабура.

Ключевые слова: история языка, язык классических произведений, фонетика, лексика, морфология, стиль.

HISTORY OF THE STUDY OF THE LANGUAGE OF CLASSICAL WORKS

Dinara Islamova
Associate Professor at Sharof Rashidov
Samarkand State University
Navruza Fayzullayeva
Master's student at Sharof Rashidov
Samarkand State University

Abstract: This study highlights some scientific research on the study of the language of classical works. Their role and significance in Turkology and Uzbek linguistics are revealed. Studies on the study of the linguistic features of the works of Rabguzi, Sakkoki, Atoi, Lutfi, and Babur are analyzed.

Keywords: history of language, language of classical works, phonetics, lexis, morphology, style.

KIRISH:

Tilshunoslikda til tarixi, uning taraqqiyotiga oid bosqichlar, qadimgi yozma yodgorliklarni o'rganish va tahlil qilish hech qachon ahamiyatini yo'qotmaydigan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday tilning rivojida uning tarixida kechgan fonetik, leksik, grammatik jarayonlarning o'ziga xos o'rni bor. Bu jarayonlarni tadqiq etish ma'lum bir millat tarixiga, madaniyatiga, ma'naviyatiga oid qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Muayyan millat va jahon adabiyotida muhim o'rin tutadigan, eng sara, yetuk ijod namunalari mumtoz adabiyot nomi ostida birlashtiriladi. O'zbek adabiyoti ham ana shunday buyuk va



boy adabiy xazinaga ega. Mumtoz asarlarning qimmatini faqatgina uning badiiyligi bilan belgilanmasdan til xususiyatlari bilan ham baholanadi. Mumtoz asarlar matnini lingvistik aspektida tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar ijtimoiy masalalarni hal qilish, til va nutq, nutq madaniyatiga doir tushunchalarni o'zlashtirish, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichi xususiyatlarini o'rganishga doir qimmatli ma'lumotlar beradi.

O'zbek mumtoz adabiyotidagi ilk nasriy asarlardan biri bo'lgan "Qisasi Rabg'uziy" adabiyotimiz va tilshunosligimizning nodir xazinalaridan biri hisoblanadi. "Qisasi Rabg'uziy" o'zida o'rta turk davri til xususiyatlari va XII asr leksikasiga oid ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, maishiy, kasb-hunar atamalarini aks ettirishi bilan tilshunosligimizda muhim manba hisoblanadi. Asarni sintaksis, morfologik, leksik jihatdan jahon va o'zbek tilshunosligida S.Chagatay, S.E.Malov, Y.Shinkyevich, A.Abrayev, V.Dammelar, H.Dadaboyev, B.Abdushukurov kabi olimlarimiz tadqiq etishgan. Bu ishlar orasida B.Abdushukurov izlanishlari alohida ajralib turadi.

B.Abdushukurov "Qisasi Rabg'uziy" leksikasi" nomli tadqiqotida asar tilidagi leksik birliklarni alohida tadqiq etadi [2]. Tadqiqotda "Qisasi Rabg'uziy" asarining yaratilishi, nusxalari, o'rganilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Leksikasi statistikasi beriladi. Yodnoma tilida jami 5511 ta leksema qo'llanganligi, shundan 2943 tasi turkiy, 2155 tasi arabiy, 330 tasi forsiy qatlamga mansubligi, undan tashqari, asarda 6 ta xitoycha, 5 ta sanskritcha, 6 ta so'g'dcha so'z borligi qayd etiladi [2. 16]. Bu so'zlar ot, sifat, son, olmosh, fe'l ravish kabi mustaqil, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama singari yordamchi so'z turkumlariga va undov, modal kabi guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Yodnoma tilidan misollar keltiriladi. "Qisasi Rabg'uziy" tilidagi leksik birliklar antroponimlar, shaxs tushunchasini ifodalovchi so'zlar, inson va uning ta'na a'zolari nomlari, qavm-qarindoshlik, yaqinlik ma'nolarini anglatuvchi, musiqa asboblari va kuy bilan bog'liq, mavhum tushunchalarni ifodalovchi, ijtimoiy-siyosiy, savdo va pul munosabatalari bilan aloqador, diplomatik, harbiy, geografik obyekt tushunchasini ifodalovchi kabi 35 mavzuviy guruhga bo'lib tadqiq etiladi.

B.Abdushukurov o'z tadqiqotida "Qisasi Rabg'uziy" leksikasi doirasida kuzatilgan omonimlik, sinonimlik, antonimlik hodisasiga ham to'xtalib, ularni yuzaga keltiruvchi omillarni alohida qayd etadi. Omonim, sinonim, antonimlarning badiiy matndagi vazifasi, uslubiy jihatlarini yoritib beradi.

Turkologiya hamda til tarixida o'zbek adabiy tili tarixini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada yirik rus olimlari V.V.Radlov, S.Y.Malov, A.K.Borovkov, A.N.Kononov, N.A.Baskakov, A.M.Shcherbak kabilar bilan bir qatorda G'.Abdurahmonov, U.Tursunov, S.Mutallibov, E.Fozilov, A.Rustamov, Sh.Shukurov, B.O'rinboyev, A.Muxtorov, U.Sanaqulov singari o'zbek



tilshunoslarining hissalarini beqiyos. Ular orasida A.Muxtorov va U.Sanaqulovning ishlari alohida ajralib turadi. Ikki tilshunos hammuallifligida yaratilgan “O‘zbek adabiy tili tarixi” [6] tadqiqotida adabiy til va jonli so‘zlashuv tili, adabiy til uslublari, adabiy til va badiiy adabiyot tili, o‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish, turkiy tillar tasnifi, o‘zbek tili tarixini davrlashtirish, o‘zbek xalqi va o‘zbek xalq tilining tashkil topishi kabi masalalar aks etadi. “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit-turk”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Devoni hikmat”, “Qisasi Rabg‘uziy”, “O‘g‘uznoma”, “Tafsir”, “Xusrav va Shirin” singari asarlarning tili va uslubi masalalari, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy hamda Alisher Navoiy asarlari til xususiyatlari yoritiladi. “O‘zbek adabiy tili tarixi” da berilgan Atoiy va Sakkokiy asarlari tiliga xos jihatlar bir qadar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki XV asrda yashab ijod etgan, Navoiy nazariga tushgan shoirlar Atoiy hamda Sakkokiy hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar, afsuski, bizgacha juda oz miqdorda yetib kelgan. Tabiiy, ularning asarlari tili borasidagi izlanishlar o‘zbek tilshunosligida yetarli darajada emas. “O‘zbek adabiy tili tarixi” da Atoiy hamda Sakkokiy tili va uslubiga oid quyidagi ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega: “Atoiy o‘z g‘azallarida adabiy til va jonli xalq tilining turlicha badiiy-tasviriy vositalarini mohirlik bilan qo‘llash asosida sifatlashlar, mubolag‘a va o‘xshatishlar yaratadi. Uning asarlarida umumxalq tiliga xos quyma iboralar, xalq maqollari va hikmatli so‘zlar ko‘p uchraydi... Atoiy asarlarida eski turkiy adabiy tilga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar juda kam uchraydi. Ilik (qo‘l), uchmoq (jannat), bikin (kabi), cherik (askar), bilmam (bilmayman) kabi shakllar uchraydi. Ba’zan -duk affiksli sifat-dosh, qaratqich kelishigi shaklining kesim vazifasida kelishi kabilar ko‘zga tashlanadi.

Sakkokiy asarlari tilida shu davr o‘zbek tili uchun xos yangi shakllar bilan birga eski adabiy til unsurlari ham qo‘llangan. Fonetik jihatdan unlilar va undoshlar ohangdoshligi saqlangan: tuttuk, yozuqum, jong‘a kabi. Jo‘nalish kelishigining -a, -na shaklida kelishi uchraydi. Leksik jihatdan qamug‘ (hamma), tikin-tekin (gacha), bitik, bikin kabi so‘zlar ishlatilgan” [6. 105-107]. To‘g‘ri, bu ma’lumotlar Atoiy hamda Sakkokiy asarlari haqida to‘liq ma’lumot bera olmaydi. Ammo bu borada olib boriladigan keyingi ilmiy ishlar uchun asos vazifasini o‘taydi.

Navoiy ta’biri bilan aytganda “o‘z zamonasining malik ul-kalomi” bo‘lgan Lutfiy ijodi mumtoz adabiyotimizda alohida o‘rin tutadi. O‘z davrida Xuroson hamda Movarounnahrda yuz bergan juda ko‘p tarixiy voqealarning guvohi bo‘lgan zullisonayn shoir Lutfiyning butun faoliyati o‘zbek adabiyoti, o‘zbek adabiy tili rivojiga qaratilgan. E.Ahmadxo‘jayevning aniqlashicha, shoir qalamiga mansub mavjud she’rlarning umumiy miqdori 2775 bayt yoki 5550 misradan iborat. Ularning katta qismi (2086 bayt) g‘azal janrida yozilgan. Bizgacha shoirning XVI-XX asrlar mobaynida ko‘chirilgan turkiy devonining 33 qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan bo‘lib, ular Toshkent, Dushanbe, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sank-



Peterburg kutubxonalari qo'lyozma fondida saqlanadi. Garchi adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan Lutfiy ijodi ko'p bor o'rganilgan bo'lsa-da, shoir asarlari tili borasida alohida, yirik hajmli tadqiqot olib borilmagan. Izlanishlarimiz natijasida shu ayon bo'ldiki, Lutfiy asarlari tili xususiyatlari borasida faqatgina u ijod qilgan davr yuzasidan olib borilgan monografik xarakterdagi ishlarda umumiy ma'lumotlar ko'zga tashlanadi.

B.Bafojev "Navoiy asarlari leksikasi" monografiyasida Navoiygacha bo'lgan davrda turkiy tilda ijod qilgan shoirlar - Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy ijodidan 100 ta so'z tanlab olinib, forsiycha, arabcha, turkiycha so'zlar miqdori aniqlanganda Lutfiy ijodi bo'yicha quyidagicha statistikaga duch kelinadi: "Lutfiy g'azalidagi 100 ta so'zdan eski o'zbekchasi 71 ta, arabchasi 16 ta, fors-tojikchasi 9 ta bo'lib, yana fors-tojikcha+arabcha, arabcha+o'zbekcha tiplardan iborat. Takrorlar 20 ta bo'lib, eski o'zbekcha 17 ta, arabcha 2 ta va fors-tojikcha 1 tani tashkil qiladi" [3. 16]. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, Lutfiy asarlari leksikasi statistikasi bo'yicha qisman bo'lsa-da izlanish olib borilgan.

Lutfiy asarlari tili bo'yicha yana bir tadqiqot X.Doniyorovga tegishli bo'lib, "Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari" asarida o'z ifodasini topadi. Tilshunos unda Lutfiy ijodidagi qipchoq dialektlari elementlarining qo'llanilishini yoritib beradi. Tadqiqotda Lutfiy g'azallaridagi qipchoq dialekti elementlaridan namunalar keltirilib, ularning nisbati Navoiy asarlari tarikibidagidan ko'pligi qayd etiladi [4. 49].

Lutfiy ijodidagi til birliklarining fonetik, morfologik, sintaktik jihatlari G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov hammuallifligida yaratilgan "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" darsligida aks etadi [1. 528]. Darslikda fonetik, morfologik, sintaktik nazariy ma'lumotlar berilganidan so'ng Lutfiy asarlaridan misollar keltiriladi.

A.Muxtorov va U.Sanaqulovlar "O'zbek adabiy tili tarixi" tadqiqotida Lutfiy ijodi til xususiyatlariga to'xtalib, quyidagilarni bayon etadi: "Shu davr tili uchun xos unli va undoshlar uyg'unligi saqlangan: ayoqingg'a, boshingg'a, yuzungnung orzusi kabilar. Leksik jihatdan: asru, usruk, o'ram, dudog', yozuq, ayru kabi so'z va shakllar uchraydi. G'arbiy turkiy tiliga xos jo'nalish kelishigining -a, -na shaklida, qaratqich kelishigining -ing tarzida qo'llanilishi va uning kesim shaklida kelishi kuzatiladi" [6. 109-110].

Sharq mumtoz adabiyotida Alisher Navoiydan so'ng turkiy tilda barakali ijod qilgan, ham adabiyotshunosligimiz, ham tilshunosligimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan yirik so'z san'atkorlaridan biri, shubhasiz, Zahiriddin Muhammad Boburdir. Zahiriddin Bobur asarlari tiliga bag'ishlab bir nechta tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, B.Bafojev "Bobur she'riyati leksikasi" nomli maqola yozgan. X.Nazarov "Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug'at",



F.Is'hoqov "Boburnoma" uchun qisqacha izohli lug'at'ni yaratgan. "Boburnoma"dagi hindcha so'zlarni ma'lum darajada pokistonlik olimlar Hofiz Sheroniy va Muhammad Sobir o'rganishgan. Bobur asarlari til xususiyati bo'yicha olib borilgan yirik tadqiqot sifatida tilshunos olim A.Ibragimovning filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun "Bobur asarlari leksikasining lingvostatistik, semantik va genetik tadqiqi" mavzusida yozilgan 582 betlik dissertatsiyani ko'rsatishimiz mumkin. Dissertatsiyada ilk bor Bobur asarlaridagi turkiycha, arabcha, forsha, hindcha leksika kompleks ravishda tadqiq etildi. Bobur asarlarida hammasi bo'lib 14784 ta so'z shakl ishlatilganligi aniqlandi. Ular orasidan 100 ta eng yuqori chastotaga ega so'z ajratilib, ulardan 29 tasi arabcha, 14 tasi forsha, 57 tasi turkiycha ekanligi ma'lum qilindi. "Volidiya" risolasi va "Takmila" leksikasi birinchi marta o'rganildi. Eski o'zbek tilidagi hindcha so'zlarning manbayi aniqlandi. Hindcha so'zlar mavzusiga ko'ra zoonimlar, fitonimlar, o'lchov atamaları, xronimlar, turli atamalar, antroponimlar va toponimlar singari 7 ta guruhga bo'lib o'rganildi. Ishning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, unda nafaqat Bobur asarlari leksikasiga, balki bu leksik birliklarning imlosiga ham alohida e'tibor qaratildi [5]

Fikrimizni umumlashtirganda, jahon hamda o'zbek tilshunosligi, turkologiyasida mumtoz asarlar tilining o'rganilishi borasida juda ko'p ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu boradagi izlanishlar tilimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi va bu jarayon hali uzoq muddat davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 528
2. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasi. – T.: Fan, 1983. – 157 b.
3. Doniyorov X. Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari. – T., 1976. – 140 b.
4. Ibragimov A. Bobur asarlari leksikasining lingvostatik, semantik va genetik tadqiqi. Filolo.fan.dok...dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2008. – 44 b.
5. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 161 b.





OLMOSH SO‘Z TURKUMINING NUTQIY AKTLARNI HOSIL QILISHDAGI O‘RNI

Yusupova Orziboni Sunnatovna

filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada olmoshlarning pragmasemantik xususiyatlari, diskurs jarayonida faol qo‘llanadigan olmoshlar, implitsit va eksplitsitlikda olmoshlarning o‘rni, adresant va adresat faoliyatida olmoshlarning qo‘llanilish darajasi o‘rganilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada nutqda olmoshlarning turli ma‘no ottenkalarini hosil qilishdagi o‘rni, nutqiy akt turlari: maslahat, tanbeh, maqto‘v, xushomad, maqtanish kabi aktlarda olmoshlar ishtiroki misollar bilan izohlab berilgan.

Kalit so‘zlar: olmosh, lingvopragmatika, nutqiy kommunikatsiya, nutqiy akt turlari, kishilik, ko‘rsatish va o‘zlik olmoshlari.

РОЛЬ МЕСТОИМЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Юсупова Орзибони Суннатовна

Доцент, кандидат филологических наук,
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Аннотация: В данной статье исследуются прагмасемантические особенности местоимений, активно используемые в дискурсивном процессе местоимения, роль местоимений в имплицитности и эксплицитности, а также степень употребления местоимений в деятельности адресанта и адресата. Кроме того, в этой статье рассматривается роль местоимений в создании различных смысловых оттенков в речи, а также иллюстрируется примерами участие местоимений в таких типах речевых актов: совет, упрек, похвала, лесть, хвастовство.

Ключевые слова: местоимение, лингвопрагматика, речевая коммуникация, типы речевых актов, личные, указательные и возвратные местоимения.

THE ROLE OF THE PRONOUN CLASS IN THE FORMATION OF SPEECH ACTS

Yusupova Orziboni Sunnatovna



Associate Professor, Candidate of Philological Sciences,
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract: *This article studies the pragmatic semantic properties of pronouns, pronouns actively used in the discourse process, the role of pronouns in implicit and explicitness, the level of use of pronouns in the activities of the addressee and the addressee. In addition, this article explains the role of pronouns in the formation of various shades of meaning in speech, the participation of pronouns in such speech acts as advice, reprimand, praise, flattery, and boasting with examples.*

Keywords: *pronoun, linguopragmatics, speech communication, types of speech acts, personal, demonstrative, and possessive pronouns.*

KIRISH:

Mustaqil soʻz turkumlari, soʻz birikmasi va gap oʻrnida kela oladigan olmosh soʻz turkumi nutqiy jarayonda juda faol sanaladi. Chunki olmoshlar nutq jarayonida, matn, abzas, oʻzidan oldingi yoki keyingi gap orqali maʼlum maʼnoga, oʻz semantikasiga ega boʻladi. Shu sababli, A.G.Yeliseyeva va O.N.Seliverstovalar olmoshlar semantik jihatdan eng jumboq soʻzlar toifasiga kirishini qayd etishgan [Yeliseeva A.G., Seliverstova O.N., 1987: 79]. Olmoshlarning maʼnosi nutq vaziyatida aniqlashishi, kontekstga bogʻliq holda namoyon boʻlishi sababli bu turkumga kiruvchi soʻzlarning maʼno xususiyatlari pragmasemantik belgi sifatida oʻrganilishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada Sh.Safarov oʻzining “Semantika” asarida maʼlum fikrlarni bildirib oʻtgan boʻlsa, M.Hakimov va M.Gaziyevalar ushbu fikrlarni quvvatlagan holda, olmosh turkumiga kiruvchi soʻzlarning ayrim pragmasemantik belgilarini tadqiq etadi. M.Hakimov va M.Gaziyevalar olmoshlarga xos bunday xususiyatlarni oʻrganish pragmalingvistik tadqiqotlarga boʻlgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi deydi [Safarov Sh., 2013: 195; Hakimov M., Gaziyeva M., 2020:60].

Olmoshlar deytik belgi hisoblanishi bilan ham lingvopragmatikaning obyekti sanaladi. Olmoshlarning emplitit va eksplitsit xususiyatlari, ularning nutqiy akt (illokutiv, lokutiv, perlokutiv) turlarini hosil qilishdagi oʻrni ham bu soʻz turkumini lingvopragmatik imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. M.I.Alexinaning “Nutqiy kommunikatsiya aktidan tashqaridagi olmoshlar umumlashtiruvchi maʼnodagi soʻzlar hisoblanadi. Nutqiy aktda esa ular aniq mazmun bilan boyiydi”, – degan fikri yuqoridagi fikrni yanada toʻldiradi. M.I.Alexina nutqiy aktda olmoshlar maʼnosini aniqlashtirish katta kuch talab qilishini aytadi [Alexina M.I., 1982: 63-68]. Haqiqatan ham, soni nuqtayi nazaridan unchalik koʻp boʻlmagan olmoshlar nutq jarayonida shu qadar faolki, ularsiz nutqni shakllantirish, fikrni toʻliq ifodalashni tasavvur qilib boʻlmaydi. Birgina I shaxs kishilik olmoshini olaylik. Bu olmosh



lisoniy shaxsni ifodalovchi vositadir. Inson “so‘zlovchi shaxs” sifatida voqelik bilan o‘zaro munosabatga kirishar ekan, turli voqea-hodisa, harakat-holat va predmetlarning belgi-xususiyatlarini anglash va aniqlash bilan chegaralanib qolmaydi, balki ularni o‘zining jamiyatda egallab turgan mavqeyi, ehtiyojlari, o‘z kommunikativ maqsadi va nutqiy sharoitdan kelib chiqib baholaydi. Bunda u jamiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan qoida va mezonlarga tayanadi. U obyektiv olamda yuz beruvchi turli voqea-hodisalar, harakatlardan ma’lum darajada ta’sirlanadi va o‘z navbatida ularga munosabat ham bildiradi. Tilshunos olim Sh.Safarov nutqiy muloqotda inson omili muhim ekanligini ta’kidlab, “Nutqiy muloqotda inson faktori muhim rol o‘ynaydi va bu faktor muloqot faoliyatini rejalashtirish, uni voqelantirish, uning strategiyasini amalga oshirish kabi amallarini boshqaruvchi ko‘rsatkichlardan biridir” [Safarov Sh., 2008:153], degan xulosaga keladi. Nutq faoliyatida shaxsning tutgan o‘rni haqida bahs yurituvchi bu fanlar doirasida inson omilining turlicha nomlanishi tufayli tadqiqotlarda “lisoniy shaxs”, “kommunikativ shaxs”, “so‘zlovchi shaxs”, “til shaxsi” kabi atamalar faol qo‘llanilmoqda. Dialogik nutqda gap so‘zlovchining o‘zi haqida yoki o‘zining qarashlari xususida bo‘lsa, albatta, I shaxs kishilik olmoshi qatnashadi: *mening o‘ylashimcha, mening bilishimcha, menimcha, mening fikrim va hk.* Yoki so‘zlovchi o‘z maqsadini bayon qilishdan oldin ham bu olmoshdan foydalanadi: *Siz shu yerlikmisiz? — dedi onam bir mahal. Sho‘tlikmiz, — sartarosh ishini davom ettirarkan, onamga burilib qaradi. — Nimaydi? Men bir xayrli yumush bilan keluvdim, — dedi oyim osoyishta ohangda. — Odilxo‘ja deganni taniysizmi? Ayollari chevar ekan. Muborak chevar* (O‘. Hoshimov. “Dunyoning ishlari”, 26).

Bundan tashqari, monologik nutqda bu olmosh ta’kid, emotsiyani oshirish, o‘z iqrori yoki o‘z g‘ururini ifodalash uchun zaruriy birlik sifatida qo‘llaniladi: T.Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asarida Botir firqa tilidan monologlar ko‘p qo‘llangan. U o‘z qilgan ishlarini o‘ylaydi, keksaygan paytida boshqalarning unga bo‘lgan munosabatidan ranjiydi, jamiyatdagi o‘zgarishlarni o‘z qarashlari doirasida ifodalaydi: *Men uchun mehnat sharaf bo‘ldi. Men uchun mehnat g‘urur ham faxr bo‘ldi. Men hayotni mehnat deb bildim. Men yashashni mehnat deb bildim.*

Ba’zan monologik nutqda *men* o‘rnida *sen* olmoshi qo‘llanishi ham mumkin. Bunda ta’sir effekti boshqacha bo‘ladi, ya’ni modallik ortadi: *O‘zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxlab yotganida sen suv sepib yo‘lka supurishing... Nima desam ekan... Sal alam qiladi kishiga. Shundanmi, vaqti-vaqti bilan “shaytonlik” qilaman. Goh boshim og‘rib qoladi, goh oyog‘im... Oyim negadir ko‘proq meni avaylaydi* (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”, 5).

Dialoglarda I shaxs va II shaxs kishilik olmoshi yashirin implikativ tarzda bo‘lishi ham mumkin. Masalan, turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida lokutiv aktda so‘zlovchi, tinglovchi aniq ifodalanmasdan, bu vazifani fe‘l, aniqlig‘i



fe'ldagi shaxs-son qo'shimchasi oladi. Masalan, nutqiy aktlar faol ko'rinadigan diaologik nutqda so'zlovchi va tinglovchi muloqoti bo'lgani bois (dialogda so'zlovchi va tinglovchi o'rni almashinib turadi) ko'pincha I shaxs va II shaxs kishilik olmoshi implikativ tarzda bo'ladi. Biroq anglashilib turadi. –Yaxshimisiz? – Sog'liklaringiz yaxshimi? –Yaxshiman, o'zingiz yaxshimi? –Ishdan kelyapsizmi? Ishlar bilan charchamayapsizmi? Agar bu olmoshlar dialogik nutqda qo'llanilsa, ta'kid, hurmat, kesatiq, kinoya kabi illokutiv akt vazifasini bajarishi mumkin: *Men o'zim sizni kuzatib qo'yaman*. Badiiy matnlarda ham *men* olmoshi o'ziga xos ta'kid vazifasini bajarishi mumkin. Bunday hollarda ko'pincha o'zlik olmoshi bilan yonma-yon keladi. *Manzil qayda? So'ramagin? / Yo'qotdim men o'zimni. Siz bilan bu kecha tortishga afg'on/ Men o'zim yarayman, Faqat bir o'zim!* (U.Azim) Quyidagi gapda harakat bajaruvchisi aniq bo'lsa-da, kishilik va o'zlik olmoshi nutq jarayonida qatnashishi zarur. Chunki bu olmoshlar so'zlovchining o'sha paytdagi kechinmalarini ifodalash uchun qo'llaniladi. *Men o'zimning kimligimni sizga aytib berdim. Ammo siz o'zingizning kimligingizni aytib bermadingiz. O'zim bilib oldim. - Bilishingiz shuncha zarurmidi? - dedi Zebixon uning ko'zlariga tikilib. Nizomjon yana yelka qisib qo'ydi. -Bola bo'lib birovlarining taqdiriga qiziqmagan edim. Bilmadim, o'lay agar, nima uchun sizga, kimligingizga qiziqib qolganimni o'zim ham bilmayman. Nizomjon biroz o'ylab turib yana dedi. –Meni kechiring, endi qiziqmayman* (S.Ahmad. “Ufq”, 362). Mazkur gapdagi *Men o'zimning kimligimni sizga aytib berdim. Ammo siz o'zingizning kimligingizni aytib bermadingiz. O'zim bilib oldim* gaplaridagi *men, o'zim* olmoshlari tushib qolib, kimligimni sizga aytib berdim, deb so'zlovchi aytsa, bu so'zlovchining shunchaki xabar mazmunida gapirganidan dalolat beradi. So'zlovchining maqsadi esa shunchaki xabar emas, uning bu gaplarni aytayotgan paytdagi vaziyati, holati butunlash boshqacha, ya'ni ko'ngil qo'ygani – Zebining unga ishonmayotganligi uni asabiylashtiradi va beixtiyor keskin ohangda gapiradi. Gapdagi qat'iylik, keskinlikni oshirishda *men, o'zim* olmoshlarining o'rni katta. Bundan tashqari mikromatndagi qat'iylikni *men, o'zim* so'zlaridagi intonatsiya va to'xtam ham oshiradi. Nizomning Zebixon bilan yuqoridagi suhbatini to'liq o'qigan odam Nizomjonning *men, o'zim* olmoshlarini kuchli ohang bilan talaffuz qilganini anglaydi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, olmosh nutqiy faoliyatda keng qo'llangani bois, ham ochiq, ham yashirin ma'noda kelishi mumkin. Bundan tashqari ular turli illokutiv vazifalarni o'zida aks ettirib keladi. Shu sababli ham nutqiy aktda olmoshlar ma'nosini aniqlashtirish tadqiqotchidan katta kuch talab qiladi. Shunday bo'lsa-da, mavzudan kelib chiqqan holda nutqiy akt turlarining ayrimlarida olmoshlarning pragmatik jihatlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Inson hayotida salomlashish va xayrlashish jarayoni doimiy jarayon sanaladi. Muloqotning boshlanishi barcha xalqlarda salomlashish va hol-ahvol so'rashishdan



boshlanadi, faqat salomlashish usullari va ahvol so‘rash tarzi har xil bo‘ladi. Shunindek, salomlashmoq va ko‘rishmoq so‘zlovchi va tinglovchi (tinglovchilar) o‘rtasida shunchaki dialogik jarayongina bo‘lib qolmay, balki asrlar mobaynida tarkib topgan kishilarning o‘zaro aloqalaridagi tamoyillarini, axloqiy qiyoslaridagi me‘yorlarni ifodalaydigan murakkab psixologik jarayondir. Bu jarayonda assalomu-alaykum, salom, xayrli kun, xayrli tong, xayrli kech kabi nutqiy odat undovlari qatnashishi faol sanalib, kundalik hol-ahvol so‘rashda yoki yig‘in, to‘y-hasham, ma‘rakalarda kishilik olmoshlari I shaxs va II shaxs kishilik olmoshi lokutiv akt vazifasida faol qatnashadi. *Siz yaxshimi? Sog‘liklaringiz yaxshimi? Bolalar omonmi? Men kecha sizni eslagan edim.* O‘zlik olmoshining II shaxs egalik qo‘shimchasini olgan o‘zingiz shakli so‘rashishda ta’kid vazifasida keng qo‘llanadi. *Ota-onangiz, aka-ukalaringiz, opalaringiz yaxshimi? O‘zingiz sog‘-salomat yuribsizmi? Ishlaringiz zo‘rmi?* O‘zlik olmoshi hurmat yoki xushomad ma‘nosida tinglovchiga, ba‘zan nutq jarayonida ishtirok etmayotgan, ammo nutq subyektiga aylangan shaxs o‘rnida qo‘llanilib, illokutiv akt vazifasini bajaradi: *Endi, mana shu kasalxona rayonimiz territoriyasida ekanidanmi yo sizni qo‘llab-quvvatlashimni bilganidanmi, o‘rtoq Rajabov meni jo‘natdi. Shaxsan o‘zlari jo‘natdi!..* (T.Murod. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”).

Muloqotning tanishish, tanishtirish bosqichida men, siz olmoshlari nutqni boshlash uchun zaruriy o‘rin tutadi. *Sizning ismingiz nima? Mening ismim Salima. Siz bilan tanishganimdan xursandman. Men ham.* Boshqa bir kishini tanishtirishda ham olmoshlar faol. Faqat bunda ko‘rsatish olmoshi ot bilan birga keladi: Bu kishi Baxtiyor akam...

Bu kishi birikmasi tanishtirishdagina emas, balki so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifoda etish uchun ham qo‘llanilishi mumkin: *Qog‘ozga qaramasdan gapirsa, otini aytolmaydi-yu, tag‘in bu kishi marshal emish!* (O‘. Hoshimov).

Xayrlashuv akti ham turlicha kechadi. O‘zbek muloqot xulqida yaxshi boring, sog‘ bo‘ling, salomat bo‘ling, xayr, ko‘rishguncha, yaxshi dam oling, xayrli tun kabi qator nutqiy odat undovlari qo‘llaniladi. Mana shu nutqiy odat undovlari ikkinchi shaxsga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek xalqi nutqida ikkinchi shaxs kishilik olmoshi o‘rnida qo‘llaniladigan hurmat ma‘nosidagi siz (II shaxs ko‘plik) kishilik olmoshi implitsit tarzda mavjud.

Baholovchi diskurs munosabatlar orasida maslahat nutqiy akti o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ajralib turadi. Maslahat biror ishni qanday qilish yoki umuman nima qilish kerakligi haqida yo‘l-yo‘riq tarzidagi fikr, mulohaza; tavsiya, taklif tarzidagi gap; kengash, fikr olishish kabi ma‘nolarni ifodalaydi [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, 2006: 551]. Maslahat nutqiy akti asosida so‘zlovchining tinglovchini ma‘lum bir faoliyat, ishni bajarishga undovchi harakati yotadi. U har doim ijobiy baho va modallikka ega bo‘ladi. So‘zlovchi o‘z mulohazalarini bayon



qilishda, tinglovchini ma'lum harakatni bajarishga undashida o'zi mansub bo'lgan jamiyatning umumiy odob-axloq qoidalariga tayanadi va o'z harakatining yaxshi natija berishini ko'zda tutadi. Shu sababli *menimcha, mening fikrimcha, mening o'ylashimcha, mendan so'rasangiz* kabi kiritmalar faol qo'llaniladi: *O'g'lim, san onangning gapiga achchig'lanma. Ul har narsa desa faqat Marg'ilondan uylanganingga qarshilig'idan aytadir. Ammo mendan so'rasang, Marg'ilondag'i na qudamiz va na kelinimizni hech bir vajah bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo'lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli o'g'lim, deyman. Saning tinib-tinchishing, o'sib-unishing uchun quvonmag'an ota-ona sog'qa hisoblanmaydir. San bunga yaxshi ishon* (A.Qodiriy. "O'tgan kunlar", 76).

Nutqiy aktlardan biri tanbeh nutqiy akti so'zlovchi yoki adresatning nutq vaziyatidagi holati, his-tuyg'ularini ifodalash imkoniyatiga boyligi bilan ajralib turadi. Tanbeh tinglovchiga nisbatan nisbatan ma'qul topmaslik, ayblash, koyish, ogohlantirish, haqorat, urishib qo'ymoq va kamchilik, xato kabilarni qayd etuvchi gap-so'z, fikr mulohazalar kabi salbiy baho ma'nolarini ifodalaydi [O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild, 2006: 660]. Yengil koyish ma'nosini ifodalashda, o'sha yengillikni hosil qilishda kishilik olmoshlari ishtirok etadi: O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridan olingan ushbu dialogda *sen olmoshiga -daqa* qo'shimchasi qo'shilib, shu vazifani bajarmoqda: – *Xolposh xola: Qizing qani, Popuk qani? – Fotima kelin: Hozir sho'ttaydi. Yurgandir. –Xolposh xola: Man so'roqlamasam, o'zingni esinggayam kelmaydi-ya. Sendaqa onani mushuk yesin!* Tinglovchining ma'lum bir fikri, harakatini ma'qul topmaslik, ma'qullamaslik ma'nosida so'zlovchi o'zining shaxsini ta'kidlab ko'rsatadi, shunday vaziyatda I shaxs kishilik olmoshi qatnashadi: *O'zbek oyim haligi kashfiyotdan qutilib bu to'g'rida so'ng'i qarorini ham berib bo'lg'ach, Otabekka dedi: - O'g'lim ... yangi uylangan oting bor. Manim oldimda o'lturib nima qilasan? Bechora yolg'iz o'lturibdir* (A.Qodiriy "O'tgan kunlar", 89).

Maqto'v va xushomad ma'nosini ifodalashda ham ikkinchi shaxs *sen* kishilik olmoshi o'rnida hurmat ma'nosida qo'llaniladigan *siz* va *o'zingiz* kishilik olmoshlari faol ishlatiladi: *O'zlari ham zap sekretar edilar-da, a, bek aka!..* (A.Qahhor).

Maqto'v nutqiy aktini hosil qilishda *shunday, shundoq, shuncha, bunday, mana shunday* kabi ko'rsatish olmoshlari ishtirok etadi: *Bizning Marg'ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg'an ekanmiz-da, — deb tevaragiga qarab kulindi va qo'lini duog'a ochdi. — Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliqlaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin.* (A.Qodiriy. "O'tgan kunlar", 180). Yusufbek hoji Kumushga qarata aytilgan ushbu gaplarini hazilomuz, samimiy so'zlar bilan boshlagan. Chunki Yusufbek hojining kommunikativ maqsadi bor. Bu – o'rtadagi xijolatni yo'qotish, Kumushdagi hadikni kamaytirish, oila Kumushni ham o'z a'zosi deb bilishini anglatishdir. Mana shu kommunikativ maqsadni



ifodalashda kishilik va ko'rsatish olmoshi qo'l kelgan. Bundan tashqari ko'rsatish olmoshi maqtov, e'tirof kabi ma'no ottenkalarini o'zida tashigan. Xuddi shunday mazmun O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida ham bor. Ya'ni qissa qahramoni o'gay qizini uyiga borib, uni otasi bilan yarashtirib, qizini qo'shnilariga tanishtirayotganda qizini shunday maqtaydi: *Voy, o'rgilay sizlardan, shunday qizim bor ekan-u, men ahmoq bilmay yurganimni qarang!* (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari", 128). Bu jumalarda ham shunday so'zi maqtov aktida asosiy vositalardan biri bo'lib turibdi. Maqtanchoqlik – o'zini o'zini maqtash, maqtanishni yaxshi ko'rishdir [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, 2006: 570]. Maqtanchoqlik nutqiy aktida subyekt kommunikativ maqsadi adresat oldida o'zining mavqeini baland ko'tarish, o'zini boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatish hisoblanadi. Maqtanchoqlik nutqiy akti so'zlovchining o'zini ijobiy baholashi asosida yuzaga keladi. Maqtanchoqlik nutqiy aktini voqelantirishda I shaxs kishilik olmoshi *men* va ba'zan bu olmosh vazifasida keladigan *biz* olmoshi faol qo'llaniladi: *Eshitdik, o'zim o'rgilay, — dedi pakana xotin,— tag-zotli odamlar ekansiz. Bolalar katta bo'lgandan keyin ota-ona zimmasidagi qarzini uzgisi kelib qolarkan. Bizning o'g'limiz ham yaxshi, mo'min-qobil yigit. Muallim...* (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari", 23).

Men olmoshi maqtanchoqlikni ochib beruvchi so'z. Bu olmosh ularning nutqida ko'p ishlatiladi va alohida ohang bilan talaffuz qilinadi. Shu sababli maqtanchoqlarga nisbatan "manman" so'zi ishlatiladi. Ular haqida o'zgalar tomonidan quyidagi fikrlar ham aytilishi mumkin: *"Man undoq qiladurman, man bundoq qiladurman", deb maqtangani-maqtangan.* Haqiqatan ham so'zlovchi o'z qilgan ishini boshqalarga maqttagisi kelganda, albatta, o'zini ta'kidlab ko'rsatish uchun *men* olmoshidan foydalanishga zarurat sezadi. Bu olmoshsiz maqtanish akti so'zlovchi o'ylaganidek chiqmaydi. Shu sababdan yozuvchlar ham qahramondagi maqtanish, gerdayish, g'ururlanish holatini ifodalash uchun I shaxs kishilik olmoshining bu imkoniyatidan foydalanadi: *Qo'shchi ikki qo'lini ko'ksiga qo'ydi. Ko'kragini olg'a shishirdi. — Mana shu... men-a? — dedi. — Mana shu men! Aytinglar, qani, mana shu men kimman? Dehqonlar tag'in bir-biroviga qaradi.— Ha, shu siz, shu siz! — dedi. ... Qo'shchi ko'kragiga kaft qo'ydi. — Men! — deya ko'krak urdi. — Mana shu men, Botir firqaman, Botir firqa! Dehqonlar o'zaro qarashib-qarashib oldi* (T.Murod. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi").

Xullas, yuqorida biz o'rgangan nutqiy aktlarda kishilik, ko'rsatish, o'zlik, so'roq olmoshlari boshqa turdagi olmoshlarga qaraganda faol va bu turdagi olmoshlar pragmatik jihatdan, baho munosabatini ifodalash nuqtayi nazaridan, illokutiv akti vujudga keltirishda o'ziga xos o'ringa ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. Алехина М.И. О классификации местоимений // Русский язык в школе. – Москва, 1982. №1. –С.63-68.
2. Ahmad Said. Ufq. –Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2016. –640 b.
3. Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. www. zyouz.com kutubxonasi.
4. Елисеева А.Г., Селиверстова О.Н. Семантическая структура местоименного значения// Вопросы языкознания. – Москва, 1987. -№1. – С.79.
5. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: "Classic", 2020. –B.475.
6. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. www. zyouz.com kutubxonasi.
7. Murod T. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. Roman. – Toshkent: Sharq, 2001. - 208 b.
9. Safarov Sh. Semantika. –Toshkent: O'zME, 2013.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent: O'zME, 2008. – 317 b.
11. Yusupova O. O'zbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2017. –140 b.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. 2-jild. – Toshkent: O'zME, 2006.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. 3-jild. – Toshkent: O'zME, 2006.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA GAMIFIKATSIYA VA VIZUAL TEKNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASIGA ASOSLANGAN MODEL

Sharipov Ergash Oripovich

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti,

Kozimova Sadoqat Olim qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada 4-sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan gamifikatsiya va vizual texnologiyalar asosidagi integrativ model nazariy jihatdan asoslanadi. O'yin elementlari va ko'rgazmali vositalar yordamida o'quvchilarda tahliliy fikrlash, muammo yechish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot RAM shaklidagi topshiriqlar asosida metodik yondashuvlarning ta'limiy samaradorligini yoritadi.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, gamifikatsiya, vizual texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulot (RAM), o'yinli metodika, tafakkur rivoji, o'quv motivatsiyasi, analitik fikrlash.



МОДЕЛЬ, ОСНОВАННАЯ НА ИНТЕГРАЦИИ ГЕЙМИФИКАЦИИ И ВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Шарипов Эргаш Орипович

Доцент Каршинского государственного технического университета,

Козимова Садокат Олим кызы

Преподаватель Азиатского технологического университета

Аннотация: В статье теоретически обоснована интегративная модель на основе геймификации и визуальных технологий, направленная на развитие логического мышления у учащихся 4-х классов. Рассматриваются возможности развития аналитического мышления, навыков решения проблем и самостоятельного принятия решений у учащихся с использованием игровых элементов и наглядных пособий. В исследовании подчеркивается образовательная эффективность методических подходов, основанных на заданиях в форме оперативной памяти.

Ключевые слова: логическое мышление, геймификация, визуальные технологии, начальное образование, развивающий практикум (РП), игровая методика, развитие мышления, мотивация обучения, аналитическое мышление.

A MODEL BASED ON THE INTEGRATION OF GAMIFICATION AND VISUAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING LOGICAL THINKING IN ELEMENTARY STUDENTS

Sharipov Ergash Oripovich

Associate Professor of Karshi State Technical University,

Kozimova Sadokat Olim kizi

Teacher of Asian University of Technologies

Abstract: The article theoretically substantiates an integrative model based on gamification and visual technologies aimed at developing logical thinking in 4th grade students. The possibilities of developing analytical thinking, problem-solving and independent decision-making skills in students using game elements and visual aids are considered. The study highlights the educational effectiveness of methodological approaches based on tasks in the form of RAM.





Keywords: logical thinking, gamification, visual technologies, primary education, developmental practical training (DPT), game methodology, development of thinking, learning motivation, analytical thinking.

KIRISH

Mantiqiy tafakkur – bu ta’limning ilk bosqichidanoq shakllantirilishi zarur bo’lgan muhim aqliy faoliyat shaklidir. Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan tezkor ijtimoiy va texnologik o’zgarishlar shaxsdan mustaqil, tanqidiy fikrlashga va samarali muammo yechishga qodir bo’lishni talab etadi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat matematika fanini, balki boshqa o’quv fanlarini ham chuqur o’zlashtirish hamda kundalik hayotda to’g’ri qarorlar qabul qilish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, boshlang’ich sinf davrida tafakkurning ko’rgazmali-harakatli va ko’rgazmali-obrazli shakllari ustun bo’lib, bu bosqichda mantiqiy tafakkurni shakllantirish uchun ko’rgazmali vositalar va amaliy mashg’ulotlarga tayanish samarali hisoblanadi.

So’nggi yillarda ta’limga innovatsion yondashuvlar, jumladan, **gamifikatsiya** (o’yinlashtirish) va **vizual texnologiyalar** faol joriy qilinmoqda. Ushbu vositalar darsga qiziqishni oshiradi, o’quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va yuqori darajadagi tafakkur ko’nikmalarini shakllantiradi. Ilg’or xorijiy tajribalar ham shuni ko’rsatadiki, o’yin, hikoya, rolli mashqlar va real muammoli vaziyatlar asosida ta’lim berish bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda gamifikatsiya va vizual texnologiyalarni integratsiyalashgan holda



qo’llashning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot amaliy emas, balki mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilishga asoslangan bo’lib, maqola so’ngida 4-sinf uchun amaliy mashg’ulot topshiriqlari namunasi ham keltiriladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda boshlang’ich sinf


o’quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun gamifikatsiya va vizual texnologiyalarning integratsiyalashgan modelini nazariy jihatdan asoslash maqsad



qilingan. Tadqiqot yondashuvi sifatida nazariy va adabiy manbalarni tahlil qilish, ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarni o'rganish, shuningdek, metodik tavsiyalar ishlab chiqish usuli qo'llanilgan.

1-rasm. Integrativ yondashuv (RAM) modeli: Gamifikatsiya va vizual texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish sxemasi.

Gamifikatsiya o'quv jarayoniga o'yin elementlarini tatbiq etish metodidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ball yig'ish, darajalar bosqichma-bosqich o'sishi, virtual mukofot va "badge"lar o'quvchilar ishtirokini oshiradi hamda ta'limga ijobiy motivatsiya beradi [8]. Ushbu usul tezkor fikr almashinuvi va darhol fikr-mulohazaga asoslangan o'qitish muhitini shakllantirishga yordam beradi.



Vizual texnologiyalar

esa ko'rgazmali vositalar orqali axborotni yetkazishga asoslanadi. Jadvallar, grafiklar, xaritalar va animatsiyalar o'quvchilarda analitik fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, inson miyasi tomonidan idrok etiladigan axborotlarning 70–80% vizual shaklda qabul qilinadi [6].

Tadqiqot doirasida gamifikatsiya va vizual texnologiyalarni integratsiyalashgan **“Rivojlantiruvchi Amaliy Mashg'ulot (RAM)”** modeli ishlab chiqildi. Ushbu model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. O'yin kontekstida (syujet, rol topshiriq) darsni boshlash;
2. Vizual vositalar asosidagi mantiqiy topshiriqlar: sonli jumboqlar, grafik misollar, shakl-munosabat tahlili;
3. Ball to'plash, “leadboard” joriy etish orqali raqobat muhiti yaratish;

1-rasm. Integrativ model sxemasi: mantiqiy tafakkurni rivojlantirish mexanizmi.

Model ta'lim samaradorligini oshirishda ikki asosiy funksiyani bajaradi: gamifikatsiya orqali motivatsiyani kuchaytiradi, vizual vositalar orqali esa abstrakt fikrlashni qulaylashtiradi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar va nazariy tahlillar asosida gamifikatsiya va vizual texnologiyalarning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi



pedagogik salohiyati aniqlandi. Avvalo, gamifikatsiya orqali o'quvchilarda darsga qiziqish ortishi, faol ishtirok ko'rsatkichining oshishi, rag'batlantirish orqali o'z ustida ishlash istagining kuchayishi kuzatiladi. Bu holat o'yin elementlari — ball, mukofot, daraja tizimi — orqali sodir bo'lib, o'quvchining topshiriqni bajarishga bo'lgan ichki motivatsiyasini faollashtiradi.

Vizual texnologiyalar, jumladan, grafiklar, diagrammalar, shakllar va sxemalar orqali taqdim etilgan materiallar tushunishni yengillashtiradi, mavhum tushunchalarni aniq tasvirlar orqali anglash imkonini yaratadi. O'quvchilar axborotni ko'z orqali idrok etgani sababli uni eslab qolish va qayta tiklash darajasi oshadi.

Gamifikatsiya va vizual texnologiyalarning integratsiyasi natijasida rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar (RAM) orqali o'quvchilarni fikrlashga yo'naltirish, tahliliy faoliyatga jalb etish, xulosa chiqarishga undash imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu integrativ yondashuv mantiqiy tafakkurning muhim komponentlari bo'lgan tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya elementlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tashabbus va qatnashuv darajasini oshiradi. O'yin shaklida taqdim etilgan topshiriqlar o'quvchilarni xatolardan cho'chimasdan mustaqil yechim izlashga undaydi. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda emotsional ijobiy muhit yaratadi.

Vizual vositalarning o'quv jarayoniga joriy etilishi axborotning ko'rgazmali shaklini taqdim etish orqali o'quvchilarda tushunish va eslab qolish ko'rsatkichlarini oshiradi. Jumladan, sonlar o'rniga geometrik shakllar, chizmalar va interaktiv grafikalar yordamida mantiqiy aloqalarni ko'rish imkoniyati yaratiladi. Bu esa yuqori darajadagi tafakkur (Higher Order Thinking) – ya'ni, muammoni aniqlash, tahlil qilish va yechimni asoslash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Gamifikatsiya va vizual texnologiyalarning integratsiyasi natijasida bolalarda nafaqat mantiqiy fikrlash, balki metakognitiv refleksiya — ya'ni, o'z fikr yuritishini kuzatish va baholash qobiliyati ham rivojlanadi. Darslar davomida mustaqil fikrlash, jamoaviy bahs-munozaralarda ishtirok etish, qaror chiqarish va fikrni asoslash holatlari faollashadi. Tahlil asosida xulosa qilish mumkinki, bu integrativ yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat bilim darajasini, balki fikrlash madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda gamifikatsiya va vizual texnologiyalarni integratsiyalash samarali yondashuv sifatida nazariy asoslandi. Ushbu model o'quvchilarda qiziqish uyg'otib, darsga faol



jalb etadi hamda murakkab tushunchalarni tushunarli va esda qolarli qiladi. Tahlillarga ko'ra, gamifikatsiyalashgan vizual topshiriqlar orqali o'quvchilarning analiz, taqqoslash, xulosa chiqarish va mustaqil fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi – tafakkur shakllari xususiyatlari haqida. *CyberLeninka* elektron resurs.
2. Nigmatova M.M. (2025). *Creative Approach to Logical Thinking in Primary Education. International Journal of Pedagogics*, 5(3), 202–208.
3. Rahmatova F.A., Akramova Z.B. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. *Integration of Science, Education and Practice*, 3(4), 133–137.
4. Akramova Z. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish metodikasi. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(13), 417–422.
5. Raiyn J. (2016). The Role of Visual Learning in Improving Students' High-Order Thinking Skills. *Journal of Education and Practice*, 7(24), 115–121
6. Gamification in Elementary Education: What Is It, Benefits, And How To Use It. *Kodable Blog*, 2024.
7. O'rganish uchun o'yinlashtirish – Talabalarni jalb qilish bo'yicha qo'llanma. *Aha Slides* blogi.

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INTERFAOL TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Muqaddam Jumanazarova

Qarshi tumani 12-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Rezyume: Maqolada boshlang'ich sinf darslarida yangi interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishning nazariy jihatlarini ilmiy tahlil etilgan. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash tobora keng tus olmoqda. O'quvchilar uchun mo'ljallangan ta'limdan ko'zlangan mazmun va maqsad bitta – o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash, o'quvchilarning o'z xoxishi, istaklari va qiziqishlari bo'yicha mustaqil bilim egallash, egallangan bilimlarini esa kerakli o'rinlarda unumli qo'llay olish, dastlabki kasb ko'nikmalarini shakllantirish ilmiy jihatdan tahlil etib beriladi.





Kalit so‘zlar: *Interaktiv metod nima, muloqot, yangi bilim berish, ko‘nikma, malaka, bilimlarni mustahkamlash va takrorlash, venn diagrammasi, norasmiy bahs.*

ИСПОЛЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Мукаддам Джуманазарова

Начальная школа Каршинского района классный руководитель

Резюме: *В статье дан научный анализ теоретических аспектов использования новых интерактивных методов обучения на уроках начальной школы. В настоящее время применение интерактивных методов в образовательном процессе приобретает все более широкий размах. Содержание и сел обучения, предназначенного для учащихся, едини – подготовка учащихся к самостоятельной жизни, приобретение самостоятельных знаний по собственным желаниям, желаниям и интересам учащихся, а также возможность продуктивно применять полученные знания в нужных местах, формирование начальных профессиональных навыков анализируются с научной точки зрения.*

Ключевые слова: *Что такое интерактивный метод, общение, передача новых знаний, умений, навыков, закрепление и повторение знаний, диаграмма Венна, неформальный аргумент.*

USING INTERACTIVE TEACHING METHODS IN ELEMENTARY SCHOOL LESSONS

Muqaddam Jumanazarova

Primary school teacher, Karshi district school No. 12

Summary: *The article provides a scientific analysis of the theoretical aspects of using new interactive teaching methods in elementary school lessons. Currently, the use of interactive methods in the educational process is becoming more widespread. The content and purpose of the training intended for students are the same – preparing students for independent living, acquiring independent knowledge based on their own desires, desires and interests of students, as well as the opportunity to productively apply the acquired knowledge in the right places, the formation of initial professional skills are analyzed from a scientific point of view.*





Keywords: *What is an interactive method, communication, transfer of new knowledge, skills, consolidation and repetition of knowledge, Venn diagram, informal argument.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash tobora keng tus olmoqda. O'quvchilar uchun mo'ljallangan ta'limdan ko'zlangan mazmun va maqsad bitta – o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash, o'quvchilarning o'z xohishi, istaklari va qiziqishlari bo'yicha mustaqil bilim egallash, egallangan bilimlarini esa kerakli o'rinlarda unumli qo'llay olish, dastlabki kasb ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu pedagogning asosiy va yuksak vazifalaridan biri hisoblanadi. Ana shunday vazifalarni ado etish uchun dars jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash – eng samarali usul ekanligi ahamiyatlidir. Buning uchun o'qituvchi interaktiv metodlarning mohiyatini anglay bilishi va ularni o'z o'rnida qo'llay bilishi zarur.

Interaktiv metod nima?

Interaktiv so'zi inglizcha - interaction so'zidan olingan bo'lib, "inter" – o'zaro, birgalikda, "act" – harakat, ya'ni o'zaro, birgalikdagi harakat degan ma'nolarni bildirib, hamkorlikda o'qitishga asoslanadi. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar bir vaqtda bir necha masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi- oquvchilarninig muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarininig fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarninig bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarninig asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Interaktiv metodlar ayrim mavzular bo'yicha va qulay turlari shaklida qo'llaniladi. Dastlab interfaol metod asosidagi dars ishlanmasi tayyorlab olinadi va vaqtdan unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, darsning loyihasi tayyorlanadi. Buning uchun o'qituvchi va o'quvchining vazifasi aniq belgilab olinadi. Darsni to'g'ri rejalashtirish, uni o'tkazish usullari va zarur vositalarni to'g'ri tanlash zarur.

Interaktiv metodlar ta'limdan ko'zlangan maqsadga muvofiq tanlanishi (yangi bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni mustahkamlash va takrorlash), o'quv fanining xususiyatlari hisobga olinishi bu darsning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.



“Tushunchalar tahlili metodi” – o‘quvchilarning o‘tilgan mavzu yuzasidan berilgan tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olganlik darajalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Ushbu metod o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan yodga olish, biron – bir mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni baholay olishga yo‘naltirilgan. Bu metodni mashg‘ulotda, yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka, kichik guruh, jamoa shaklida o‘tkazish mumkin. Metodni o‘tkazish uchun tayanch tushunchalar ro‘yxati, tayanch tushunchalar yozilgan tarqatma materiallar kabi vositalardan foydalaniladi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- O‘quvchilar guruhlariga ajratiladi;
- O‘quvchilar mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiriladi;
- Tarqatma materiallar guruh a‘zolariga tarqatiladi;
- O‘quvchilar yakka tartibda mavzu bo‘yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- O‘quvchilar tarqatma materialdagi mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida izoh yozadilar;
- O‘qituvchi tarqatmadagi yozilganlarni o‘qiydi va to‘g‘ri javobni belgilaydi;
- Izohlar tahlili;
- Har bir o‘quvchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar. O‘z-o‘zlarini baholaydilar.

Namuna:

Tushunchalar	Mazmuni
Ot	Shaxs – narsaning nomini bildiruvchi so‘z turkumi
Sifat	Shaxs – narsaning belgisini bildiruvchi so‘z turkumi
Son	Shaxs – narsaning sanog‘ini bildiruvchi so‘z turkumi
Fe‘l	Shaxs – narsaning harakatini bildiruvchi so‘z turkumi


“Venn diagrammasi” metodi. “Venn diagrammasi” metodining ma‘nosi, Venn- ingliz olimining nomi, diagramma – doiralar kesishuvidir. Ushbu uslub o‘tilgan o‘quv predmeti yoki ma‘lum bir asarni to‘liq tugatgandan so‘ng, o‘quvchilar tomonidan fanni qay darajada o‘zlashtirganligini bilish maqsadida o‘tkaziladi. Shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni baholay olishga yo‘naltirilgan. Ushbu texnologiya ona tili o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida



saqlash, soʻzlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida oʻqituvchi tomonidan barcha oʻquvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Mashgʻulotni oʻtkazilish tartibi:

- Oʻquvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
- Oʻquvchilar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- Oʻtilgan mavzu oʻqituvchi tomonidan qisqa savol-javoblar orqali eslatiladi;
- Berilgan maʼlumotlarni oʻzlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun ichki nazorat oʻtkaziladi;
- Har bir guruhning ishi umumiy ball bilan aniqlanadi;
- Guruh aʼzolari tomonidan toʻplangan umumiy ballar yigʻindisi aniqlanadi;
- Guruhlar toʻplagan umumiy ballar guruh aʼzolari oʻrtasida teng taqsimlanadi.



Ushbu diagramma oʻquvchilarni tanqidiy fikrlashga, har bir boʻlim yoki asar timsollarini atroflicha bilishga oʻrgatadi, shuningdek ularning xotirasini, gʻoyalarini, fikrlarini, dalillarini yozma va ogʻzaki shakllarda bayon qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Demak, toʻgʻri tanlangan va tashkil etilgan interaktiv metodlarga taʼlim – tarbiyaviy ishlarida samaradorlikka erishishni taʼminlaydi. Buning uchun interaktiv metodlarning mezonlarini aniqlash zarur.

Interaktiv metodlarning asosiy mezonlari quyidagilar:

- norasmiy bahs – munozaralar;
- oʻquv materialini erkin bayon etish va ifodalash;
- oʻquvchilar tashabbus koʻrsatishlariga imkoniyat yaratish;
- kichik guruh, katta guruh va jamoa boʻlib ishlash uchun topshiriqlar berish;
- yozma ishlar bajarish;
- nazariy bilim berishdan amaliyotning koʻpligi va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, Interaktiv metod oʻquvchilarda taʼlimning mazmunini mustaqil oʻzlashtirib olish va oʻz fikr, xulosalarini shakllantirish uchun motiv hosil qiladi va quyidagi koʻnikmalarni shakllantirib, rivojlantirib boradi:



- o'z oldiga maqsad qo'yish;
- erkin va mustaqil fikrlash;
- o'z fikr – mulohazalarini bayon etish va uning to'g'riligini boshqalarga isbotlash;
- yakka va juftlikda ishlash;
- ijodiy fikrlash;
- ma'lumotlarni tahlil qilish;
- xulosalar chiqarish;
- o'z iqtidorini namoyish qilish;
- berilgan imkoniyatlardan eng ma'qulini tanlash;
- bahs – munozaraga kirisha olish;

Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va loyihalarga muvofiq o'tkaziladi. Buning uchun interaktiv metod turlari juda ko'p. Ularni dars mavzusining xususiyatlari va ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlansa kifoya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva.G.A (2020). Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Ibragimova.N.S (2019). Pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar. Toshkent: Muallim.
3. Hamidov.N.X (2021). Interfaol ta'lim metodlarining boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi. – "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali, №2, 45–50-betlar.
4. Karimova.D.Y (2020). Boshlang'ich sinflarda darsni interfaol tashkil etish usullari. – "Xalq ta'limi" jurnali, №5, 33–36-betlar.
5. To'xtayev.A.M (2018). Innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlar. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
6. Mamarasulova.SH.M (2021). Interfaol o'qitish usullari orqali o'quvchilarning faolligini oshirish. – "O'qituvchi va zamon" jurnali, №3, 20–25-betlar.
7. O'zR Xalq ta'limi vazirligi (2019). Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent.
8. Vygotsky.L.S (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. (Interfaol o'qitish nazariyasi asoschisi sifatida muhim manba)

